



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
VAZIRLIGI

Onlayn muhitda bolalarni himoya qilish bo'yicha o'qituvchi va ota-onalar uchun rahbariy ko'rsatmalar

2020



Onlayn muhitda bolalarni himoya qilish bo'yicha o'qituvchi va ota-onalar uchun rahbariy ko'rsatmalar

Minnatdorchilik

Ushbu rahbariy ko'rsatmalar Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (XTI) va bolalarni (onlayn muhitda) himoya qilish muammolari bilan shug'ullanuvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi yetakchi muassasalarning, shu jumladan quyidagi tashkilotlarning mualliflaridan iborat ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan:

ECPAT International, the Global Kids Online network, Xalqaro nogironlar ittifoqi, Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (XTI), London iqtisodiyot va siyosiy fanlar maktabi, Internet matters, Parent Zone International va the UK Safer Internet Centres/SWGfL.

Ishchi guruh Karl Xopvud raisligi ostida (Xavfsiz internet markazining xavfsiz tarmog'i (Insafe))¹ faoliyat olib bordi va Fanni Rotino (XTI) tomonidan muvofiqlashtirildi.

COFACE-Families Europe, Avstraliya eSafety komissariati, Yevropa komissiyasi, Yevropa konsulligi, e-Worldwide guruhi (e-WWG), ICMEC, Yoshlar va ijtimoiy tarmoq/Internet masalalari bo'yicha Berkman Klein markazi va Garvard universiteti jamiyatlari, shu bilan birga, Internetni bolalar va yoshlar uchun yaxshiroq va xavfsizroq joyga aylantirishdek umumiy maqsad bilan birlashgan alohida hukumatlar va xususiy sektor manfaatdor taraflari tomonidan bebaho hissalar qo'shildi.

Mualliflarning vaqti, g'ayrati va fidoyiligsiz ushbu rahbariy ko'rsatmalarni amalga oshirish mumkin emas edi.

XTI quyidagi hamkorlarga qimmatli vaqtlarini ajratganliklari uchun va o'z qarashlari bilan o'rtoqlashganliklari uchun minnatdorchilik izhor etadi (tashkilotlar nomi alifbo tartibida keltirib o'tilgan):

- Julia Fossi va Ella Serry (Avstraliya eSafety komissariati)
- Martin Shmalzrid (COFACE-Families Europe)
- Livia Stoica (Yevropa kengashi)
- John Carr (ECPAT International)
- Manuela Marta (Yevropa komissiyasi)
- Salma Abbasi (e-WWG)
- Laurie Tasharski (ICMEC)
- Lucy Richardson (Xalqaro nogironlar ittifoqi)
- Carolyn Bunting (Internet matters)
- Fanny Rotino (XTI)
- Sonia Livingston (London iqtisodiyot maktabi va Global Kids Online)
- Cliff Manning va Vicki Shotbolt (Parent Zone International)
- David Wright (Birlashgan Qirollikning Xavfsizlik markazlari/SWGfL)
- Sandra Cortesi (Yoshlar va Ijtimoiy tarmoqlar)

¹ Under the Connecting Europe Facility (CEF), European Schoolnet runs, on behalf of the European Commission, the Better Internet for Kids platform which includes the coordination of the Insafe network of European Safer Internet Centres. More information is available at www.betterinternetforkids.eu



**Mazkur hisobotni chop qilishdan avval atrof-muhit haqida o'ylashingiz
so'rab qolinadi**

Ushbu hisobot [Guidelines for parents and educators on Child Online Protection](#) hujjatining tarjima nusxasi hisoblanadi. Ushbu hujjatning asl nusxasi XTI tomonidan ingliz tilida tayyorlangan. Ushbu tarjima Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (XTI) tomonidan amalga oshirilmagan va bu tarjima XTIning rasmiy tarjima ishi deb hisoblanmasligi kerak. XTI mazkur tarjima hisoboti mazmunidagi xatoliklar uchun javobgar emas.

Soʻz boshi

XITI 2009-yilda bolalarni onlayn muhitda himoya qilish boʻyicha oʻzining birinchi rahbariy koʻrsatmalar toʻplamini ishlab chiqdi. Shu vaqtda bizning maqsadimiz turli manfaatdor tomonlar - ota-onalar va oʻqituvchilarga, tarmoq tashkilotlariga, koʻrsatma beruvchi idoralarga va bolalarga - Internetning eng yosh foydalanuvchilariga onlayn muhitda xavfsiz, yaxshi va ishonchli vaqt oʻtkazishlari imkoniyatini taʼminlash uchun xalqaro miqyosda kelishilgan tamoyillar taqdim etishdan iborat.

Oʻsha vaqtdan boshlab Internet keskin oʻzgarishlarga duch keldi. Internet bolalar uchun taʼlim oʻyinlari, qiziqarli mashgʻulotlar va maʼlumot almashish, bilim olish va doʻstlar, oila va tashqi dunyo bilan mazmunli muloqot qilishning koʻplab usullarini taklif qiluvchi cheksiz manbaga aylandi. Shu bilan birga, ularning nazoratsiz mashgʻul boʻlishlari uchun ancha xavfli joyga aylandi.

Hozirgi vaqtda bolalar va ularning tarbiyachilari maxfiylikni muhofaza qilish, yolgʻon yangiliklar va yolgʻon maʼlumotlar tarqalishidan tortib, zoʻravonlik va boshqa nomaqbul kontent aks ettirilgan, internet-firibgarliklar, shuningdek onlayn muhitda gruming, jinsiy zoʻravonlik va jinsiy ekspluatatsiya kabi koʻplab xavf va daʼvatlarga duch kelishmoqda.

Bundan tashqari, global COVID -19 pandemiyasi oʻz taʼlimini davom ettirish va ijtimoiy oʻzaro munosabatlarni davom ettirish uchun birinchi marta internetdan foydalanayotgan bolalar sonining koʻpayishiga olib keldi. Virus sababli kiritilgan cheklovlar oqibatida koʻplab yosh bolalar ularning ota-onalari rejalashtirganidan koʻra tarmoqda ancha erta muloqot qilishni boshlaganliklarini va buning natijasida ota-onalar ish majburiyatlarini qayta koʻrib chiqish zaruriyati tufayli oʻz bolalarini nomaqbul kontentga kirish yoki bolalarga nisbatan jinsiy zoʻravonlik materillarini ishlab chiquvchi jinoyatchilarning nishoniga aylanish xavfida qolishdan nazorat qila olmasliklarini anglatadi.

Shuni inobatga olgan holda, XITiga aʼzo mamlakatlar doimiy ravishda COP (child online protection) boʻyicha Rahbariy koʻrsatmalarni oʻz vaqtida yangilashdan koʻra koʻproq narsani talab qildilar. Va biz hozirgi avlodni oʻrab turgan raqamli muhitdagi muhim oʻzgarishlarni aks ettirish uchun qayta koʻrib chiqilgan, qayta yozilgan va qayta ishlab chiqilgan ushbu yangi qayta koʻrib chiqilgan rahbariy koʻrsatmalarini tayyorladik.

Siz, ushbu rahbariy koʻrsatma foydalanuvchilari uchun bizning maqsadimiz muammoning koʻlami haqida sizning xabardorligingizni oshirish va yoshlarni onlayn muhit bilan oʻzaro munosabatlarida samarali qoʻllab-quvvatlashga yordam beradigan axborot manbaini taqdim etishdan iborat. Ushbu rahbariy koʻrsatmalar sizning eʼtiboringizni potensial xavf va tahdidlarga qaratadi hamda sogʻlom, keng huquq va imkoniyatlar muhitini maktab va uyda yaratishga yordam beradi. Bu koʻrsatmalarda bolalar bilan ochiq muloqot va doimiy suhbat qurish, Internetning yosh foydalanuvchilari oʻzlarini qiziqtirgan masalalarni koʻtarish huquqini anglaydigan xavfsiz muhitni yaratish muhimligiga eʼtibor qaratiladi.

Raqamli texnologiyalar va platformalardagi yangi ishlanmalarni kiritishdan tashqari, ushbu yangi nashrda nogiron bolalarning ahvoliga eʼtibor qaratilib, ular uchun onlayn muhit ijtimoiy hayotda toʻliq ishtirok etish uchun ayniqsa muhim imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu hujjatda migrant bolalar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarning alohida ehtiyojlari ham hisobga olingan.

Men ushbu Rahbariy koʻrsatmalar umumjahon miqyosida hamkorlikdagi ish natijasi boʻlganligi va keng xalqaro hamjamiyaddagi mutaxassislar ularning hammualliflari ekanligidan faxrlanaman, bu esa XITning global tashkilotchi sifatidagi asl maqsadiga mos keladi.

Shuningdek, men COPning yangi timsoli sifatida xushmuomala, shijoatli va qoʻrqmas xarakterga ega Sangoni tanishtirishdan mamnunman: u XITI yoshlar bilan aloqa qilish yangi xalqaro dasturining bir qismi sifatida bir guruh bolalar tomonidan yaratilgan.

Onlayn texnologiyalardan foydalanayotgan yoshlar tobora koʻpayib borayotgan ushbu davrda, ushbu COP boʻyicha rahbariy koʻrsatmalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ota-onalar va

o'qituvchilar, tarmoq tashkilotlari, ko'rsatma beruvchi organlar va bolalarning o'zlari ham onlayn muhitda bolalarning xavfsizligini ta'minlashda hayotiy muhim rol o'ynaydilar. Umid qilamanki, siz bolalaringizga Internet taqdim etayotgan ajoyib imkoniyatlar orqali maftunkor sayohatlarida g'amxo'rlik qilayotganingizda ushbu rahbariy ko'rsatmalarni foydali deb topasiz.



Telekommunikatsiya rivojlantirish byurosi direktori
Bogdan-Martin Dorin

Mundarija

Minnatdorchilik	iii
So'z boshi	v
Rezyume	1
1. Kirish	3
2. Onlayn muhitda bolani himoya qilish o'zi nima ?	6
3. Bolalar va yoshlar Internetga ulangan dunyoda	7
4. Zaif vaziyatda bo'lgan bolalar	22
5. Yangi va shakllanayotgan xavf va qiyinchiliklar	25
6. Xavf-xatarlar va zarar manbalarini anglash	31
7. Ota-onalar va vasiylarning roli	36
8. Ota-onalar va vasiylar uchun rahbariy ko'rsatmalar	40
9. O'qituvchilarning roli	47
10. O'qituvchilar uchun rahbariy ko'rsatmalar	53
11. Xulosa	56
Atamalar	57

Rasm va jadvallar ro'yxati

Jadvallar

1-jadval : Ota-onalar va vasiylar e'tiborga olishi kerak bo'lgan asosiy fikr-mulohazalar	41
2-jadvalr : O'qituvchilar e'tiborga olishi kerak bo'lgan asosiy fikr-mulohazalar	53

Rasmlar

1-rasm: Jinsi va yoshi ajratilgan haftada kamida bir marta onlayn o'yin o'ynaydigan bolalar (% da)	9
2-rasm: Jins va yoshi bo'yicha ajratgan holda haftada kamida bir marta ijtimoiy faoliyatning kamida uchta turi bilan shug'ullanadigan bolalar (% da)	11
3-rasm: Jinsi va yoshi bo'yicha ajratgan holda har hafta onlayn muhitda faoliyatning hech bo'lmasa bitta turi bilan shug'ullanadigan bolalar (% da)	13
4-rasm: Jinsi va yoshi bo'yicha ajratgan holda haftada kamida bir marta axborotni qidirish faoliyatining kamida uch turini amalga oshiradigan bolalar (% da)	15
5-rasm: Jinsi va yosh bo'yicha ajratgan holda onlayn muhitda zarar ko'rgan bolalar (% da)	18
6-rasm: Jinsi va yoshi bo'yicha ajratgan holda uyda kamida haftada bir marta Internetdan foydalanadigan bolalar (% da)	21
7-rasm: Onlayn muhitda bolalar duch keladigan xavf-xatarlar tasnifi	31
28-rasm: Internetdan uyda (2012y.) yoki uydan tashqarida (2017, 2018 va 2019yy.) internetdan xavfsiz foydalana olish bo'yicha qandaydir axborot yoki maslahatlar olganligini xabar qilgan bolalar, yoshi bo'yicha ajratgan holda	49

Rezyume

XTI malumotlariga ko'ra 2019-yilda 4,1 milliardga yaqin odamlar Internetdan foydalandi, bu 2018-yilga nisbatan 5,3% ga ko'p.

Bolalar va yoshlar internetdan turli maqsadlarda foydalanadilar: maktabdagi amaliy mashg'ulotlar orqali malumot olishdan tortib, do'stlar bilan muloqot qilishgacha. Ular mobil telefonlar, planshetlar va soatlar, iPod Touch, elektron kitoblar va o'yin pristavkalari kabi boshqa ko'chma qurilmalar yordamida Internetga ulanib, murakkab dasturlar va ilovalarni juda yaxshi ishlata oladilar.²

Internet, shuningdek, turli zaif guruhlardagi bolalar va yoshlarning hayotida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Misol uchun, bu migrant bolalarning oilasi va do'stlari bilan aloqada bo'lishiga yordam beradi va ular yangi uyining madaniy hayotiga bir darcha bo'ladi. Bu nogiron bo'lgan bolalar va yoshlarga internetga ulanish imkoniyati bo'lmagan sharoitlarda ular foydalana olmaydigan faoliyat turlarida muloqot qilish va ishtirok etish imkonini beradi hamda ularga onlayn muhitda tengdoshlari bilan tengma-teng bo'lish, jismoniy nogironlikdan ko'ra ko'proq qobiliyatlari bilan ajralib turish imkoniyatini beradi.

Shu bilan birga, Internetdan foydalana olish va turli imkoniyatlarni taqdim etish bilan birga, xavf-xatarlar va zarar keltirishi mumkin. Misol uchun, migrant bolalar va yoshlar uchun axborot maxfiyligining onlayn buzilishi oqibatlarini og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin: begona qo'llarda olingan ma'lumotlardan odamlarning etnik kelib chiqishi, immigratsiya maqomi yoki tegishliligining boshqa belgilari tufayli ularni aniqlash³ va nishonga olish uchun foydalanish mumkin; autizm spektrining buzilishi bo'lgan bolalar (ASD) va yoshlar uchun boshqalarning niyatlarini tushunish qiyinligi kabi ijtimoiy muammolar ularni yomon niyatli "do'stlar" deb ataladigan odamlar oldida himoyasiz qoldirishi mumkin; nogiron bolalar va yoshlar esa ijtimoiy ajratish, masxaralash va boshqarishga ko'proq moyil bo'ladi.

Ko'pgina ota-onalar va vasiylar ularning bolalari uyda yoki maktabda kompyuterdan boshqa joylardan ko'ra uyda yoki maktabda foydalansa ko'proq xavfsizroq bo'ladi degan noto'g'ri tushunchaga boradilar. Bu xavfli noto'g'ri tushuncha hisoblanadi, chunki Internet bolalar va yoshlarni dunyoning deyarli istalgan nuqtasiga yetkazishga qodir va ayni o'sha paytda ular xuddi haqiqiy dunyoda bo'lgani kabi potensial xavflarga duch kelishlari mumkin. Shu bilan birga, smartfonlar, planshetlar yoki boshqa ko'chma qurilmalar yordamida Internetdan foydalanayotgan bolalar va yoshlarning zarar ko'rish xavfini sezilarsiz darajada his qiladilar. Buning sababi shundaki, bunday ko'chma qurilmalar ularga istalgan joydan bir zumda Internetga kirishni ta'minlaydi va bunda ota-onalar yoki vasiylarning nazorati kamroq bo'lish ehtimoli bor.

Ushbu rahbariy ko'rsatmalar nafaqat bugungi yoshlar, balki kelajak avlod uchun ham xavfsiz va himoyalangan kiberolam uchun asos bo'lib xizmat qilishi uchun XEIning Global kiberxavfsizlik dasturining⁴ bir qismi sifatida Bolalarni onlayn muhitda himoya qilish (COP) tashabbusi doirasida ishlab chiqilgan. Ular, shuningdek, zaifligi bo'lgan bolalarga, xususan, migrant bolalarga, ASD va nogiron bolalar uchun mo'ljallangan.

Ushbu rahbariy ko'rsatmalar mavjud milliy yoki mahalliy urf-odatlar va qonunlarni hisobga olib moslashtirilishi va foydalanilishi mumkin bo'lgan dastur sifatida qo'llanishi hamda u 18 yoshgacha bo'lgan barcha yoshlar va bolalarga tegishli bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilishga yordam berishi mumkin.

² ITU, (2019), Measuring digital development. Facts and figures 2019, <https://www.itu.int/en/ITU-D/Statistics/Documents/facts/FactsFigures2019.pdf>.

³ ITU, (2019), Measuring digital development. Facts and figures 2019, <https://www.itu.int/en/ITU-D/Statistics/Documents/facts/FactsFigures2019.pdf>.

⁴ ITU, (2019), Measuring digital development. Facts and figures 2019, <https://www.itu.int/en/ITU-D/Statistics/Documents/facts/FactsFigures2019.pdf>.

BMTning bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi bolani 18 yoshga to'lmagan shaxs sifatida belgilaydi. Ushbu rahbariy ko'rsatmalar dunyoning barcha qismlarida 18 yoshga to'lmagan barcha shaxslar duch keladigan muammolarga tegishli. Biroq yetti yoshli Internet foydalanuvchisi 12 yoshli o'rta maktab o'quvchisi yoki voyaga yetish arafasida turgan 17 yoshli o'smir talablari va qiziqishlari bilan bir xil talablar va qiziqishlarga ega bo'lishi ehtimoli kam. Ushbu rahbariy ko'rsatmalar turli sharoitlarga nisbatan qo'llab bo'ladigan maslahat yoki tavsiyalar berish uchun mo'ljallangan, chunki muayyan ehtiyojlar individual ko'rib chiqishni talab qiladi, turli mahalliy, huquqiy va madaniy omillar esa ushbu ko'rsatmalardan ushbu mamlakat yoki ushbu mintaqada qanday foydalanilishiga yoki talqin qilinishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

1 Kirish

Global miqyosda har uchinchi internet foydalanuvchisi 18 yoshdan kichik bo'lib⁵, 2018-yilda dunyo aholisining yarmidan ko'pi Internetdan foydalanganini hisobga olsak, bu juda katta ko'rsatkichdir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalar internetdan foydalanish bo'yicha yetakchilik qilmoqdalar, ular internet bilan o'sib ulg'aymoqdalar hamda mobil aloqaga birinchi⁶ navbatda ulanmoqdalar.

Dunyo bo'ylab yanada ko'proq bolalar Internetdan foydalana olish imkoniyatiga ega bo'layotgan sharoitlarda ularning huquqlarini amalga oshirish tobora onlayn muhitda sodir bo'layotgan hodisalarga qarab shakllanib boradi. Internetdan foydalana olish bolalar huquqini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Hozirda har uchinchi bola internet foydalanuvchisi bo'ladigan bo'lsa, hali ham dunyoda 346 millionga yaqin bola Internetga ulanish imkoniyatiga ega emas.⁷ Internet taqdim etayotgan imkoniyatlardan birinchi bo'lib foydalanishi kerak bo'lganlarning aksariyati Internetga eng kam ulanganlardir. Biz Afrika mintaqasida bolalarning taxminan 60 foizi Internetga ulanmaganligini ko'ramiz, Yevropada bu ko'rsatkich 4 foizga teng.⁸

Internetdan foydalanishda jinsga ko'ra ham sezilarli farqlar mavjud. Tadqiqotlar⁹ shuni ko'rsatadiki, Shimoliy va Janubiy Amerikadan tashqari har bir mintaqada Internet foydalanuvchi erkaklar ulushi Internetdan foydalanuvchi ayollarga nisbatan ko'pchilikni tashkil qiladi. Ko'pgina mamlakatlarda qizlar o'g'il bolalar kabi Internetdan foydalanish imkoniyatiga ega emaslar va hatto ular bunday imkoniyatga ega bo'lgan joylarda ham qizlar ko'pincha nazorat qilinadi va Internetdan foydalanishda ko'proq cheklovlarga duch keladilar.

Raqamli tafovut faqat Internetdan foydalanish muammosi bilan cheklanmaydi. Asosan kompyuterdan ko'ra mobil telefonlardan foydalanadigan bolalar sifat bo'yicha ikkinchi onlayn tajribaga ega bo'lishlari mumkin, raqamli ko'nikmalarga ega bo'lmagan yoki faqat etnik kamchilik tillarida gapiradiganlar ko'pincha Internetda tegishli kontentni topa olmaydilar. Qishloq joylardan kelgan bolalarning parollari yoki pullarini o'g'irlash ehtimoli ko'proq. Bundan tashqari, ular kamroq raqamli ko'nikmalarga ega, tarmoqda ko'proq vaqt o'tkazadilar (xususan o'yin o'ynaydilar) va ota-onalar aralashuvini va ular tomonidan nazoratni kamroq his qiladilar.¹⁰

Bolalar kabi kattalar ham raqamli tafovut ular uchun doimiy tashvish ekanligini va shuning uchun maqsadli sarmoya va ijodiy yechimlarni talab qilishini ta'kidlaydilar. Bunday sharoitda tarmoqdagi bolalar soni doimiy ravishda o'sib bormoqda, ammo ularning ko'pchiligi ota-onalar,

⁵ Livingstone, S., Carr, J., and Byrne, J. (2015) *One in three: The task for global internet governance in addressing children's rights*. Global Commission on Internet Governance: Paper Series. London: CIGI and Chatham House, <https://www.cigionline.org/publications/one-three-internet-governance-and-childrens-rights>

⁶ ITU (2020), *Measuring the Information Society Report*, https://www.itu.int/dms_pub/itu-d/opb/ind/D-IND-ICTOI-2018-SUM-PDF-E.pdf.

⁷ UNICEF (2017), *The State of the World's Children 2017: Children in a Digital World*, <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/711/file/SOWC:%20Children%20in%20a%20Digital%20World.pdf>.

⁸ UNICEF.

⁹ Araba Sey and Nancy Hafkin (2019), *REPORT OF EQUALS RESEARCH GROUP, LED BY THE UNITED NATIONS UNIVERSITY (United Nations University and EQUALS Global Partnership)*, <https://i.unu.edu/media/cs.unu.edu/attachment/4040/EQUALS-Research-Report-2019.pdf>.

¹⁰ UNICEF (2019). *Growing up in a connected world*. UNICEF Office of Research - Innocenti, Florence, <https://www.unicef-irc.org/publications/pdf/GKO%20Summary%20Report.pdf>.

o'qituvchilar va boshqa obro'ga ega kattalar tomonidan kerakli ko'rsatmalarni olmaydilar. Natijada, bolalar xavf ostida qolishda davom etmoqda.

Internet ko'plab afzalliklarni va imkoniyatlarni taqdim etuvchi texnologiyaga aylandi. Internet va u bilan bog'liq raqamli texnologiyalarning afzalliklari ayniqsa bolalar va yoshlar uchun juda sezilarli. Bu texnologiyalar bir-birimiz bilan muloqot qilish uslubimizni o'zgartirmoqda va ko'plab to'siqlarni yengib o'tib, o'yinlar, musiqa tinglash va turli madaniy tadbirlarda ishtirok etish uchun ko'plab yangi imkoniyatlarini ochib bermoqda. Bolalar onlayn muhitda bo'lganlarida axborot yig'ish va aloqalar o'rnatish imkoniyatlaridan foydalanib, o'z dunyoqarashlarini kengaytirishlari mumkin. AKTdan foydalanish ularga tarmoqdan tashqarida ishtirok etishning boshqa shakllarini to'ldiradigan ko'nikmalarga ega bo'lish imkonini beradi. Internet sog'liqni saqlash va ta'lim sohasidagi xizmatlardan foydalanishda, shu bilan birga yoshlar uchun muhim bo'lgan, ammo ular mansub bo'lgan jamiyatda taqiq deb hisoblanishi mumkin bo'lgan axborotni olishda vosita bo'lib xizmat qiladi. Bolalar va yoshlar ko'pincha Internet taqdim etayotgan yangi imkoniyatlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanishda birinchi o'rinda turadilar.

Albatta, internetning paydo bo'lishi bilan bolalar va yoshlar xavfsizligini ta'minlash borasida ko'plab muammolar yuzaga kelganini inkor etib bo'lmaydi va yoshlar o'zlari uchun muhim bo'lgani uchun ham, Internetga shubha bilan qaraydigan har bir odamga uning ishonchli vosita ekanligini yetkazish muhimligi uchun ham yechim talab qiladilar. Shu bilan birga, bolalar va yoshlarning onlayn muhitdagi himoyasi bilan bog'liq xavotirlar so'z erkinligi, o'z fikrini bayon etish va yig'ilishlar erkinligi buzilgani haqidagi ayblovlarni oqlash uchun bahona bo'lishiga yo'l qo'ymaslik zarur.

Kelajak avlod Internetdan ishonch bilan foydalanishi, o'z navbatida, uning rivojlanishidan foyda olishda davom etishi juda muhimdir. Shu tariqa, onlayn muhitda bolalar va yoshlarning xavfsizligi to'g'risidagi masalalarni muhokama qilishda hammaga maqbul fikrni tanlash juda muhimdir.

Bolalar va yoshlar onlayn muhitda duch kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni aniqlashga, shuningdek bolalarni ortiqcha qo'rqitmasdan va xavflarni oshirib yubormasdan yetkaziladigan zararning oldini olish yoki bartaraf qilishga o'rgatish uchun bu xavf-xatarlarni ochiq muhokama qilish juda muhimdir.

Faqatgina yoki asosan texnologiyaning salbiy tomonlari hisobga olinadigan yondashuv bolalar va yoshlar tomonidan jiddiy qabul qilinishi ehtimoli juda kam. Bunda ota-onalar va o'qituvchilar ko'pincha noqulay ahvolga tushib qolishlari mumkin, chunki yoshlar ko'pincha texnologiya va uning imkoniyatlari haqida keksa avlodga qaraganda ko'proq bilishadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik bolalar kiberbulling zarar yetkazish uchun mo'ljallanganligini anglagan holda, kiberbullingni oddiy hazil yoki onlayn hazildan ajrata oladilar. Dunyoning ko'p joylarida bolalar tarmoqda duch keladigan xavflarni haqiqatan ham ko'proq tushunishadi¹¹.

Biroq bolalarni onlayn xavflarni boshqarish bo'yicha o'rgatish bo'yicha sa'y-harakatlar samarali ekanligi haqida xulosa qilish mumkin bo'lsa-da, butun dunyo bo'ylab ko'plab bolalar, ayniqsa zaif guruhlardagi bolalar orasida xabardorlikni oshirish imkoniyatlari mavjud va aynan mana shu bolalarga birgalikdagi sa'y-harakatlar, xususan, kiberbulling va onlayn xavfning boshqa shakllari qurbonlariga yordam berish xizmatlari mavjudligi haqida ularning xabardorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Oldinda hali ko'p muammoli masalalar mavjud. Nafaqat tarmoqqa ulangan dunyoga kirish muammolarni tug'dirmaydi. Texnologiyalardagi o'zgarishlarning jadalligi bolalarning onlayn muhitda xavfsizligini ta'minlashda muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ko'pgina bolalar raqamli vositalarning murakkab manzarasini o'rganadilar. Sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitish, virtual va to'ldirilgan reallik, katta hajmli ma'lumotlar, yuzni tanish, robototexnika va buyumlar Interneti sohalaridagi yutuqlar muhitda ishlash usullarini yanada o'zgartirishga sabab bo'lmoqda.

¹¹ Since 2016, ITU undertakes consultations within COP with children and adult stakeholders on relevant issues such as cyberbullying, digital literacy and children's activities online.

Barcha manfaatdor tomonlar o'z harakatlarini rejalashtirishlari, bunday o'zgarishlarning bolalar uchun oqibatlarini haqida o'ylashlari va raqamli kelajakda nafaqat omon qolish, balki rivojlanish uchun zarur raqamli savodxonlikni shakllantirishda ularga yordam berish yo'llarini topishlari muhim. Raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga va ota-onalar hamda o'qituvchilarning savodxonligiga ko'shimcha sarmoya kiritish talab qilinadi, chunki ota-onalar va o'qituvchilar bolalarga turli sifatidagi ma'lumotlarning tez oqimini tanqidiy fikrlashni o'rgatish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi hamda bolalarga zamonaviy raqamli fuqarolarga aylanish imkonini beradi.¹²

XTI tomonidan o'tkazilgan konsultatsiyalar shuni ko'rsatdiki, ba'zi mamlakatlar bolalarning raqamli savodxonligini shakllantirish va onlayn muhitdagi xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli resurslarni ajratishga harakat qilmoqda. Shu bilan birga bolalarning xabar berishicha, ota-onalar, o'qituvchilar, texnologik kompaniyalar va davlat organlari ularning onlayn muhitdagi xavfsizligini qo'llab-quvvatlash uchun yechimlarni ishlab chiqishda muhim ishtirokchi ekan. XElga a'zo-mamlakatlar orasida o'tkazilgan tekshiruv shuni ko'rsatadiki, bilimlar bilan faol almashish g'oyasini keng qo'llab-quvvatlash mavjud va onlayn muhitda soni tobora o'sib borayotgan bolalar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha muvofiqashtirilgan harakatlar amalga oshirilmoqda.

Bolalarning onlayn muhitdagi faoliyati bilan bog'liq imkoniyatlar va xavflar o'rtasidagi muvozanatni aniqlash muammo bo'lib qolmoqda. XTIga a'zo-mamlakatlar ham bolalar uchun onlayn muhitdagi imkoniyatlardan foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar birinchi navbatdagi ustuvor vazifalar bo'lib qolishi zarurligiga e'tiborni qaratdilar, ular bolalar raqamli dunyoda ishtirok etishi va bu ishtirok natijalaridan foydalanishi mumkin bo'lgan xavfsiz sharoitlarga bo'lgan huquqlar bilan yaxshi muvozanatlangan bo'lishi kerak.¹³

¹² Council of Europe (2016), *Digital Citizenship Education*, <https://www.coe.int/en/web/digital-citizenship-education/home>.

¹³ ITU News (2018), *Celebrating 10 Years of Child Online Protection*, <https://news.itu.int/celebrating-10-years-child-online-protection/>.

2 Onlayn muhitda bolani himoya qilish o'zi nima ?

Onlayn texnologiyalar bolalar va yoshlar uchun muloqot qilish, yangi ko'nikmalarni egallash, ijod qilish va yanada yaxshiroq jamiyat qurishda ishtirok etish uchun ko'plab imkoniyatlar beradi. Shu bilan birga ular maxfiylik masalalarini ular oldiga qo'ygan holda o'zi bilan yangi xavf-xatarlar, masalan, noqonuniy kontent, xiralik qilish, kiberbulling, shaxsga doir ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish, gruming va hatto bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonliklarni olib kelishi mumkin.

Ushbu rahbariy ko'rsatmalar bolalar va yoshlar raqamli savodxonlikka ega bo'lish jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan barcha tahdid va xatarlarga javob berishning yaxlit yondashuvini belgilaydi. Ularda barcha manfaatdor tomonlar kiberxavfsizlik strategiyasini amalga oshirish, bolalar farovonligi va himoyasini ta'minlash, shu bilan birga internet taqdim etayotgan imkoniyatlardan foydalanishda muhim rol o'ynashi tan olinadi.

Bolalarni himoya qilish – bu umumiy mas'uliyatdir va barcha manfaatdor tomonlar hamma uchun barqaror kelajakni ta'minlashlari kerak. Buning uchun ko'rsatma beruvchi organlar, xususiy sektor vakillari, ota-onalar, vasiylar, o'qituvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar bolalarning onlayn va real hayotda o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatini ta'minlashlari kerak.

Ota-onalar, vasiylar va o'qituvchilar ham bolalar va yoshlarning Internet saytlaridan xavfsiz va mas'uliyatli foydalanishini ta'minlashga mas'uldirlar.

So'nggi yillarda mobil Internetdan foydalanish ko'lami sezilarli darajada o'sdi va bolalar hamda yoshlarni onlayn muhitda himoya qilish uchun yagona to'g'ri yechim mavjud emas. Bu global muammo bo'lib, jamiyatning barcha qatlamlari, jumladan, bolalar va yoshlar ishtirok etadigan global yechimni talab qiladi.

AKTning jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga javoban XTI 2008-yilning noyabr oyida ko'p manfaatli xalqaro tashabbus bilan ushbu o'sib borayotgan muammolarni hal qilish uchun bolalarni onlayn muhitda himoya qilish (COP)¹⁴ tashabbusi – ko'p tomonlama xalqaro tashabbusi bilan chiqdi. Bu tashabbus butun dunyodagi bolalar va yoshlarning onlayn muloqot qilishlari uchun maqbul xavfsiz shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadida global hamjamiyatning barcha sektorlaridagi hamkorlarni birlashtirishni davom etmoqda. Unda barcha manfaatdor tomonlar, shu jumladan dunyoning barcha burchaklarida bolalar va yoshlarning o'zlari va boshqalarning onlayn xavfsizligini saqlash bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Ushbu ko'rsatmalar milliy yoki mahalliy an'analar va qonunlarni hisobga olgan holda moslashtirilishi va foydalanilishi mumkin bo'lgan dastur sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu hisobot COP tashabbusi doirasida ko'plab manfaatdor tomonlarning vakillari - ekspertlarning ishchi guruhi tomonidan tayyorlangan va ota-onalar, vasiylar hamda o'qituvchilar uchun bolani onlayn muhitda himoya qilish maqsadida axborot, maslahatlar va xavfsizlik bo'yicha takliflar berishga qaratilgan.

XTI ekspertlarining ishchi guruhi 2009-yilda ishlab chiqilgan va 2016-yilda yangilangan birinchi XTI COP Rahbariy ko'rsatmalariga asoslanib, ushbu hisobotdagi ko'rsatmalarning hammualliflaridan biri hisoblanadi. XEIGA a'zo-mamlakatlarning iltimosiga ko'ra, XTI 2019-yilda rahbariy ko'rsatmalarining yangi tahririni qayta ko'rib chiqish jarayonini boshladi.

Ushbu yangi rahbariy ko'rsatmalar onlayn muhitda yetkazilishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar va zararni tahlil qilib, nogiron bolalar bilan bog'liq alohida holatni, shuningdek, mobil Internet, ilovalar, buyumlar Interneti, Internetga ulangan o'yinchoqlar, onlayn o'yinlar, robototexnika, mashinaviy o'qitish va sun'iy intellekt kabi yangi texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni hisobga oladi.

¹⁴ ITU (2020), *Child Online Protection*, <https://www.itu.int/en/cop/Pages/default.aspx>.

3 Bolalar va yoshlar Internetga ulangan dunyoda¹⁵

Mavjud baholashlarga ko'ra, global miqyosda har uch boladan biri internet foydalanuvchisi, Internetdan har uchinchi foydalanuvchi esa - 18 yoshgacha¹⁶ bo'lgan shaxslar hisoblanadi. 2017-yilda dunyo aholisining yarmi Internetdan foydalangan; 15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan guruh orasida bu nisbat taxminan 1,6 baravarga ko'tarildi.

"Biz internet bilan ulg'ayyapmiz. Men aytmoqchimanki, Internet har doim biz bilan bo'lgan. Kattalar "Mana, Internet paydo bo'ldi" degan gapni aytishadi, bu biz uchun esa mutlaqo normal holat", - serbiyalik 15 yoshli bola.

Bolalar va yoshlar orasida mobil telefon Internetga kirishning eng ommaviy vositasi hisoblanadi. Bu so'nggi o'n yillikda sodir bo'lgan eng muhim o'zgarishlardan birini ifodalaydi. Yevropa va Shimoliy Amerikada Internet foydalanuvchilarining birinchi avlodi ish stolidagi kompyuter yordamida tizimga kirishgan, biroq rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida internet foydalanuvchilari birinchi navbatda mobil qurilmalar hisoblanadi.

Bolalar va yoshlar mobil telefonlardan foydalanishni afzal ko'rishadi, chunki ular ularni hamma joyda olib yurishlari mumkin; ular o'z qurilmalarini boshqa oila a'zolari bilan baham ko'rishlari shart emas; telefon bir vaqtning o'zida bir nechta funksiyalarni bajarish imkonini beradi, masalan, matnli xabarlar yuborish, suhbatlashish, menyuni tanlash, rasmlar bilan almashish va resurslarga kirish; va u har doim Internetga ulangan.

"Telefon bilan qandaydir osonroq. Biz uni hamma joyda o'zimiz bilan olib yurishimiz mumkin, u kichik va ishlash uchun oson. Ya'ni men klaviaturada emas, balki barmoqlarim bilan ishlashni yaxshi ko'raman", - serbiyalik 12 yoshli qizaloq.

So'rovlar shuni ko'rsatdiki, internetga ulangan bolalar va yoshlar orasida qizlar va o'g'il bolalar Internetga kirish uchun mobil telefonlardan teng darajada foydalanadi. Taqqoslash uchun, shaxsiy kompyuterlardan ko'proq o'g'il bolalar foydalanadi.

Amalda bolalar va yoshlarning ko'p qismi Internetga bir nechta qurilmalar orqali kirishadi, bunda o'rganilgan har bir mamlakatda o'g'il bolalar qizlarga qaraganda ko'proq qurilmalardan foydalanadi.

Bolalar va yoshlar hafta davomida kuniga o'rtacha ikki soatni onlayn muhitda o'tkazadilar va har dam olish kunlari esa ikki baravar ko'p vaqtni onlayn muhitda sarflashadi. Ularning ba'zilari o'zlarini doimo ulangan his qilishadi. Shu bilan birga ko'pchilik hali ham uyda Internetga kirish imkoniga ega emas yoki faqat cheklangan kirish imkoniyatiga ega. Ayni damda statistik ma'lumotlar juda farqlanadi va bolalarning Internetda qancha vaqt o'tkazishi haqida turli xil qarashlar mavjud. DQ Institute tomonidan olib borilgan so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Avstraliyada bolalar va yoshlar haftasiga 38 soatgacha vaqtni tarmoqda o'tkazishlari mumkin¹⁷.

¹⁵ This chapter is mainly drawn from the following source: UNICEF (2019). *Growing up in a connected world*. UNICEF Office of Research - Innocenti, Florence, <https://www.unicef-irc.org/publications/pdf/GKO%20Summary%20Report.pdf>. The comprehensive research, as part of the comparable high-quality evidence work of the Global Kids Online, collects voices from children in 11 countries, across 4 regions, from 2016 to 2018 (14,733 children aged 9-17 years). The report focuses at the positive effects of ICTs for children and asks at the same time when the use of ICTs becomes problematic in children's lives. All figures of chapter 4 here below are taken from this report. Qualitative and quantitative methodology on which these findings are based can be found at Livingstone, S., Kardefelt Winther, D., and Saeed, M. (2019). *Global Kids Online Comparative Report, Innocenti Research Report*. UNICEF Office of Research - Innocenti, Florence. Online under: <https://www.unicef-irc.org/publications/1059-global-kids-online-comparative-report.html> Further information on the Global Kids Online international research project can be found online under: <http://globalkidsonline.net>.

¹⁶ Livingstone, S., Carr, J., and Byrne, J. (2015) *One in three: The task for global internet governance in addressing children's rights*. Global Commission on Internet Governance: Paper Series. London: CIGI and Chatham House, <https://www.cigionline.org/publications/one-three-internet-governance-and-childrens-rights>

¹⁷ DQ Institute (2020), Child Safety Index, <https://www.dqinstitute.org/child-online-safety-index/>

“Uyimda kompyuterim yo‘q bo‘lganligi sababli men kafega boraman... Bizning maktabda Internetga kirish imkoniyati yo‘q”, - Janubiy Afrikalik 15-17 yoshli bola.

“[Men Internetga kun bo‘yi ulanganman], lekin men uni kun bo‘yi ishlataman deb ayta olmayman”, - argentinalik 13-14 yoshli bola.

Global Kids Online (GKO)ning internetga kirish imkoniga ega bo‘lgan qizlar va o‘g‘il bolalarning umumiy soni teng ekanligi haqidagi xulosalariga qaramay, ba‘zi mamlakatlarda o‘g‘il bolalar internetdan foydalanishda qizlarga qaraganda ko‘proq erkinlikka ega va qizlar ko‘proq nazorat qilinadi va ularning Internetdan foydalanish faoliyati cheklangan.

Ko‘ngilochar dunyo

Bolalar va yoshlar ko‘pincha turli xil ijobiy taassurotlar olish va ko‘ngilocharliklar uchun onlayn muhitga kiradilar. Kuzatuv o‘tkazilgan 11 mamlakatda qizlar va o‘g‘il bolalar uchun faoliyatning eng ommaviy turi bo‘lib videokliplarni tomosha qilishdir. Internetdan foydalanuvchi bolalar va yoshlarning to‘rt dan uch qismidan ko‘prog‘i yolg‘iz yoki oila a‘zolari bilan kamida haftada bir marta onlayn video tomosha qilishlarini aytishadi.


“Onam noutbuk sotib olgach, biz birga ko‘proq vaqt o‘tkaza boshladik; har dam olish kuni biz biron-bir filmni tanlardik va buvim bilan birga tomosha qilardik”, - urugvaylik 15 yoshli qiz.

Bolalar va yoshlar ham onlayn o‘yin o‘ynashdan yaxshi ko‘radilar va shu bilan o‘zlarining o‘yin o‘ynash va ba‘zan – o‘zining qandaydir yangilikni bilish huquqidan foydalanadilar. Barcha kuzatilgan mamlakatlarda o‘g‘il bolalar onlayn o‘yinlarni ko‘proq o‘ynaydi. Biroq Internetdan foydalanadigan ko‘plab qizlar ham onlayn o‘yinlar o‘ynaydi: Bolgariyada (60%) va Chernogoriyada (80%). Videolarni tomosha qilishda bo‘lgani kabi, Internetdan foydalana olish qulay bo‘lgan bolalar va yoshlar onlayn o‘yinlarni ko‘proq o‘ynaydilar.


“Men onlayn o‘yinlar o‘ynayman va ulardan pul ishlayman”, - filippinlik 17 yoshli bola.

Kattalar bolalar va yoshlarning ekran oldida juda ko‘p vaqt o‘tkazayotganidan yoki o‘z vaqtlarini onlayn ko‘ngilochar o‘yinlarda behuda vaqt o‘tkazayotganidan xavotirdalar. Global Kids Online ma‘lumotlariga ko‘ra, faoliyatning bunday keng tarqalgan turlari bolalar va yoshlar uchun boshlang‘ich darajadagi foydali imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin, bu esa ularga ko‘proq ta‘lim, axborot tajribasi va ijtimoiy hayot tajribasiga ega bo‘lish uchun kerak bo‘ladigan tegishli qiziqish va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

1-rasm: Jinsi va yoshi ajratilgan haftada kamida bir marta onlayn o'yin o'ynaydigan bolalar (% da)¹⁸



Savol C4z-aa: O'tgan oyda siz yolg'iz yoki boshqa odamlar bilan qanchalik tez-tez onlayn o'yin o'ynagansiz ?
Asos : Internetdan foydalanadigan barcha bolalar



Savol C4z-aa: O'tgan oyda siz yolg'iz yoki boshqa odamlar bilan qanchalik tez-tez onlayn o'yin o'ynagansiz ?
Asos : Internetdan foydalanadigan barcha bolalar

1-rasmda bolalarning Internetdan foydalanish so'roviga javoblarni aks ettiruvchi ikkita chiziqli diagramma ko'rsatilgan: O'tgan oy davomida boshqa odamlar bilan yolg'iz onlayn o'yinlarni qanchalik tez-tez o'ynagansiz? Birinchi diagrammada qizlar va o'g'il bolalar o'rtasida foydalanish taqsimoti tasvirlangan, o'g'il bolalar esa har bir holatda undan ko'proq foydalanishlarini ko'rish mumkin. Boshqa diagrammada yosh guruhlar bo'yicha bo'linish ko'rsatilgan. Bu unchalik aniq ma'lumot emas, sanab o'tilgan o'n ta mamlakatdan yettitasi 9-11 yoshli bolalar guruhi boshqa ikki guruhga (12-14 va 15-17 yoshli bolalar) qaraganda ko'proq yoki tez-tez o'ynashini ko'rish mumkin.

Manba: UNICEF

¹⁸ UNICEF (2019). *Growing up in a connected world*. UNICEF Office of Research - Innocenti, Florence, <https://www.unicef-irc.org/publications/pdf/GKO%20Summary%20Report.pdf>


Yangi aloqalarni o'rnatish

Internet o'zining tezkor xabar almashish vositalari va ijtimoiy tarmoqlari bilan bolalar va yoshlar o'z do'stlari va oila a'zolari hamda o'z manfaatlarini baham ko'radigan boshqa bolalar va yoshlar bilan bog'lanish orqali so'z erkinligi huquqidan foydalanishlari mumkin bo'lgan muhim uchrashuv joyiga aylandi. Kuzatilgan 11 ta mamlakatdagi ko'plab bolalar va yoshlarni ijtimoiy muhitning faol ishtirokchilari deb hisoblash mumkin, chunki ular har hafta turli xil xabar almashish vositalaridan foydalangan holda do'stlar va oila a'zolari hamda o'z manfaatlarini baham ko'radigan odamlar bilan muloqot qilib ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatning bir qator onlayn turlarida faol ishtirok etadilar. Ba'zi bolalar, shuningdek, onlayn muhitda o'zlarini ifoda etish osonroq ekanligini aytadilar.


“Onlayn muhitda men o'zimning haqiqiy “men”ligimni ko'rsata olaman, bu yerda hech qanday qoidalar yo'q... Mening onlayn muhitda 5000 dan ortiq do'stlarim bor”, - o'zini gey deb hisoblaydigan filippinlik 15 yoshli bola.

Onlayn ijtimoiy o'zaro aloqa ham turli sabablarga ko'ra uning ishtirokchilari yoshining o'sib borishi bilan ortib boradi. Misol uchun, ba'zi ijtimoiy tarmoqlarning veb-saytlari bolalar va yoshlar uchun minimal yosh chegarasini belgilaydi, chunki odatda yoshi ko'payishi bilan ko'proq erkinlik beriladi.

2-rasm: Jins va yoshi bo'yicha ajratgan holda haftada kamida bir marta ijtimoiy faoliyatning kamida uchta turi bilan shug'ullanadigan bolalar (% da)¹⁹



Savol C4: O'tgan oyda ushbu ijtimoiy faoliyatni qanchalik tez-tez onlayn tarzda bajardingiz?
Asos : Internetdan foydalanadigan barcha bolalar



Savol C4: O'tgan oyda ushbu ijtimoiy faoliyatni qanchalik tez-tez onlayn tarzda bajardingiz?
Asos : Internetdan foydalanadigan barcha bolalar

2-rasmda so'nggi oyda bolalarning onlayn ijtimoiy faoliyat uchun Internetdan foydalanish so'roviga javoblarini aks ettiruvchi ikkita chiziqli diagramma ko'rsatilgan: Birinchi diagrammada qizlar va o'g'il bolalar o'rtasidagi foydalanish taqsimoti ko'rsatilgan, o'g'il bolalar va qizlar uchun har bir misolda bir xil foydalanish ko'rsatgichini ko'rish mumkin. Boshqa diagrammada yosh guruhlar bo'yicha bo'linish ko'rsatilgan. Bu shuni ko'rsatdiki, so'rov o'tkazilgan barcha mamlakatlarda 9-11 yoshli bolalar guruhi boshqa ikki guruhga (12-14 va 15-17 yoshlilar) va har bir mamlakatga qaraganda onlayn ijtimoiy faoliyat uchun Internetdan kamroq foydalangan. 15-17 yoshlilar guruhi Internetdan eng ko'p foydalangan.

Izoh: Bolalar va yoshlardan o'tgan oyda ijtimoiy faoliyatning quyidagi turlari bilan qanchalik tez-tez onlayn tarzda shug'ullanganliklari so'ralgan: jamiyatning o'zlarinikidan farqli bo'lgan joy yoki qatlamlaridan bo'lgan odamlar bilan suhbatlashish uchun Internetdan foydalangan; ijtimoiy tarmoqlarning veb-saytiga kirgan; boshqa joylarda yashaydigan oila a'zolari yoki do'stlar bilan suhbatlashgan; xabarlar bilan tezkor almashishdan foydalanishgan; odamlar o'z qiziqishlari yoki sevimli mashg'ulotlari bilan o'rtoqlashadigan veb-saytlarga kirishgan.

Manba: UNICEF

¹⁹ UNICEF (2019). *Growing up in a connected world*. UNICEF Office of Research - Innocenti, Florence, <https://www.unicef-irc.org/publications/pdf/GKO%20Summary%20Report.pdf>,

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Internet ijtimoiy aloqalarni o'rnatish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi, garchi ota-onalar ko'pincha bolalar va yoshlarning onlayn aloqalari haqiqiy dunyodagi shaxsiy aloqalarga zarar keltirgan holda amalga oshirilishi to'g'risida shikoyat qilsalar ham.

“Kechada ular bitta stol atrofida o'tiradilar, bunda shu o'nta bolaning qo'lida kichik qurilmalar”, - chililik 15-17 yoshli o'smirlarning ota-onasi.

Bu xatti-harakat faqat bolalar va yoshlarga xos emas. Ba'zi ota-onalar ijtimoiy tadbirlar paytida qo'ng'iroq qiladilar yoki Internetga kiradilar, bu ko'plab bolalar va yoshlarni bezovta qiladi.

“Stolda, biz ovqatlanayotganimizda, dadam telefonidan foydalanadi. Bu hammamiz birga yig'iladigan yagona vaqt va bu meni juda asabimga tegadi”, – urugvaylik 14 yoshli qiz.

Internetga kirish imkoniyatlari kengayishi bilan bolalar va yoshlar o'z dunyoqarashini kengaytirishi, axborot to'plashi va o'zaro aloqalarini kengaytirishi mumkin. Onlayn hamda shaxsiy ijtimoiy o'zaro aloqa sharoitlarida ular o'z tajriba va ko'nikmalariga ega bo'ladilar. GKO tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, Internetda ijtimoiy tarmoqlarida faol muloqot qiladigan bolalar va yoshlar onlayn muhitda maxfiylik boshqaruvini yaxshiroq uddalaydilar, bu esa ularga o'z xavfsizligini saqlashga yordam beradi.

Yaratuvchanlik quvonchi

Bolalar va yoshlar topadigan va qadrlaydigan onlayn kontentbir qismi boshqa bolalar va yoshlar tomonidan ishlab chiqarilgan. Odatda, Global Kids Online tomonidan kuzatuv o'tkazilgan 11 ta mamlakatda bolalar va yoshlarning 10-20 foizi har hafta o'z video yoki musiqasini yaratadi va yuklaydi yoki blogga yozib qo'yadilar yoki qandaydir hodisalarni bayon qiladilar yoki veb-sahifalar yaratadilar.


“Men blog yuritaman va uni muntazam ravishda yangilayman”, - filippinlik 15-17 yoshli qiz.

“Siz Internetda video va o'yinlar bilan almashishingiz mumkin. Musiqali asarlar bilan ham almashishingiz mumkin. Tasvirlar, g'oyalar, o'yinlar almashishingiz mumkin.” - ganalik 9-11 yoshli qiz.

“Men o'z qo'lim bilan otkritkalar tayyorlayman va ularni tarmoqqa joylashtiraman. Bu otkritkalar do'stlarimga yoqadi”, - filippinlik 15-17 yoshli qiz.

“Ha, men [kompyuterlarni buzib kirish]ni bilaman, lekin endi bu bilan shug'ullanmayman”, - filippinlik 15-17 yoshli bola.

3-rasm: Jinsi va yoshi bo'yicha ajratgan holda har hafta onlayn muhitda faoliyatning hech bo'lmasa bitta turi bilan shug'ullanadigan bolalar (% da)²⁰



Savol C4m-n: O'tgan oyda siz qanchalik tez-tez onlayn ijodiy faoliyat bilan shug'ullangansiz? Izoh :Urugvayda bolalardan onlayn blog yaratish haqida so'ralmagan. Asos : Internetdan foydalanadigan barcha bolalar

Savol C4m-n: O'tgan oyda siz qanchalik tez-tez onlayn ijodiy faoliyat bilan shug'ullangansiz? Izoh :Urugvayda bolalardan onlayn blog yaratish haqida so'ralmagan. Asos : Internetdan foydalanadigan barcha bolalar

3-rasmda so'nggi oyda bolalarning onlayn ijodiy faoliyati uchun Internetdan foydalanish so'roviga javoblarni aks ettiruvchi ikkita chiziqli diagramma ko'rsatilgan: Birinchi jadvalda qizlar va o'g'il bolalar o'rtasidagi foydalanish taqsimoti tasvirlangan, o'g'il bolalar va qizlar uchun ijodiy foydalanish ko'rsatgichi bir xil. Boshqa diagrammada yosh guruhlari bo'yicha bo'linish ko'rsatilgan. Bu shuni ko'rsatdiki, so'rovda qatnashgan barcha mamlakatlarda 9-11 yoshli bolalar guruhi boshqa ikki guruhga qaraganda (12-14 va 15-17 yoshlilar) onlayn ijodiy faoliyat uchun Internetdan kamroq foydalangan va so'rovda qatnashgan barcha mamlakatlarda 17 yoshli bolalar Internetdan ko'proq ijodkorlik uchun foydalanganlar.

Izoh: Bolalar va yoshlardan o'tgan oy ichida onlayn tarzda ijodiy faoliyatni quyidagi turlari bilan qanchalik tez-tez shug'ullanganliklari so'ralgan: o'zlarining video yoki musiqalarini yaratdilar va Internetda baham ko'rdilar; o'zining blogi yoki veb-saytini yaratdilar yoki onlayn muhitda qaysidir hodisani bayon qildilar; boshqalar tomonidan yaratilgan video yoki musiqa asarini Internetga joylashtirdilar.

Manba: UNICEF

²⁰ Growing up in a connected world. UNICEF Office of Research - Innocenti, Florence, <https://www.unicef-irc.org/publications/pdf/GKO%20Summary%20Report.pdf>.

Axborot olishga tashnalik

Kattalar singari, bolalar va yoshlar ham o'zining axborot olish huquqini amalga oshirish uchun Internetdan foydalanadilar. Bolalar va yoshlarning beshdan bir qismidan beshdan ikki qismigacha bo'lgan qismini "axborot izlovchilar" deb hisoblash mumkin, chunki ular qandaydir yangi narsalarni bilish, ish yoki o'qish imkoniyatlari haqidagi axborotga ega bo'lish, yangiliklar bilan tanishish, tibbiyotga oid yangilikni o'qish yoki yaqin joyda tashkil qilinayotgan chora-tadbirlarni topish uchun har hafta onlayn muhitda axborot qidirishning bir necha shakllarini amalga oshiradilar.

Turli yoshdagi ko'plab bolalar va yoshlar uyda ishlash uchun yoki hatto qoldirilgan darslarni yetkazib olish uchun Internetdan foydalanadilar.


"Ular bizdan Ganadagi vazirlarning familiyalarini qidirishni, mamlakatlar va ularning valyutalari haqida ma'lumot topishimizni so'rashdi. Siz Internetdan boshqa davlatlar haqida yangiliklar olishingiz mumkin", - ganalik 12-14 yoshli qiz.

"Internetda biz maktab uchun kerak bo'lgan hamma narsani va kitoblardan topa olmagan ma'lumotlarni topishimiz mumkin", - serbiyalik 9 yoshli qiz.


"Matematikadan qoniqarsiz baho oldim, shuning uchun nimani o'rganishim kerakligini tushuntiruvchi bir nechta videolarni Internetda ko'rishimga to'g'ri keldi", - argentinalik 15-17 yoshli bola.

"Agar siz maktabga bormagan bo'lsangiz, do'stingiz bilan gaplashib, nimalarni o'tkazib yuborganingizni bilishingiz va yetkazib olishingiz mumkin. Shuning uchun do'stlaringizning WhatsApp ga ega bo'lish juda muhim", - janubiy afrikalik 16-17 yoshli qiz.

4-rasm: Jinsi va yoshi bo'yicha ajratgan holda haftada kamida bir marta axborotni qidirish faoliyatining kamida uch turini amalga oshiradigan bolalar (% da)²¹



Savol C4: O'tgan oyda siz qanchalik tez-tez onlayn ma'lumot qidirish bilan shug'ullangansiz?
Asos : Internetdan foydalanadigan barcha bolalar



Savol C4: O'tgan oyda siz qanchalik tez-tez onlayn ma'lumot qidirish bilan shug'ullangansiz?
Asos : Internetdan foydalanadigan barcha bolalar

4-rasmda so'nggi oyda onlayn ma'lumot qidirish faoliyati bilan shug'ullangan bolalarning Internetdan foydalanishi so'roviga javoblarni aks ettiruvchi ikkita chiziqli diagramma ko'rsatilgan: Birinchi diagrammada qizlar va o'g'il bolalar o'rtasidagi foydalanish taqsimoti tasvirlangan, o'g'il bolalar va qizlar uchun foydalanish ko'rsatgichi bir xil.

Boshqa diagrammada yosh guruhlari bo'yicha bo'linish ko'rsatilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, so'ralgan mamlakatlarning biridan tashqari barcha mamlakatlarda 9-11 yoshlilar guruhi boshqa ikki guruhga (12-14 va 15-17 yoshlilar) qaraganda so'ralgan barcha mamlakatlar uchun onlayn ijodiy faoliyat uchun Internetdan kamroq foydalangan, 15-17 yoshlilar guruhi ma'lumot olish uchun eng ko'p foydalangan.

Izoh: Bolalar va yoshlardan oxirgi oy ichida quyidagi ma'lumotlarni qanchalik tez-tez qidirganliklari so'ralgan: onlayn muhitda qidirish orqali qandaydir yangi narsalarni bildilar; ish yoki o'qish imkoniyatlari haqidagi axborot qidirildi; maktab vazifalari uchun Internetdan foydalanildi; o'zlarining hududlari haqidagi manbalar yoki voqealar qidirildi; onlayn muhitda yangiliklar qidirildi; o'zlari yoki tanishlari uchun tibbiyotga oid axborot qidirildi. Ma'lumotlar yo'qligi sababli Argentina ko'rsatilmagan.

Manba: UNICEF

Ba'zi bolalar va yoshlar axborot qidirish uchun Internetdan boshqalarga qaraganda ko'proq foydalanadilar. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Internetdan axborot qidirish keng faoliyati uchun foydalanadigan bolalar va yoshlar odatda kengroq onlayn faoliyat turlari bilan shug'ullanish

²¹ *Growing up in a connected world*. UNICEF Office of Research – Innocenti, Florence, <https://www.unicef-irc.org/publications/pdf/GKO%20Summary%20Report.pdf>.

qobiliyatiga ega va ular Internetga nisbatan ota-onalari qo'llab-quvvatlaydilar va ko'maklashadilar. Bu shuni ko'rsatadiki, bolalar va yoshlar ulg'aygan sari va ota-ona tomonidan lozim darajada qo'llab-quvvatlanganda ular ko'proq onlayn tajribaga ega bo'ladi va Internetdan o'z manfaatini uchun yanada ko'proq foydalanadilar.

Onlayn rejimda foydalanish mumkin bo'lgan bunday miqdor axborot bo'lganda bolalar va yoshlar ularga to'g'ri kontentni topish va topilgan ma'lumotlarning ishonchligini tekshirish uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak.

Bu borada qizlar va o'g'il bolalar o'rtasida ba'zi farqlar mavjud, bunda bolalar va yoshlar o'smirlik yoshiga kelib o'zlariga kerak bo'lgan narsalarni Internetda topish bo'yicha ko'proq tajribaga ega bo'lishadi. Onlayn muhitda ko'proq videokliplarni tomosha qiladigan bolalar va yoshlar ma'lumot qidirish qobiliyatiga ega bo'lib ko'rinadi, ehtimol ular onlayn kontentni tez-tez ko'rish orqali kerakli narsani qanday topishni o'rganadilar.

Bolalar va yoshlar onlayn muhitda to'playdigan axborotning sifati va miqdori ularning qiziqishlari va motivatsiyasiga bog'liq bo'ladi. Ammo ular topadigan ma'lumotlar ko'p tarqalgan ko'pchiligi uchun juda katta bo'ladigan foydalanish mumkin bo'lgan axborotning hajmiga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga ozchilik ham axborotni qidirish imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin, hatto ular soni cheklangan bo'lsa ham.

"Maktabimizda hech kim bizning tilimizda gapirmagani uchun men Youtube dan rumin tilida biror narsa qidiraman va u qanday eshutilishini tinglayman. Bu ajoyib, chunki men hamma narsani tushunaman", – roma elatiga mansub serbiyalik 12 yoshli bola.

Internetda axborot qidirishni yaxshi bilish - bu bir ish, topilgan axborotning ishonchli yoki ishonchli emasligini tekshirish yana bir ish.

"Men xorijiy axborot dasturlarini tomosha qilaman, chunki u yoki bu davlat bir xil vaziyatga qanday qarashini bilishga qiziqaman. Chunki har doim ikki tomon bo'ladi. Masalan, Amerikaning ma'lum bir masala bo'yicha o'z nuqtayi nazari bo'lishi mumkin, Rossiyaning ham o'z nuqtayi nazari bo'lishi mumkin", - serbiyalik 16 yoshli qiz.

Internetda axborot qidirishda mohir ekanligini bildirgan bolalar va yoshlar ulushi bilan solishtirganda, faqat bir nechta bolalar va yoshlar topilgan axborotni tanqidiy baholay olishlarini aytdi.

"Internetda juda ko'p soxta yangiliklar mavjud", - filippinlik 15 yoshli bola.

Umuman olganda, bolalar va yoshlar onlayn muhitda axborot qidirish va tekshirish imkoniyatlaridan hali to'liq foydalanishni bilmasligi taassuroti yuzaga keladi. Buning uchun (ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarga) raqamli dunyoda o'z huquqlarini himoya qilishlari uchun ota-onalari, maktablari yoki raqamli provayderlarning faol yordami kerak bo'ladi.

Faol fuqarolik sari

Axborotni izlash va kontent yaratishdan tashqari bolalar va yoshlar Internet yordamida fuqarolik yoki siyosiy faoliyatda ishtirok etishlari mumkin. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga ko'ra, bola fuqarolik huquqlariga, jumladan, uni tinglashlarini talab qilish, o'z fikrini erkin ifodalash va boshqa odamlar bilan uchrashish huquqiga ega. Ammo Global Kids Online tadqiqotidan ma'lum bo'lishicha, nisbatan kam sonli bolalar va yoshlar onlayn muhitda fuqarolik faoliyatida ishtirok etish imkoniyatlaridan foydalanmoqda.

Yoshlar ko'proq siyosiy faoliyat bilan onlayn muhitda qatnashadilar.

"Siyosat... balki u bunda aniq ishtirok etishga intilmayotgandir. Ammo, masalan, mening qizim bu haqda Facebook da o'qiydi", - argentinalik 13-14 yoshli bolaning ota-onasi.

"Ammo ular ham o'z fikrlarini Twitter da bildiradilar... va shu tariqa siyosiy jarayonda qatnashadilar", - argentinalik 15-17 yoshli bolaning otasi.

Xavf – xatarga va zarar yetkazilishiga duch kelish

Bolalar va yoshlar onlayn muhitda yangi xavf-xatarlarga duch kelishadi, bu esa ularga zarar yetkazishi mumkin. Ular tasodifan o'ziga qanday zarar yetkazish yoki o'z joniga qasd qilish haqidagi axborotga duch kelishlari mumkin. Ular, shuningdek, haqoratimiz so'zlar yoki zo'ravonlik yoki jinsiy xarakterdagi materiallarga duch kelishlari mumkin. Global Kids Online tomonidan mamlakatlar bo'ylab o'tkazilgan tadqiqotlar xulosalari shuni ko'rsatdiki, onlayn faoliyatning ko'p turlari bilan shug'ullanadigan bolalar va yoshlar ko'proq onlayn xavf-xatarlarga duch kelishgan va, bu ehtimol zaiflikning yuqori darajasi yoki Internetdan yanada ishonchli foydalanish qobiliyati oqibatida sodir bo'lgan bo'lishi mumkin.

Xavf-xatar har doim ham zarar yetkazmasligini yodda tutish kerak. Onlayn muhitdagi xavf-xatarlarga duch keladigan bolalar va yoshlar, agar ular zarur bilimga va olingan tajribani boshqarish qobiliyatiga ega bo'lsa, zarar ko'rmaydi. Shu sababli, bolalar va yoshlarni onlayn muhitda ishonchli himoya qilish uchun ularning imkoniyatlarini asossiz ravishda cheklamasdan onlayn muhitda kim ko'proq zarar ko'rishi va xavf-xatarlar aynan qanday zarar yetkazilishini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, Global Kids Online tomonidan kuzatuvda ishtirok etgan bolalar va yoshlarning taxminan 20 foizi o'tgan yili davomida o'ziga-o'zi zarar yetkazish yoki jarohat yetkazish mavzusiga bag'ishlangan veb-saytlar yoki onlayn-muhokamalarni ko'rganliklarini, bolalar va yoshlarning taxminan 15 foizi o'z joniga qasd qilish bilan bog'liq kontentni ko'rganliklari bildirdilar. Tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra bolalar va yoshlar tajovuzkor so'zlarga duch kelganliklari ma'lum bo'ldi.

Chilida 15-17 yoshdagi o'smirlarning deyarli yarmi o'tgan yil davomida onlayn muhitda ularni xavotirga solgan yoki xafa qilgan hodisalar sodir bo'lganini aytishdi. Nima bo'lganini batafsil aytib berishni so'rashganida, ular Internetdagi firibgarliklar, porno-saytlarning "chiqib keladigan" reklamasi, haqoratli harakatlar, noma'qul yoki qo'rqinchli yangilik xabarlar yoki tasvirlar, kamsitish va ta'qiblar kabi keng ko'lamli muammolarni tilga oldilar. Bolgariyada bolalar va yoshlar tez vazn yo'qotishni reklama qiladigan saytlardan zarar ko'rmoqda; reklamani so'rovda qatnashganlarning to'rtidan biri ko'rgan.

"Internetda boshqa odamlar haqida jirkanch izohlar mavjud", - janubiy afrikalik 13-14 yoshli qiz.

Ushbu masala bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan bolalar va yoshlarning chorak qismidan tortib va uchdan bir qismi onlayn muhitda zo'ravonlik yoki turli axborot vositalarida shahvoniy xususiyatga ega kontentlarga duch kelishgan. Ba'zida bolalar va yoshlar tasodifan shahvoniy xususiyatga ega kontentlarni topib olishadi; ba'zan ular do'stlari tavsiya etiladi yoki boshqa odamlar, shu jumladan begonalar tomonidan yuboriladi. Ba'zi bolalar va yoshlar boshqalardan shahvoniy xususiyatga ega tasvirlarni yuborishni so'rashadi.

"Bir yigit menga pornografik tasvirlarni yuborganida juda xafa bo'lganman", - ganalik 12-14 yoshli qiz.

"Bir kuni notanish kishi mendan narxim qancha ekanligini so'radi: ya'ni u men bilan jinsiy aloqa qilish qanchaga tushishi bilan qiziqdi", - filippinlik 16 yoshli bola.


Bir qator mamlakatlarda ko'plab bolalar va yoshlar turli xildagi onlayn xavf-xatarlarga duch kelishgan, ammo ularning juda kamchiligi natijada zarar ko'rganliklarini aytishgan. Mamlakatlar bo'yicha xulosalar farq qiladi, bunda yoshlar yosh bolalarga qaraganda ko'proq zarar ko'rishadi, chunki ular Internetda ko'proq vaqtni o'tkazadilar va onlayn muhitda faoliyatning nisbatan kengroq turlarida qatnashadilar.

"Instagram da men juda kulgili bo'lgan bitta izohni bosdim. Boshqalar nima yozayotganini o'qishga qiziqdim, havolani bosdim va birdan yalang'och ayollar rasmi paydo bo'ldi", - serbiyalik 10 yoshli bola.

"Men otlarni yaxshi ko'raman, buni hamma biladi. Bir kuni men fonga qo'yish uchun bir nechta fotosuratlarini qidirganimda, bir odam otni kesib tashlayotgan dahshatli tasvirga duch keldim" - serbiyalik 10 yoshli qiz.

“Men o‘lgan bolaning tasvirini ko‘rganimda juda qo‘rqib ketdim - u otib tashlangan edi”, - ganalik 12-14 yoshli bola.

5-rasm: Jinsi va yosh bo‘yicha ajratgan holda onlayn muhitda zarar ko‘rgan bolalar (% da)²²



Savol F1: O‘tgan yili sizni onlaynda biron bir tarzda bezovta qiladigan yoki xafa qiladigan (masalan, sizni noqulay his qilishga majbur qilgan, qo‘rqitgan yoki ko‘rishingiz kerak bo‘lmagan narsani ko‘rish kabi) biror narsa sodir bo‘lganmi?

Asos : Internetdan foydalanadigan barcha bolalar

Savol F1: O‘tgan yili sizni onlaynda biron bir tarzda bezovta qiladigan yoki xafa qiladigan (masalan, sizni noqulay his qilishga majbur qilgan, qo‘rqitgan yoki ko‘rishingiz kerak bo‘lmagan narsani ko‘rish kabi) biror narsa sodir bo‘lganmi?

Asos : Internetdan foydalanadigan barcha bolalar

5-rasmda bolalarning Internetdan foydalanishi bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomaga berilgan javoblar, ularni bezovta qilgan yoki xafa qilgan – yoki bo‘lmasa o‘zlarini noqulay his qilgan, qo‘rqib ketgan yoki buni ko‘rmaslik kerak bo‘lgan narsalarni ko‘rgan bolalarning ikkita chiziqli diagramma ko‘rsatilgan. Birinchi diagrammada qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi foydalanish taqsimoti ko‘rsatilgan, o‘g‘il va qiz bolalar uchun bir xil foiz. Boshqa diagrammada yosh guruhlarini bo‘yicha bo‘linish ko‘rsatilgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, so‘ralgan mamlakatlarning biridan tashqari barcha mamlakatlarda 9-11 yoshli bolalar guruhi boshqa ikki yosh guruhiga (12-14 va 15-17 yoshlilar) nisbatan kamroq xabar berishadi. So‘rovda qatnashgan mamlakatlarda, 15-17 yoshli o‘smirlar guruhi eng ko‘p yuqorida keltirilgan holatlarga duch kelgan.

Manba: UNICEF

²² Global Kids Online (2019). Global Kids Online: Comparative Report, UNICEF Office of Research – Innocenti.

Bolalar va yoshlarga onlayn muhitda hamda real hayotda ma'naviy og'riq yetkazuvchi munosabatga duch kelishlari mumkin. Internet-platformalarda zarar haqoratli yoki og'riqli xabarlar, guruh faoliyatidan chetlatish yoki tahdidlar orqali yetkazilishi mumkin. Ushbu holatlar ko'pincha "kiberta'qib" deb ataladi. Ammo bolalar va yoshlarga internetdan tashqaridagi kundalik hayotda ham xuddi shunday zarar yetkazilishi mumkin. Boshqalar tomonidan ta'qibga uchraydigan bolalar va yoshlarning taxminan teng miqdori shaxsan va onlayn tarzda buni boshdan kechiradi.

"Hamma bir bolani mazax qilib, masxara qila boshladi. Natijada u guruhni tark etdi", - argentinalik 13-14 yoshli bola.

"Men kiberta'qibdan xavotirdaman, chunki bu menga jiddiy ruhiy zarar yetkazishi mumkin", - urugvaylik 14 yoshli qiz.

Bolalar va yoshlar onlayn muhitdagi sv'naviy og'riq yetkazuvchi noxush hodisalarga qanday munosabatda bo'lishadi? Avval ular do'stlar, aka-uka va opa-singillarga murojaat qilishadi. So'ngra ba'zilar ota-onasiga nima bo'lganini aytib berishadi. Tadqiqotlar olib borilgan mamlakatlarda juda kam sonli bolalar va yoshlar yordam so'rab o'qituvchilarga murojaat qilgan bo'lardi. Garchi yoshlar bolalarga qaraganda ko'proq xavf-xatarlarga duchor bo'lishsa-da, ularga yetkazilgan zarar uncha jiddiy emas: bu ularning tajriba orttirganlari sayin muhit ta'siriga nisbatan barqarorlik ham ishlab chiqiladi.

Aytish joizki, bolalar va yoshlar o'z ongida har doim ham onlayn makon va real dunyoni ajratmaydilar. Bolalar va yoshlar ongida onlayn muhitda olingan ijobiy va salbiy tajriba ularning hayotining boshqa jihatlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Shaxsiy hayotning daxlsizligi ustuvor ahamiyati

MaxfiylikShaxsiy hayotning daxlsizligi - bu Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq bolaning huquqidir. U mustaqillik va o'z taqdirini o'zi belgilash uchun muhim ahamiyatga ega va bolaning axborot olish, o'z fikr erkin ifodalash va ishtirok etish huquqi bilan chambarchas bog'liqdir. Maxfiylikka rioya qilish sharti bilan bolalar va yoshlar o'zlarini ekspluatatsiyadan himoya qila oladilar. Ular o'zlarining raqamli aynan o'xshashligini boshqarishga juda ehtiyotkorlik bilan yondashishlari va shaxsiga doir ma'lumotlarni imkoni boricha ishonchli himoya qilishlari kerak.

Ko'pgina bolalar va yoshlar onlayn muhitda o'zlarining shaxslararo munosabatlarini boshqarishda maxfiylikni ta'minlashning ishonchli ko'nikmalari mavjudligi haqida xabar berishadi, masalan, ular onlayn muhitda qaysi axborotni oshkor qilmaslik kerakligi to'g'risida biladilar, shuningdek ijtimoiy tarmoqlardagi o'z hisobga olish yozuvlaridagi maxfiylik sozlamalarini qanday o'zgartirishni yoki ro'yxatdagi kontaktlarni yo'q qilishni biladilar. Bu bolalar va yoshlar o'rtasida maxfiylikni saqlash prinsiplarini targ'ib qilish bo'yicha dastlabki harakatlar juda muvaffaqiyatli bo'lgan. Ko'pgina bolalar va yoshlar o'zlarini onlayn muhitda o'z himoya qilish strategiyalarini ishlab chiqdilar va Internetdan foydalanishda muayyan xavflarni hisobga olishlari kerakligini bilishadi.

"Mening haqiqiy do'stlarim uchun Facebook da bitta akkauntim bor, ikkinchisi esa faqat Internetda muloqot qiladigan do'stlarim uchun", - filippinlik 14 yoshli qiz.

"Internetga kirganimda, onlayn muhitdagi harakatlarim uchun o'zim javobgarman", - urugvaylik 17 yoshli qiz.

Yanada jiddiy muammo shundan iboratki, bolalar va yoshlar onlayn muhitda shaxsiy xarakterdagi ma'lumotlar, fotosuratlar va xabarlarini potensial suiiste'mol qilish va ulardan nomaqbul hamda istalmagan odamlar tomonidan foydalanish xavfi bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari bolalar va yoshlar keyinchalik shaxsan uchrashadigan odamlar bilan onlayn muhitda tanishishlari mumkin, garchi bu juda kam yuz beradi. Barcha mamlakatlardagi bolalar va yoshlarning to'rtidan bir qismidan kamrog'i internetda birinchi marta tanishgan odam bilan yuzma-yuz uchrashishgan.

Ajablanarlisi shundaki, bolalar va yoshlar asosan internetda tanishga tanishlari bilan bu yuzma-yuz uchrashuvlardan zavqlanishadi va keyin bu muloqotdan ko'ngillari to'lgani haqida xabar berishadi; bu ularning do'stlari doirasi shu tarzda kengayganidan naf ko'rayotgani to'g'risida xulosa qilish imkonini beradi. Boshqa tomondan, bolalar va yoshlar ushbu uchrashuvlardan xafa bo'lganliklarini bildirgan kam holatlar ham tashvishga sabab bo'ladi.

O'z bolalari va yoshlar haqidagi ma'lumotni Internetga joylaydigan ota-onalar bu bolaga qanday ta'sir qilishi haqida o'ylashlari kerak. "Sharenting" (inglizcha "Sharenting" – ota-onalar tomonidan o'z bolalari haqidagi ma'lumotlar va fotosuratlarini internetga joylashtirish) bolaning shaxsiy hayoti daxlsizligi huquqini buzishi, ta'qib qilish, noqulay vaziyatlarning yuzaga kelishi yoki keyingi hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi xavfi yuzaga keladi²³. Nogiron bolalarning ota-onalari ba'zan bunday ma'lumot bilan yordam yoki maslahat izlab bo'lishishadi va bu bilan nogiron bolalari uchun salbiy oqibatlariga olib kelish xavfi yuqori bo'ladi.

Uy - bu Wi-Fi joylashgan joy

Onlayn muhitda xavf-xatarlar bolalar va yoshlarga zarar keltirmasligini ta'minlashning bir usuli - ota-onalar va boshqa shaxslar uchun bolalar va yoshlarning Internetdan foydalanishi bo'yicha rahbariy ko'rsatmalarni yaxshilash hisoblanadi.

"Kattalar yosh avlodga katta ta'sir ko'rsatadilar va ular uchun yaxshi o'rnak bo'lishlari kerak", - urugvaylik 13 yoshli qiz.


Asosan, ota-onalar bolalar va yoshlarning Internetdan foydalanish masalalarida qo'llab-quvvatlash uchun barcha imkoniyatlarga ega, chunki bolalar va yoshlar birinchi navbatda Internetdan uyda foydalanadilar.

Ammo texnologiyalarning murakkabligi va jadal rivojlanayotganligi sababli ko'plab ota-onalar o'zlarini texnikani yaxshi biladigan bolalar va yoshlarni nazorat qilish uchun yetarli darajada ishonchli yoki bilimli deb his etmaydilar. Bundan tashqari, ota-onalarga "ekran oldidagi vaqt", "Internetga qaramlik" va "begona odamlar bilan gaplashish xavfi" kabi omillar bilan bog'liq keng tarqalgan tashvishni his qiladilar. Shu sababli, ota-onalar bolalar va yoshlarga onlayn muhitda imkoniyatlarni taqdim etish va ularni yanada sermahsul faoliyatga yo'naltirishdan ko'ra ko'proq bolalar va yoshlarning Internetdan foydalanishini cheklashga harakat qiladilar, masalan onlayn muhitda muloqot qilish uchun ajratilgan vaqt nuqtayi nazaridan yoki yotoqxonada, ovqatlanish vaqtida yoki uxlashdan oldin raqamli qurilmalardan foydalanishni taqiqlash orqali.


Aksariyat mamlakatlarda ota-onalar kichik yoshdagi bolalarning Internet tarmog'ini o'zlashtirish jarayonida faol ishtirok etadilar, ularga raqamli makonda harakat qilishda yordam beradilar va shu bilan birga ular uchun yoshlarga qaraganda qat'iyroq chegaralarni belgilaydilar. Bolalar ulg'aygan sari, aralashuv darajasi kamayadi, garchi ota-onalar o'smirlarga onlayn muhitdagi imkoniyatlar va xavflar bo'yicha konstruktiv ko'rsatmalar berishda davom etadilar.

²³ UNICEF and the Office of Research-Innocenti (2017), *Child Privacy in the Age of Web 2.0 and 3.0: Challenges and Opportunities for Policy*, https://www.unicef-irc.org/publications/pdf/Child_privacy_challenges_opportunities.pdf.

6-rasm: Jinsi va yoshi bo'yicha ajratgan holda uyda kamida haftada bir marta Internetdan foydalanadigan bolalar (% da)²⁴



Savol B6b: Uyda kamida haftada bir marta internetdan foydalanish
Asos : Internetdan foydalanadigan barcha bolalar



Savol B6b: Uyda kamida haftada bir marta internetdan foydalanish
Asos : Internetdan foydalanadigan barcha bolalar

6-rasmda kamida haftada bir marta bolalarning uyda Internetdan foydalanish so'roviga javoblarni aks ettiruvchi ikkita chiziqli diagramma ko'rsatilgan. Birinchi diagrammada qizlar va o'g'il bolalar o'rtasida foydalanish taqsimoti ko'rsatilgan, barcha mamlakatlarda o'g'il va qizlar uchun bir xil ko'rsatgich. Boshqa diagrammada yosh guruhleri bo'yicha bo'linish ko'rsatilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, so'ralgan mamlakatlarning aksariyatida 9-11 yoshli bolalar guruhi boshqa ikki yosh guruhleri (12-14 yoshlilar va 15-17 yoshlilar) kabi kirish imkoniyatiga ega va so'ralgan barcha mamlakatlar uchun bittadan istisno, 15-17 yoshli o'smirlar guruhi Internetga eng ko'p kirishni qayd etdi.

Manba: UNICEF

Ota-onalar o'z bolalari va yoshlarning Internetdan foydalanishiga aralashmasliklarining sabablaridan biri, ularning o'zlarida maxsus bilimlarning yetishmasligidir.

²⁴Global Kids Online (2019). Global Kids Online: Comparative Report, UNICEF Office of Research – Innocenti.

4 Zaif vaziyatda bo'lgan bolalar

Bolalar va yoshlar turli sabablarga ko'ra zaif holatda bo'lishi mumkin. 2019-yilda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki,²⁵ "zaif holatda bo'lgan bolalar va yoshlarning raqamli muhitdagi hayotida haqiqiy hayotda ularning nomaqbul vaziyati bilan ta'minlanadigan o'sha alohida va e'tiborli munosabat kuzatilmaydi". Bundan tashqari, hujjatda aytilishicha, eng yaxshi holatda ular [bolalar va yoshlar] boshqa barcha bolalar va yoshlar kabi bir xil umumiy onlayn muhitda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha umumiy tavsiyalarni olishadi, ularga esa maxsus yordam kerak bo'ladi.

Bu yerda aniq zaif holatdagi bolalarning uchta toifasi (migrant bolalar, autizm spektrida buzilishlar bo'lgan bolalar va nogiron bolalar) ko'rib chiqiladi, ammo aslida ularning soni juda ko'p.

Migrant bolalar

Migrantlar muhitidagi bolalar va yoshlar mamlakatga ko'pincha ma'lum bir ijtimoiy-madaniy bilimlar va munosabatlar kompleksi bilan keladilar (yoki unda allaqachon yashayotgan bo'ladilar). Texnologiyalarga odatda aloqalar va jamiyat ishtirokini ta'minlovchi omil sifatida qaralsa-da, onlayn xavf va imkoniyatlar darajasi sharoitga qarab katta farq qilishi mumkin. Bundan tashqari, empirik yo'l bilan olingan ma'lumotlar va amaliy tadqiqotlar²⁶ umuman raqamli vositalarning muhim rolini ko'rsatadi:

- Oriyentatsiya maqsadlari uchun bu muhim (yangi mamlakatga ko'chib o'tganda).
- Bu qabul qiluvchi mamlakatning jamiyati/madaniyatini o'zlashtirish va tanishish uchun muhim vositadir.
- Ijtimoiy tarmoqlar oila va tengdoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish va umumiy xarakterdagi axborotdan foydalana olishda asosiy o'rin tutishi mumkin.

Ko'pgina ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, raqamli vositalar migrantlar uchun qiyinchiliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin, jumladan:

- Infratuzilma - migrant bolalar va yoshlar Internetdan xavfsiz va konfidensial foydalanishlari uchun xavfsiz onlayn makonni yaratish haqida o'ylash muhim.
- Resurslar - migrantlar pullarining katta qismini oldindan to'lanadigan telefon kartalariga sarflaydilar.
- Integratsiya - texnologiyalardan foydalanish bilan bir qatorda, migrant bolalar va yoshlar ham yaxshi raqamli ta'limga muhtoj.

Autistik spektrining buzilishlari bo'lgan bolalar (ASD)

Autistik spektr DSM-5²⁷ xatti-harakatlar diagnostikasi tasnifining ikkita asosiy yo'nalishini qamrab oladi.

- Cheklangan va takrorlanuvchi xatti-harakatlar (bir xillik zarurati).
- Muloqot qilish va aloqa qilish qiyinchiliklari.
- Aqliy zaiflik, til muammolari va shunga o'xshash muammolarning tez-tez birga kelishi.

²⁵ Adrienne Katz (2018), Vulnerable Children in a Digital World, <https://pwxp5srs168nsac2n3fnjyaa-wpengine.netdna-ssl.com/wp-content/uploads/2019/02/Vulnerable-Children-in-a-Digital-World-FINAL.pdf>.

²⁶ Better Internet for Kids (2017), Report on the proceedings of the Safer Internet Forum 2017, <https://www.betterinternetforkids.eu/documents/167024/1738388/Report+on+the+proceedings+of+the+Safer+Internet+Forum+2017/fa4db409-4fae-45b1-96ec-35943b7d975d>

²⁷ Cardwell C. Nuckols (2013), *The Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders*, https://dhss.delaware.gov/dsamh/files/si2013_dsm5foraddictionsmhandcriminaljustice.pdf.

Texnologiyalar va Internet bolalar va yoshlar uchun o'rganish, muloqot qilish va o'yin o'ynashda cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi. Biroq afzalliklar bilan bir qatorda, ASD bo'lgan bolalar va yoshlar ko'proq duch kelishi mumkin bo'lgan ko'plab xavflar mavjud, masalan:

- Internet autizm bilan kasallangan bolalar va yoshlarga muloqot qilish imkoniyatini va ularda oflayn muhit bera olmasligi mumkin bo'lgan maxsus qiziqishlarni berishi mumkin.
- Boshqa odamlarning niyatlarini tushunish qiyinligi kabi ijtimoiy xarakterdagi muammolar ushbu guruh a'zolarini yomon niyatli "do'stlar" oldida ojiz qoldirishi mumkin.
- Onlayn muhitda yuzaga keladigan muammolar ko'pincha autizmning asosiy xususiyatlari bilan bog'liq: muayyan va aniq rahbariy ko'rsatmalar bu shaxslarni onlayn muhitiga moslashuviga yordam berishi mumkin, ammo ularning asosiy muammolari saqlanib qoladi.

Nogironligi bo'lgan bolalar

Nogironligi bo'lgan bolalarning raqamli muhitdagi tajribasi bo'yicha birinchi maslahat tadqiqotiga ko'ra, bu bolalar ko'p jihatdan ularning raqamli va onlayn muhitdagi hayotlari nogironligi bo'lmagan bolalarnikiga juda o'xshashligini his qilishdi. Biroq, bir qator aniq va muhim farqlar mavjud.²⁸ Bularni ko'rib chiqqanda shuni yodda tutish kerakki, nogiron bolalar duch keladigan qiyinchiliklar va to'siqlar nogironlikning turi va tabiatiga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Ularning alohida ehtiyojlari individual ravishda hisobga olinishi kerak.²⁹

Nogironligi bo'lgan bolalar va yoshlar nogironligi bo'lmagan bolalar va yoshlarga o'xshash tarzda onlayn muhitdagi xavflarga duch kelishadi, biroq ular nogironligi bilan bog'liq muayyan xavflarga ham duch kelishlari mumkin. Ular nogironligi bo'lmagan bolalar va yoshlarga qaraganda 12 foizga ko'proq kiberta'qibga duch keladilar. Nogironligi bo'lgan ayrim bolalar va yoshlar onlayn muhitda shaxslararo munosabatlarni boshqarishda yoki haqiqiy va yolg'on axborotni farqlashning yetarlicha rivojlangan ko'nikmalariga ega emas. Ularning ba'zilarini pul sarflashda, kerak bo'lmagan malumotlarni oshkora qilishda va hokazolarda osongina boshqarish mumkin. Nogiron bolalar va yoshlar ko'pincha o'z jamoalarida ishtirok etishda chetlanish, stigmatizatsiya va to'siqlarga (jismoniy, iqtisodiy, ijtimoiy, shuningdek boshqalar tomonidan munosabatlarga tegishli) duch kelishadi. Bunday tajriba onlayn muhitda ijtimoiy muloqot va do'stlik izlashga intilayotgan nogiron bolaga salbiy tasir ko'rsatishi mumkin, boshqa holatda bu ijobiy bo'lishi mumkin, o'z-o'zini hurmat qilishiga yordam beradi va qo'llab-quvvatlash tarmoqlarini yaratadi. Shu bilan birga, bu bolalar va yoshlarga nisbatan gruming, onlayn muhitda shahvoniy xarakterdagi xatti-harakatlarga undash va/yoki shahvoniy shilqimlik kabi xatti-harakatlar xavfining oshishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, real hayotda qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan bolalar va yoshlar, shuningdek psixologik-xarakterdagi muammolarni boshidan kechirayotganlarda bunday noxush hodisalar xavfi yuqori bo'ladi.³⁰

Nogironligi bo'lgan bolalar va yoshlarga nisbatan gruming qilish, onlayn muhitda shahvoniy xarakterdagi xatti-harakatlarga undash va/yoki shahvoniy shilqimlik qilish kabi huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslar nafaqat bolalar va yoshlarni, balki nogiron bolalar va yoshlarni ham nishonga olishlari mumkin. Bu jinoyatchilar orasida "devoti" deb ataladigan shaxslar - nogironligi bo'lmagan odamlar nogironligi bo'lgan odamlarga (odatda, oyoq-qo'llari amputatsiya qilingan yoki harakatlanishni yengillashtiruvchi vositalardan foydalanadigan odamlar) nisbatan jinsiy aloqaga moyilligi bo'lganlar, ularning bazilari o'zlarini nogiron qilib

²⁸ Lundy et al. (2019), *TWO CLICKS FORWARD AND ONE CLICK BACK: Report on children with disabilities in the digital environment*, <https://rm.coe.int/two-clicks-forward-and-one-click-back-report-on-children-with-disabili/168098bd0f>.

²⁹ ibid.

³⁰ Andrew Schrock et al. (2008), *Solicitation, Harassment, and Problematic Content*, https://cyber.harvard.edu/sites/cyber.law.harvard.edu/files/ISTTF-LitReviewDraft_0.pdf.

ko'rsatadilar³¹. Bunday odamlar nogiron bolalar va yoshlarning foto va videolarini yuklab olish (bu aslida zararsiz) va/yoki ularni ijtimoiy tarmoqlardagi maxsus forumlar yoki hisobga olish yozuvlari orqali tarqatishlari mumkin. Forumlar va ijtimoiy tarmoqlarda xabardor qilish mexanizmlari ko'pincha bunday harakatlarni to'xtatish imkoniyatini bermaydi.

Nogironligi bo'lgan bazi bolalar va yoshlar onlayn muhitni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishlari yoki hatto kirish imkoni bo'lmagan format (masalan, matn shrifti hajmini oshirishga ruxsat bermaydigan ilovalar), kerakli moslamalar yo'qligi (masalan, matnni ovoqli qayta eshittirish dasturlari yoki kompyuterni moslashtirilgan boshqaruv vositalari) yoki tegishli yordamga muhtojligi (masalan, uskunalardan foydalanishni o'rgatishda, ijtimoiy o'zaro tasirga moslashishda individual yordam berish) sababli undan chiqarilishi mumkin.³²

Nogiron bolalar va yoshlarning ayrim ota-onalari bolalariga ba'zan haddan tashqari g'amxo'rlik qiladilar, chunki ular o'z bolalarini Internetdan foydalanishga qanday yaxshiroq yo'naltirish yoki ularni ta'qib va shilqimlikdan himoya qilish bo'yicha yetarli bilimga ega emaslar.³³ Nogiron bolalar va yoshlarning ayrim ota-onalari qo'llab-quvvatlash yoki maslahat olish maqsadida o'z farzandi haqidagi axborot yoki materiallar (foto, videolar) bilan bo'lishishi mumkin, bu bilan hozir va kelajakda o'z farzandini shaxsiy hayotining buzilishi xavfi ostida qoldirishi mumkin. Bu shuningdek ota-onalar o'zlari uchun bolaning nogironligi uchun turli xildagi davo, davolash usullari yoki "dorilar"ni taklif qiladigan nodon yoki vijdotsiz odamlar nishoniga aylanish xavfi mavjud.³⁴

³¹ Richard L Bruno (1997), *Devotees, Pretenders and Wannabes: Two Cases of Factitious Disability Disorder, Sexual and Disability*, <https://link.springer.com/content/pdf/10.1023/A:1024769330761.pdf>.

³² UNO (2008), *Convention on the Rights of Persons with Disabilities and Optional Protocol*, <https://www.un.org/disabilities/documents/convention/convoptprot-e.pdf>. For guidelines on these rights, see Article 9 on Accessibility and Article 21 on Freedom of expression and opinion, and access to information

³³ Lundy et al. (2019), *TWO CLICKS FORWARD AND ONE CLICK BACK: Report on children with disabilities in the digital environment*, <https://rm.coe.int/two-clicks-forward-and-one-click-back-report-on-children-with-disabili/168098bd0f>.

³⁴ Sonia Livingstone et al. (2019), *UNICEF Innocenti Research Brief: Is There a Ladder of Children's Online Participation?*, https://www.unicef-irc.org/publications/pdf/IRB_2019-02%2013-2-19.pdf.

5 Yangi va shakllanayotgan xavf va qiyinchiliklar

Buyumlar Interneti

Internet odamlarning turmush tarzini o'zgartirdi. U istalgan vaqtda, istalgan joyda inson bilimlarining barcha yig'indisidan foydalanish imkonini beradi. Ba'zilar uchun hayot har qachongidan ham osonroq va ancha qulay bo'ldi. Ammo bunday o'zgarishlar xo'jalik faoliyatida hamda shaxsiy hayotdagi bir qator an'anaviy turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Misol uchun, ba'zi avvalgi biznes-modellar butunlay o'zgartirildi yoki inkor etildi; shaxsiy darajada Internetning rivojlanishi odamlarning o'zaro bevosita muloqot qilishlarining kamayishiga olib keldi.

Ochiq internet va buyumlar Interneti (IoT)ning mavjudligini hisobga olish muhim: ochiq internet shunchaki virtual muhit bo'lib, kundalik reallikda mavjud emas; u bilan muloqot qilish ixtiyoriydir. Hayotimizni yaxshilash uchun jismoniy obektlar internet aloqalari orqali jonlantiriladigan buyumlar Interneti haqida bunday deyish mumkin emas: diqqatga sazovor misollardan biri - [Tviterdan foydalanadigan toster!](#)

Buyumlar Interneti (IoT) imkoniyatlari son-sanoqsiz. IoT allaqachon taqiladigan qurilmalarda, uydagi chiroqlarda, kameralarda, avtomobillarda, hojatxonalarda, qadoqlashda, energiya hisoblagichlarida, tibbiy sensorlarda mavjud ... Bularning ro'yxati cheksizdir. IoT hamma narsani yaxshi tomonga o'zgartirish imkoniyatiga ega. Darhaqiqat, ba'zilar buni "to'rtinchi sanoat inqilobi" ga kiritilgan deb hisoblashadi.

Ushbu narsalar bolalar yaqinida (ya'ni, ularning uylarida) ishlatilsa, ular "aqlli" taqiladigan qurilmalar yoki kiyim-kechaklardan foydalanish bilan bog'liq xavflarga duchor bo'lishi mumkin, bu esa ularning joylashgan joyini onlayn muhitda baham ko'rishi mumkin.

Buyumlar Interneti katta bozor imkoniyatlarini ochadi. Shu bilan birga, ba'zi bo'lishi mumkin bo'lgan muammolar ham mavjud:

Texnik/Maxfiylik muammolari

- Qurilmalar xavfsizligi: xavfsizlikning tegishli darajasini ta'minlash nisbatan qimmat bo'lishi mumkin; qurilmalarning xavfsizligi uchun viruslar/zararli dasturlar xavf tug'diradi.
- Aloqalar xavfsizligi: nisbatan kriptobardoshli shifrlash qo'llaniladi, chunki energiya cheklovchi omil hisoblanadi. Uchinchi shaxslar tomonidan boshqarish/aynan o'xshashlikni o'g'irlash va xavflari mavjud .
- "Har doim aloqada bo'lish" - "har doim ulangan" rejimida aloqadan foydalanadigan qurilmalarga bog'liqlik tobora o'sib bormoqda.
- Bulutdagi ma'lumotlar xavfsizligi - mohiyatan ham sizning ma'lumotlaringizdan kim foydalanayotganini bilmaysiz.

Ijtimoiy muammolar

- Odamlarni istisno qilish.
- Ma'lumotlarni suiiste'mol qilish potensial ehtimoli.
- Texnologiyalar oiladagi zo'ravonlik vaziyatlarining kelib chiqishiga yordam berishi mumkinligi ehtimoli.³⁵

Iqtisodiy muammolar

- Ishni yo'qotish.

Ekologik muammolar

- Har bir bosqichda ifloslanish (yaqin besh yil ichida 50 milliard qurilma).

³⁵ Julie Inman Grant, 2019, When "smart" is not necessarily safe: the rise of connected devices extending domestic violence, <https://www.esafety.gov.au/about-us/blog/when-smart-not-necessarily-safe-rise-connected-devices-extending-domestic-violence>.

Internetga ulangan o'yinchoqlar va robotlar

Texnologik jarayonning o'sishi bilan odamlar hayotida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda, ular nafaqat kattalar, balki ("O'yinchoqlar Interneti"ning paydo bo'lishi tufayli) bolalar va yoshlar tomonidan ham yanada ko'p foydalanilmoqda. Hayotimizning tobora ko'proq jihatlari kompyuterlashtirilgan ma'lumotlarga aylantirilgan ekan, bolalar va yoshlarni qanday himoya qilish hamda ularga xavfsiz va ishonchli raqamli dunyoda o'sish uchun imkoniyatlar yaratish masalalariga e'tibor qaratish zarurati ko'payadi.

Robototexnika haqidagi fikrlar o'zgardi va bolalar hayotini "robotlashtirish" atrofida ko'p munozaralar bo'ldi.³⁶ Bir paytlar zerikarli, iflos, fabrikalarda inson mehnatiga tahdid qiluvchi va xavfli ishlab chiqarish mashinalari hisoblangan robotlar endilikda yuqori darajada rivojlangan, yordamga kela oladigan va ijtimoiy deb hisoblangan, turmushda va dam olganda o'zaro ishlash mumkin bo'lgan vositaga aylandi. O'yinchoqlar uzoq vaqtdan beri robot ko'rinishida yaratilgan bo'lsa-da, robotlarni yanada mukammallashtirish uchun ulkan o'zgarishlar talab qilindi. Endi ular nafaqat ilmiy fantastika olamidagi robotning shakli va ko'rinishiga ega: ular jonlanib, yura oladigan, gapira oladigan va fikrlay oladigan o'yinchoqlarga aylandi.

Robotlashtirish ortida ba'zi muhim texnologik o'zgarishlar ro'y berdi, ularni quyida keltirish mumkin:

- Hisoblash quvvatining eksponensial o'sishi.
- Mobil aloqalarning o'rnatilishi.
- Datafikatsiya va tarmoq axboroti.
- Sensorlar, mikrofonlar va kameralarni kichraytirish.
- Bulutli robototexnik tizimlardagi hisoblashlar.
- Sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish sohasidagi taraqqiyot.

Ehtimol, bugungi kunda bolalar va yoshlar o'zaro muloqot qiladigan eng keng tarqalgan robotlardan biri - bu Siri; raqamli yordamchi bilan suhbat qanchalik qiziqarli bo'lsa, u sun'iy intellekt (SI) va uni boshqaradigan algoritmlarning yetukligini ko'rsatadi. Ijtimoiy robotni "o'z (ijtimoiy) muhitini his qila oladigan va o'z roliga bog'liq bo'lgan ijtimoiy qoidalarga muvofiq ushbu muhit (undagi subyektlar) bilan maqsadli va avtonom tarzda o'zaro ta'sir ishlaydigan odamiylashtirilgan sun'iy qurilma" deb ta'riflanishi mumkin. Ijtimoiy robotlar ayniqsa bolalar va yoshlarni jalb qilishi mumkin, chunki ular yangi texnologiyalarni tez o'zlashtirmoqda va ko'pincha yangi texnologiyalardan foydalanuvchilar sifatida ko'riladi. Bundan tashqari, bolalar va yoshlar odatda shakllanadigan va turli xil yo'nalishdagi qiziqishlar sohasining mavjudligi bilan farqlanadi. Biroq oxir-oqibatda robotlar bilan o'zaro muloqot qilishning eng katta ta'sirini aynan bolalar va yoshlar boshdan kechirishi mumkin.

Bolalar va robotlarning o'zaro ta'sirining tipik xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- Mobillik.
- Interaktivlik/ikki tomonlamalilik.
- "Tabiiylashtirish" (nutq, imo-ishoralar, matn o'rniga ko'rishdan foydalanish).
- O'zaro ta'sirning moslashuvchanligi.
- Shaxsiylashtirish.
- (No)mujassamlash.

Bunda jarayonlar quyidagilarni aks ettiradi:

- Antropomorfizm (insoniy xususiyatlarni yoki xatti-harakatlarini namoyish qilish).

³⁶ Jochen Peter at the Safer Internet Forum 2017: Better Internet for Kids (2017), Report on the proceedings of the Safer Internet Forum 2017, <https://www.betterinternetforkids.eu/documents/167024/1738388/Report+on+the+proceedings+of+the+Safer+Internet+Forum+2017/fa4db409-4fae-45b1-96ec-35943b7d975d>

- Ijtimoiy mavjudlik
- Ishtirok etish.
- Qabul qilinadigan o'xshashlik.

Bolalar va yoshlarning kognitiv rivojlanishi uchun ularning robotlar bilan o'zaro ta'sirining bir qator potensial oqibatlari - ham ijobiy, ham salbiy oqibatlari mavjud. Ijobiy natijalarga bolaga maxsus moslashtiriladigan, doimiy ravishda yangilanib turadigan va o'zi bilim olishiga yordam beradigan o'qitishdagi muvaffaqiyatlar kiradi. Kamroq ijobiy natijalar kontent cheklanishi yuz beradigan Internetdagi "filtr pufaklari"ga o'xshash "ta'lim pufaklari" muammosi bilan izohlanadi. Bunday hollarda, bolaning bilimida parchalanish va ko'plab faktlarni yetkazish xavfi mavjud, o'qitish uslubi esa faqat algoritmik o'qitish usuliga asoslangan. Misol uchun, bola Alexa ga savol berganida (ular Google yoki Bing qidiruv tizimiga savol berganidek), u faqat bitta javob oladi, bu esa ularga taqdim etilgan kontentni tanqidiy baholash qobiliyatining rivojlanishini qiyinlashtiradi.

Bolaning shaxsiyatini rivojlantirishda ham xuddi shunday qo'rquv paydo bo'ladi. Tadqiqotlarga asoslangan³⁷ ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, robotlar bolalar va yoshlar hayotida muhim rol o'ynashi mumkin, bu ularning katta bo'lgani sari o'z shaxsiyatini qidirish jarayonini kengaytirish va takomillashtirishga yordam beradi. Biroq robotlarning qo'llanishi konfidensiallik masalalarini ko'taradi, sababi ulardan kuzatuv mashinalari sifatida foydalanish, masalan, ular yordamida yaqin atrofdagi hamma yaqin turganlar nutqini yozib olish/videoga olish uchun foydalanish va shu tariqa ota-onalar hamda bolalar va yoshlar uchun jiddiy xavfsizlikka tahdidlarni keltirib chiqaradi.

Muloqot qilish jihatlari nuqtayi nazaridan, robotlar bilan o'zaro munosabatlar har doim ham real hayotdagi haqiqiy munosabatlarni aks ettirmaydi. Bu, bir tomondan, bolalar va yoshlarni tinchlantirish va tasalli berish vositasi bo'lib xizmat qiladigan algoritmnin topganligi sababli ularni asta-sekin jamiyatdan ajratib qo'yishga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, bu robotlar ota-onalar va tengdoshlar bilan suhbatda ko'tarish oson bo'lmagan masalalarni "muhokama qilish" imkonini beruvchi "yupanchiq" bo'lib xizmat qilishini anglatadi. Robotlar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarimiz tizimi har doim xizmatkor/xo'jayin prinsipi bo'yicha quriladi, lekin ular tobora ko'proq "his qilayotgandek ko'rsatishni" o'rganishlari mumkin, shuning uchun bolalar va yoshlar bunday munosabatlarning haqiqiy va o'zaro tabiatiga ishonib aldanishlari mumkin.

Yoxen Piter ta'kidlaganidek, "robotlar an'anaviy o'yinchoqlardan ko'ra ko'proq narsani biladi, lekin ular eng kichik yoshdagi foydalanuvchilar uchun ham katta xavf tug'diradi".³⁸

Onlayn o'yinlar

O'yin sanoati mijozlar soni va daromadlar hajmi bo'yicha kino hamda musiqa sanoatini ortda qoldirdi. Bundan tashqari, kichik mobil qurilmadan foydalanib o'ynash mumkin bo'lgan mobil o'yinlar paydo bo'lishi bilan o'yin ishqivozlarining soni har qachongidan ham ko'paydi. Fransiya, Germaniya, Hindiston, Italiya, Yaponiya, Singapur, Koreya Respublikasi, Buyuk Britaniya va Amerik Qo'shma Shtatlaridagi 4500 mijozlarning javoblariga asoslanadigan 2019-yilda onlayn o'yinlar sohasidagi ishlar holatining tadqiqotlariga ko'ra haftasiga kamida bir marta videoo'yinlarni o'ynaydigan yoshi 18 va undan katta bo'lganlarning 51,8 foizi erkak geymerlar va 48,2 foizini ayol geymerlar tashkil qiladi.³⁹ Bundan tashqari, 2010-yildan beri Amerika

³⁷ Van Straten, C. L., Peter, J., & Kühne, R. (2019). Child-robot relationship version: A narrative review of empirical research. *International Journal of Social*

³⁸ Van Straten, C. L., Peter, J., & Kühne, R. (2019). Child-robot relationship version: A narrative review of empirical research. *International Journal of Social*

³⁹ Limelight Networks (2019), *Market Research: The State of Online Gaming*, http://img03.en25.com/Web/LLNW/%7B02ca9602-173c-43a4-9ee1-b8980c1ea459%7D_SOOG2019_MR_8.5x11.pdf.

Qo'shma Shtatlarida video o'yinchilar umumiy sonining 21 foizi 18 yoshgacha bo'lganlardan iborat.⁴⁰

Fransiya, Germaniya, Ispaniya va Buyuk Britaniyada olib borilgan so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 6 yoshdan 64 yoshgacha bo'lganlarning 54 foizi video o'yinlar o'ynashadi, bunda ularning 77 foizi haftada kamida bir soat o'ynaydilar. Bundan tashqari, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Buyuk Britaniya va Fransiyadagi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarning to'rt dan uch qismi videoo'yin o'ynaydilar, GameTrack ma'lumotlariga ko'ra beshta Yevropa bozorlari bo'yicha ularning umumiy soni 24 milliondan ortiqni tashkil qiladi. Ular turli xil qurilmalardan foydalanadilar, ammo har 10 geymerdan 7 nafari pristavka yoki "aqlli" qurilmalardan foydalanadi.⁴¹

Dunyoda 2,5 milliarddan ortiq video o'yinchilar mavjud. Eng ko'p o'yinchilar soni "PUBG" o'yinida qayd etildi va bir soat ichida 3 millionni tashkil etdi.⁴²

Dunyo bo'ylab o'yin videokontentini ko'rish bo'yicha yetakchi platformalardan biri bu Twitch bo'lib, u 2017-yilda o'yin videokontent platformasi daromadining 54 foizini tashkil qilgan.

O'yin ichidagi xaridlar onlayn o'yinlarning tobora muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ulanishlar yanada takomillashtirilganligi va internet tezligining yanda oshishi sababli o'yinchilar o'yinlarning fizik nusxalarini sotib olishdan ko'ra o'yinlarni yuklab olishni afzal ko'rishadi. Janubiy Afrikada onlayn savdolar 2018-yildan 2019-yilgacha 13 foizga o'sdi.⁴³

Tomoshabinlarning xilma-xilligiga qaramay, hali ham erkak ishlab chiquvchilar ustun bo'lgan o'yin sanoati ko'pincha geteroseksual erkaklar auditoriyasining manfaatlariga xizmat qilishga intiladi. Afsuski, bu ko'pincha haddan tashqari shahvoniy ayol personajlarining yaratilishiga va erkak bo'lmagan o'yin personajlari va terisining rangi oq bo'lmagan o'yinchi personajlarning aniq yetishmasligiga olib keladi.

Mobil o'yinlarning xilma-xilligidan tashqari, onlayn o'yinlar sohasida ham katta o'sish kuzatilmoqda. Barcha o'yinlarni ham onlayn o'ynab bo'lmaydi, ammo bugungi kunda barcha o'yin pristavkalari Internetga kirish funksiyasi bilan jihozlangan. Onlayn o'yin, shuningdek, foydalanuvchilarning internetda boshqa foydalanuvchilar bilan o'ynashi mumkinligini anglatadi. Ba'zi o'yinlarda siz faqat "do'st" sifatida ro'yxatdan o'tgan odamlar bilan o'ynashingiz mumkin; boshqalarda siz dunyoning barcha mintaqalaridan kelgan o'yinchilar guruhiga tushib qolasiz, ba'zan tasodifiy, ba'zan esa o'ynash ko'nikmalari yoki nimani afzal ko'rishizga qarab.

Har xil turdagi o'yinlar mavjud va ular doimo o'zgarib turadi. Ba'zi ommabop o'yinlar va janrlar quyida keltirilgan:

First-person shooter (FPS) – bu ekshen janridagi jangovar o'yin bo'lib, uning mohiyati birinchi shaxs nuqtayi nazaridan o'qotar qurollar yoki boshqa qurollar yordamida olib boriladigan janglardan iborat, masalan Call of Duty, Overwatch, BioShock, Battlefield kabi o'yinlar.

Ekshn-sarguzasht – o'yinchi ko'pincha janglarda ishtirok etadigan yoki jumboqlarni yechadigan muhitni yengib o'tadigan va o'zlashtiradigan o'yinlar, masalan Grand Theft Auto (GTA), Super Mario, Uncharted, The Legend of Zelda, God of War.

⁴⁰ Statista.com (2019), *U.S. Average Age of Video Gamers in 2019* | Statista, <https://www.statista.com/statistics/189582/age-of-us-video-game-players-since-2010/>.

⁴¹ Isfe.eu (2019), *GameTrack In-Game Spending in 2019*, <https://www.isfe.eu/wp-content/uploads/2019/12/GameTrack-In-Game-Spending-2019.pdf>.

⁴² WEPC (2018), *2018 Video Game Industry Statistics, Trends & Data - The Ultimate List*, <https://www.wepc.com/news/video-game-statistics/>.

⁴³ Chris Cleverly (2019), *Mobile Gaming in Africa*, <https://medium.com/kamari-coin/mobile-gaming-in-africa-cc8bb6d7c49b>.

Sport – real hayotdagi sportning professional o‘yin turlarining strategiyasi va jismoniy jarayonlarini imitatsiya qiluvchi o‘yinlar, masalan, FIFA, Madden NFL, NBA.

Qumdon/Ochiq dunyo – minimal syujetli va cheklovlar bo‘lgan yoki umuman bo‘lmagan o‘yinlar, bu yerda o‘yinchi virtual dunyo bo‘ylab erkin harakatlanadi va uni o‘z xohishiga ko‘ra o‘zgartiradi, masalan, Minecraf, Terraria, Skyrim, Fallout.

Ko‘p o‘yinchilar foydalanadigan onlayn jang maydoni (Moba) – bir-birining bazalarini qo‘lga kiritish yoki yo‘q qilishga intilayotgan ikkita raqib jamoa ishtirok etadigan onlayn o‘yinlar, masalan, Dota 2, League of Legends, Heroes of the Storm, Paragon.

2018-yilda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan *o‘yin parokandaligi* sifatida belgilangan onlayn o‘yinlarga tobek xavotirlarga sabab bo‘lmoqda.⁴⁴ Kasalliklarning xalqaro tasniflagichining 11-qayta ko‘rib chiqilgan nashrida berilgan ta‘rifga ko‘ra, bu o‘yin nazoratining buzilishi bilan tavsiflangan o‘yin xatti-harakatlari modeli (“raqamli o‘yinlar” yoki “videoo‘yinlar”ga nisbatan), o‘yinni boshqa faoliyatga nisbatan ortib borayotgan ustuvorligini, uning boshqa manfaatlar va kundalik faoliyatdan ustunligini ta‘minlash va istalmagan oqibatlar yuzaga kelishiga qaramay, o‘yin faoliyatini davom ettirish yoki kuchaytirish bilan farqlanadi. Shuni esda tutish kerakki, o‘yin parokandaligi tashxisini qo‘yish uchun unga muvofiq bo‘lgan xatti-harakatlar modeli kamida bir yil davomida doimiy ravishda kuzatilgan bo‘lishi kerak.

O‘yin bilan bog‘liq yana bir tashvish uchun asos - bu ularning onlayn qimor o‘yinlari bilan bog‘liqligi. Ba‘zi o‘yinlar foydalanuvchilarni o‘ljali qutilardagi imkoniyatdan foydalanishga undaydi: o‘yinchi tasodifiy mukofot olish umidida o‘yin pulidan foydalangan holda quti sotib oladi (o‘yin ichida foydalaniladigan pul haqiqiy pulga sotib olinadi).⁴⁵

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘lja qutisi global bozori 20 milliard funt sterling miqdorida baholanmoqda.⁴⁶

Suniy intellekt va mashinaviy o‘qitish

Sun‘iy intellekt mavzusi ommaviy axborot vositalarida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Sinovdan o‘tayotgan SI ilovalari doirasi yanada kengaymoqda. SI, shuningdek, unda xato mulohazalar yuzaga kelishi bilan bog‘liq tashvish va xavotirlarni keltirib chiqarmoqda.

SI va mashinaviy o‘qitish ta‘rifini berish muhim, ammo ular uchun yagona va universal ta‘rif yo‘q. U maqsad, yo‘naltirilganlik va aniq vazifalarga bog‘liq. Ta‘riflarning turliligi “inson intellekti”ning turli xil ta‘riflarini ham aks ettiradi. Bundan tashqari, aniq va umumiy vazifalarni bajarishda farq bor: odamlar tomonidan birinchisi muvaffaqiyatli bajariladi, SI aniq vazifalarni bajarishda ustunlikka ega.

Mashinaviy o‘qitish ko‘p hollarda mashinalarga ma‘lumotlardan o‘rganish imkonini beradigan usullarni o‘z ichiga oladi. U modellarni shakllantirish uchun ma‘lumotlarni umumlashtirishga qaratilgan. Mavjud sun‘iy intellekt ilovalarining 80 foizida mashinaviy o‘qitish mavjud.

SI kontekstida bir qator masalalar ko‘rib chiqilishi kerak:

- Aniq ifodalangan muammolarning yo‘qligi - muammoni aniqlash bu muvaffaqiyat kalitidir.
- Ma‘lumotlarning mavjudligi – mavjud ma‘lumotlar ko‘pincha noto‘g‘ri, dolzarb emas, “iflos” yoki to‘liq emas. SI va algoritmik tizimlarni tayyorlash va rivojlantirish uchun ko‘pincha katta foydalanuvchilardan olinadigan ma‘lumotlardan foydalaniladi. Bu SI dan foydalanadigan algoritmik qarorlar qabul qilish tizimlari va tasvirni aniqlash dasturlari

⁴⁴ WHO (2018), *WHO | Gaming Disorder*, <https://www.who.int/features/qa/gaming-disorder/en/>.

⁴⁵ Parentzone.org.uk (date?) , *What Are Loot Boxes?*, <https://parentzone.org.uk/article/what-are-loot-boxes>.

⁴⁶ RSPH (2019), *Skins in the Game A High-Stakes Relationship between Gambling and Young People’s Health and Wellbeing?* <https://www.rsph.org.uk/uploads/assets/uploaded/a9986026-c6d7-4a76-b300ba35676d88f9.pdf>.

ko'p darajada kattalar uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin va shuning oqibatida ularning funksiyalari bolalar duch keladigan xavflarni yoki ularning xulq-atvorini noto'g'ri baholash/noto'g'ri tasniflashga asoslanishi mumkin. Xuddi shunday, SI asosida qarorlarni qabul qilish jarayonlarini shakllantirish va axborot kuzatuvini uchun foydalaniladigan ma'lumotlar to'plamlari va modellari odamlarning millati, jinsi, nogironligi va h. tufayli ba'zi odamlarning ehtiyojlarini noto'g'ri aks ettirishi yoki hisobga olishi mumkin. Shu tariqa bunday kam taqdim etilgan guruhlardagi bolalar SI tomonidan og'irlashtiriladigan yoki foydalaniladigan sektorlararo omillar sababli yanada nomaqbul holatda qolishlari mumkin.

- Tushunishni e'tiborsiz qoldirish - ba'zida model tasodifan yoki yaxshi ishlaydi, lekin boshlang'ich vazifani hal qilish uchun emas - masalan, SI qidiruvlarda tasvirlarni noto'g'ri talqin qilishi haqida maqolalar paydo bo'ldi.⁴⁷
- Xato qiymati.

Sun'iy intellekt - bu ajoyib ishlanma, ammo u paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan dilemma haydovchisiz boshqariladigan mashinalar kontekstida "vagoncha muammosi"ni juda eslatadi.⁴⁸

⁴⁷ James Vincent (2019), *If You Can Identify What's in These Images, You're Smarter than AI*, <https://www.theverge.com/2019/7/19/20700481/ai-machine-learning-vision-system-naturally-occurring-adversarial-examples>.

⁴⁸ Amy Maxmen (2018), *Self-Driving Car Dilemmas Reveal That Moral Choices Are Not Universal*, <https://www.nature.com/articles/d41586-018-07135-0>.

6 Xavf-xatarlar va zarar manbalarini anglash

7-rasmda bolalar onlayn muhitda duch keladigan xavf-xatarlarning tasnifi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, sog'liq va farovonlik uchun xavf-xatarlar (Internetdan haddan ziyod foydalanish, kam uxlash va h.) mavjudligi e'tirof etiladi.

7-rasm: Onlayn muhitda bolalar duch keladigan xavf-xatarlar tasnifi⁴⁹

	Kontent Bola istemolchi sifatida (ommaviy ishlab chiqarish)	Bog'lanish Bola ishtirokchi sifatida (kattalar tomonidan boshlangan harakatlar)	Xulq Bola aktyor sifatida (qonunbuzar/jabrlanuvchi)
Agressiv xarakter	Shafqatsizlik/zo'ravonlik sahnalari	Taqib qilish	Tengdoshlarni gruming qilish, dushmanlik harakati
Jinsiy xarakter	Pornografik materiallar	Notanishlar bilan uchrashganda gruming, jinsiy zo'ravonlik qilish	Jinsiy taqib qilish, seksting
Qiymatli xarakter	Irqchilik/nafrat sohadigan kontent	Mafkuraviy e'tiqod	Foydalanuvchi tomonidan yaratilgan potentsial zararli kontent
Tijoriy xarakter	Reklama, yashirin marketing	Shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish, shu jumladan noto'g'ri foydalanish	Qumor o'yinlari, mualliflik huquqining buzilishi

7-rasmda bolalarning onlayn muhitda duch keladigan xavf-xatarlarini tasniflovchi jadval keltirilgan. Uchta ustunda quyidagi sarlavhalar mavjud: 1) kontent (bola iste'molchi sifatida (ommaviy ishlab chiqarish)); 2) bog'lanish (bola ishtirokchi sifatida (kattalar tomonidan boshlangan harakatlar)); 3) xulq (bola aktyor (qonunbuzar / jabrlanuvchi) sifatida). To'rtta quyidagi sarlavhalar mavjud: "Agressiv xarakter", "Jinsiy xarakter", "Qiymatli xarakter", "Tijoriy xarakter". Satrlar mazmuni: "Agressiv xarakter" - 1) shafqatsizlik / zo'ravonlik sahnalari; 2) taqib qilish; 3) tengdoshlarni gruming qilish, dushmanlik xatti-harakatlari; "Jinsiy xarakter" - 1) pornografik materiallar; 2) notanish odamlar bilan uchrashganda gruming, jinsiy zo'ravonlik qilish; 3) jinsiy taqib qilish, seksting; "Qiymatli xarakter" - 1) irqchilik/nafrat kontenti; 2) mafkuraviy ye'tiqod;

3) foydalanuvchi tomonidan yaratilgan potentsial zararli kontent; «Tijorat xakteri - 1) reklama, yashirin marketing; 2) shaxsiy malumotlardan foydalanish, shu jumladan noto'g'ri foydalanish, 3) qimor o'yinlari, mualliflik huquqining buzilishi.

Manba: EU Kids Online (Livingstone, Haddon, Görzig, and Ólafsson (2011)

1-aniq vaziyatni tadqiq etish

Ushbu misolda Iordaniya uchuvchisining ISHID tomonidan o'ldirilishi aks etgan videoni tomosha qilgan bola bilan bo'lgan misol ko'rib chiqiladi⁵⁰. Bola bu sodir bo'lgan voqeani onasi bilan maktabdan qaytayotib, radioda eshittirilayotgan yangiliklardan eshitgan. U onasiga bu haqda savollar berdi, lekin ona buni muhokama qilishga tayyor emas edi. Ona radioni o'chirdi va uygacha bo'lgan yo'l davomida ular indamay ketishdi. Bola eshitgan narsasidan juda xavotirda edi - uchuvchi tiriklayin yoqib yuborilgan - va uyga qaytgach, u ko'proq ma'lumot olish va nima bo'lganini tushunish uchun internetda tafsilotlarni qidirishni boshladi. Qidiruv tizimi unga taklif qilgan natijalar orasidan bo'lgan voqeaning yangiliklar kanali tomonidan joylashtirilgan videoyozuvi chiqdi. Bola hikoya qilishicha, u ko'rishni boshlashi bilanoq bu videoyozuvni ko'rmasligi kerakligini bilganini, lekin u o'zini to'xtata olmaganini va u butun videoni tomosha qilgan. Ko'rgan narsasi uni dahshatga solgan; u qo'rqinchli tushlar ko'rishni boshlagan - bu voqea unga juda katta ta'sir qilgan, lekin u hech kimga aytmagan, chunki u kattalarning munosabatidan qo'rqqan va meni urishishadi deb o'ylagan.

⁴⁹ Livingstone, S., Haddon, L., Görzig, A., and Ólafsson, K. (2011). *Risks and safety on the internet: The perspective of European children. Full findings*. LSE, London: EU Kids Online, <http://eprints.lse.ac.uk/33731/>.

⁵⁰ CBS News (2015), *ISIS Video Shows Jordanian Pilot Being Burned to Death*, <https://www.cbsnews.com/video/isis-video-shows-jordanian-pilot-being-burned-to-death/>.

Bir tomondan, onaning xatti-harakatini tushunsa bo'ladi, kattalar ko'pincha Internetda mavjud bo'lgan ayrim turdagi kontentga qanday munosabatda bo'lishni bilmasliklarini ko'rsatadi. Biroq bunday narsalarni muhokama qilish qanchalik noqulay va qiyin bo'lsa-da, ularni muhokama qilish juda muhimdir. Ota-onalar o'z bolalarini tinglashga tayyor bo'lishlari kerak va ular bolalar uchun ularni qiziqtirgan har qanday masalalarni muhokama qilishlari mumkin bo'lgan muhit yaratishlari kerak.

Kontent

- Noqonuniy va/yoki potensial zararli bo'lgan kontent, xususan, pornografiya, qimor o'yinlari, o'ziga o'zi zarar keltirish bilan bog'liq materiallar hamda bolalar va yoshlar uchun nomaqbul bo'lgan boshqa materiallardan iborat bo'lgan veb-saytlar ta'siri. Aksariyat hollarda ushbu veb-saytlar operatorlari tomonidan bolalar va yoshlarning ularga kirishini cheklash bo'yicha samarali choralar ko'rilmaydi.
- Boshqa foydalanuvchilar bilan aloqaning ta'siri.
- O'ziga zarar keltirish, buzg'unchi va zo'rvon xatti-harakatlar.
- Radikalizm va irqchilik hamda boshqa kamsituvchi nutq va tasvirlarning ta'siri.
- Internetda topilgan noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan axborotga yoki noma'lum yoki ishonchli bo'lmagan manbalardan olingan axborotga ishonish yoki foydalanish.
- Noqonuniy yoki zararli kontentni yaratish, ko'rish va tarqatish.

Onlayn muhitda manipulyatsiya qilish

Bugungi kunda har qachongidan ham ko'proq bolalar va yoshlarning onlayn muhitda, xususan, ijtimoiy tarmoqlarda keng ishtirok etishlari qayd qilinmoqda, bu yerda ularga u yoki bu ko'rinishdagi manipulyatsiya ta'sirini ko'rsatish uchun algoritmlar tomonidan filtrlanadigan turli xil kontentlar ta'siriga uchraydilar. Masalan, siyosiy manipulyatsiya (muayyan siyosiy nuqtayi nazarni targ'ib qilish), soxta yangiliklar (siyosiy, tijorat yoki boshqa maqsadlarda yolg'on axborotni tarqatish) va reklama (bolalar va yoshlarda muayyan brend yoki mahsulotlarga foydasiga erta bolalikdan afzalliklarni shakllantirish).

Algoritmli tarzda individuallashtirilgan bunday muhit bolalar va yoshlarning normal rivojlanishiga, fikrlashlariga, afzalliklariga, qadriyatlariga va odatlariga ularni filtrlar hosil qilgan "pufakchalari"da ajratib qo'yish orqali katta ta'sir ko'rsatishi va ularning turli xil fikrlar va kontentlardan erkin foydalanish va ularni tahlil qilishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Bog'lanish

- Yomon niyatli shaxs boshqa shaxsga qasddan zarar yetkazish, shilqimlik qilish yoki ta'qib qilish maqsadida, o'zini boshqa odam, ko'pincha boshqa bola qilib ko'rsatishi mumkin.

Onlayn muhitda shahvoniy xarakterdagi harakatlarga undash yoki gruming

Yevropa Kengashining Bolalarni shahvoniy foydalanish va shahvoniy suiiste'molliklardan himoya qilish to'g'risidagi konvensiyasi (Lansarot konvensiyasi) gruming (shahvoniy maqsadlarda bolalarga shilqimlik qilish) bu katta odam shahvoniy suiiste'molliklarni sodir etish yoki bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'molliklar tasvirlari mavjud materiallarni ishlab chiqarish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, qonuniy belgilangan jinsiy rozilik yoshiga yetmagan bolaga uchrashish to'g'risidagi qasddan taklif bilan murojaat qilishidir⁵¹. Shahvoniy xarakterdagi harakatlarga undash har doim ham yuzma-yuz uchrashish kerakligini anglatmaydi. Buni onlayn muhitda amalga oshirish mumkin, lekin shunda ham bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'molliklar sahnalari bo'lgan materiallarini

⁵¹ Council of Europe (1957), *Article 23 of the Treaty No. 201: Convention on the Protection of Children against Sexual Exploitation and Sexual Abuse*, <https://www.coe.int/en/web/conventions/full-list>.

ishlab chiqarish, ularga egalik qilish yoki uchinchi shaxslarga tarqatish orqali bolaga jiddiy zarar yetkaziladi.⁵²

Shahvoniy xarakterdagi harakatlarga undash yoki gruming kontekstida viktimizatsiya jarayoniga ko'proq e'tibor qaratiladi, chunki tegishli tadqiqotlar asosan bolalar va yoshlar orasida o'tkaziladi.

2- aniq vaziyatni tadqiq etish

Ushbu misolda biz Instagram da bir erkak tomonidan 13 yoshli qizga nomaqbul fotosuratlar yuborilgan holatni ko'rib chiqamiz. Erkak o'zining yalang'och holda tushgan fotosuratlarini qizga yuborgan va qizdan unga kiyimsiz tushgan fotosuratlarini yuborishni so'ragan. Qiz bunga rozi bo'lmadi, uni bloklab qo'ydi va Instagram da uning ustidan shikoyat qildi, shuningdek, ba'zi do'stlariga sodir bo'lgan voqea haqida gapirib berdi – balki ular bilan ham shunga o'xshash voqea sodir bo'lganmi va ular bilan ham shunday voqea yuz berganligi malum bo'ldi. Qiz hamma ishni to'g'ri qilganiga qaramay, u ota-onasining munosabatidan qo'rqib, ularga hech narsa demadi. U ota-onasi unga Instagram dan foydalanishni taqiqlashlariga amin edi, u esa buni aslo xohlamasdi. U tushuntirganidek, u va uning do'stlari Instagram da yangiliklar va g'iybatlar bilan bo'lishishgan, bo'sh vaqtlarini birgalikda o'tkazishni rejalashtirishgan, kun davomida maktabda nimalar bo'lganini muhokama qilishgan va h. Qiz ota-onasi (uni himoya qilish uchun) unga ushbu platforma (Instagram)dan foydalanishni to'xtatishni buyurishlariga chin dildan ishongan. Lekin gap shundaki, bu qiz hech qanday yomon ish qilmagan – bu unga o'zining fotosuratlarini yuborgan erkak o'zini nomaqbul tutgan. Ota-onalarning bunday vaziyatda bolani himoya qilish istagini to'g'ri tushunsa bo'ladi, lekin uni boshqa birovning qilgan ishi uchun jazolash mutlaqo noto'g'ri. Biz qizning Instagram dagi deyarli barcha yoki barcha harakatlari to'g'ri bo'lganligidan kelib chiqishimiz kerak. Agar bolalar Internetda duch kelgan muammolar haqida ota-onalariga gapirib bersalar, bunga javoban o'ylab javob berishlari juda muhimdir. Shuningdek, ular bolasini tinglashlari va uni qo'llab-quvvatlashlari kerak.

Ta'qib va zo'rvonlik

Ta'qib qayerda va qanday sodir bo'lishidan qat'i nazar, bu ta'qibdir. Onlayn muhitda ta'qib qilish ayniqsa kuchli shikastlashi va zarar keltirishi mumkin, chunki u odatda keng tarqaladi va ko'p odamlar buning guvohi bo'ladilar. Bundan tashqari, elektron vositalar yordamida tarqatiladigan kontent istalgan vaqtda qayta paydo bo'lishi mumkin, shuning uchun ta'qib qurboni bu noxush voqeani unutishini qiyinlashtiradi; ta'qib obro'sizlantiruvchi tasvirlar yoki haqoratli so'zlar shaklida bo'lishi mumkin; bunday kontentdan kechayu kunduz foydalanish mumkin. Elektron vositalar yordamida ta'qib qilish kuniga kechayu kunduz, haftada 7 kun amalga oshirilishi mumkin, ya'ni u jabrlanuvchining shaxsiy hayotiga tajovuz qilishi mumkin, hatto jabrlanuvchi "xavfsiz" bo'lgan joylarda ham, masalan, uyda; shaxsiga doir ma'lumotlar buzilishi, fotosuratlar o'zgartirilishi va keyin boshqa odamlarga yuborilishi mumkin. Bundan tashqari, ta'qib anonim bo'lishi mumkin⁵³.

Real hayotda nishonga olingan bolalar va yoshlar ko'pincha onlayn muhitda ham qurbon bo'lishadi⁵⁴. So'nggi tadqiqotlarga ko'ra, nogiron bolalar turli xil suiiste'molliklarni boshdan

⁵² Committee of the Parties to the Convention on the Protection of Children against Sexual Exploitation and Sexual Abuse (2015), *Opinion on Article 23 of the Lanzarote Convention and its explanatory note*, <http://rm.coe.int/coermpubliccommonsearchservices/displaydctmcontent?documentid=090000168064de98>.

⁵³ Dr Tanya Byron (2008), *The Report of the Byron Review: Safer Children in a Digital World*, <https://webarchive.nationalarchives.gov.uk/20120107041050/>, <https://www.education.gov.uk/publications/eorderingdownload/dcsf-00334-2008.pdf>.

⁵⁴ Schrock et al. (2008), *Online Threats to Youth: Solicitation, Harassment, and Problematic Content*, https://cyber.harvard.edu/sites/cyber.law.harvard.edu/files/RAB_Lit_Review_121808_0.pdf

kechirish ehtimoli ko'proq, xususan, ko'pincha shahvoniy shilqimlik qurboni bo'lishadi ⁵⁵ va shunga ko'ra, ular onlayn muhitda yuqori xavf ostida qoladilar. ⁵⁶ Viktimizatsiya bolaning haqiqiy yoki xayoliy nogironligi yoki bolaning nogironligi bilan bog'liq bo'lgan ba'zi xususiyatlar, masalan, nutqi va xulq-atvorining xususiyatlari yoki u foydalanadigan uskuna yoki xizmatlar asosida ta'qib qilish, shilqimlik qilish, ajratish va kamsitish shaklida bo'lishi mumkin. Ehtimoliy xavf-xatarlarga quyidagilar kiradi:

- Tuhmat va obro'ga putur yetkazish.
- Kredit kartalaridan ruxsatsiz foydalanish: a'zolik badallari, boshqa xizmatlar va tovarlarni sotib olish uchun to'lash maqsadida ota-onalari yoki boshqalarning kredit kartalaridan foydalanish.
- Yomon niyatli shaxslarning asosan moliyaviy foyda olish uchun boshqa internet foydalanuvchilari nomidan ish ko'rishga urinishlari. Ba'zi hollarda, shaxsga doir ma'lumotlarni o'g'irlash sodir bo'lishi mumkin, garchi bu turdagi firibgarlik kattalar ko'proq duch keladilar;
- Nomaqbul reklama: ba'zi kompaniyalar mahsulotlarni sotib olish uchun veb-saytlar orqali bolalarga spam xabarlarini yuborishadi. Bu bilan bog'liq holda foydalanuvchining roziligi va bunga qanday erishish mumkinligi to'g'risida savol tug'iladi. Bu sohada qonunchilik mukammal emas va bolalar hamda yoshlar ma'lumotlarni uzatish jarayonini qachon tushunishlarini aniqlash juda qiyin. Tegishli normalarni Internetda qanday qo'llash to'g'risidagi masalasining o'zi yetarlicha murakkab, mobil telefondan foydalanish mumkinligi esa muammoni yanada kuchaytiradi.
- Nomaqbul aloqalar, ayniqsa kattalar o'zini boshqalar nomidan ish ko'rgan yoki o'zlarini bolalar yoki yoshlar sifatida ko'rsatishgan hollarda.

Xulq-atvor

- Jismoniy zarar yetkazish xavfiga olib keladigan shaxsga doir axborotni oshkor qilish.
- Internetda tanishgan shaxslar bilan haqiqatda uchrashuvlar paytida jismoniy zarar yetkazish, shu jumladan yuz berishi mumkin bo'lgan jismoniy va jinsiy zo'ravonlik.
- "Seksting - bu shahvoniy shilqimlik, shahvoniy tovlamachilik, gruming yoki tasvirdan foydalanishga olib kelishi mumkin bo'lgan intim fotosuratlarini yuborish."⁵⁷

Seksting

"Seksting" (mobil telefonlar yordamida shahvoniy xarakterdagi xabarlar yoki rasmlarni yuborish) o'smirlar orasida keng tarqalgan amaliyotdir. Bunday fotosuratlar va xabarlar bilan ko'pincha o'zaro munosabatlari bo'lgan odamlar yoki potensial sheriklar almashishadi, lekin ba'zida bunday kontent ancha kengroq auditoriya ko'rishini uchun qo'yiladi. Ko'pchilik yoshlar bunday harakatlarning ehtimoliy oqibatlarini va ular bilan bog'liq potensial xavf-xatarlarni yetarli darajada baholay olmaydilar, degan fikr mavjud⁵⁸.

⁵⁵ UNICEF (2013), *State of the World's Children Report: Children with Disabilities*, https://www.unicef.org/publications/files/sowc2013_exec_summary_eng_lo_res_24_apr_2013.pdf.

⁵⁶ Mueller-Johnson, Eisner and Obsuth (2014), *Sexual Victimization of Youth With a Physical Disability: An Examination of Prevalence Rates, and Risk and Protective Factors*, <http://journals.sagepub.com/doi/10.1177/0886260514534529>

⁵⁷ Lanzarote Committee (2019), *Opinion on child sexually suggestive or explicit images and/or videos generated, shared and received by children*, <https://rm.coe.int/opinion-of-the-lanzarote-committee-on-child-sexually-suggestive-or-exp/168094e72c>

⁵⁸ UNICEF (2011), *Child Safety Online: Global Challenges and Strategies*, http://www.unicef.it/allegati/child_safety_online_1.pdf.

Seksting bilan bog'liq jiddiy xavotir shundan iboratki, bolalar va yoshlar bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'molliklar bilan bog'liq noqonuniy materiallarni yaratishi mumkin, bu jiddiy huquqiy javobgarlikka olib kelishi mumkin. Bunday xavf-xatarlarga quyidagilar kiradi:

- Muayyan yoshdagi yoki ma'lum qiziqishlarga ega bo'lgan odamlar uchun mahsulotlarni targ'ib qilish uchun veb-saytlar orqali kompaniyalar tomonidan spam va reklamani manzilli jo'natish;
- Ekran oldida ko'p vaqt o'tkazish kabi sog'liq uchun xavfli xulq-atvor: sog'liq, ishonchli munosabatlarni qurish, ijtimoiy rivojlanish va umumiy farovonlik uchun muhim bo'lgan ijtimoiy chora-tadbirlar yoki faol dam olish turlariga zarar yetkazadigan Internet va/yoki onlayn o'yinlardan vasvasa holatida yoki ortiqcha foydalanish;
- Plagiat va Internetda kontent (ayniqsa fotosuratlar)ni ruxsatsiz joylashtirish orqali o'z huquqlarini yoki boshqalarning huquqlarini buzish. Ko'rsatilgandek, nomaqbul fotosuratlarini ruxsatsiz yuklab olish va Internetda joylashtirish boshqa odamlarga zarar yetkazishi mumkin;
- Boshqa odamlarning mualliflik huquqlariga rioya qilmaslik, masalan, haq to'lanishi kerak bo'lgan musiqa, filmlar yoki teledasturlarni Internetdan yuklab olish orqali;
- Shaxslarning yoshini noto'g'ri ko'rsatishi: bolaning yoshiga mos kelmaydigan veb-saytlarga kirish uchun o'zini bolaning o'zini kattaroq qilib ko'rsatishi yoki katta odamning o'zini boladek ko'rsatishi;
- Ota-onaning elektron pochtasidan ularning rozilgisiz foydalanish: ba'zi onlayn hisobga olish yozuvlarini faollashtirish uchun ota-onaning roziligi talab qilinadi, bu yozuvlarni ota-onalar faollashtirilgandan so'ng ularni o'chirish qiyin bo'lishi mumkin. Bolalar va yoshlar ota-onalardan ruxsat olmaslik uchun bu usuldan foydalanadilar.

2020-yilda "Bolalar onlayn muhitda" YEI tadqiqot tarmog'i tomonidan o'tkazilgan kuzatish doirasida bolalar va yoshlar yangi axborot vositalaridan qanday foydalanayotgani va kattalarning fikricha ular bunday vositalardan qanday foydalanishlari solishtirildi.⁵⁹ Shuningdek bolalar tasavvurida ularning raqamli muhitdagi huquqlarini qanday himoya qilinishi kerakligi mavzusida,⁶⁰ shuningdek, nogiron bolalarning raqamli muhit bilan o'zaro ta'sir ko'rsatish tajribasiga bag'ishlangan tadqiqot o'tkazildi.⁶¹

Internetda xavfsizlikni ta'minlash kampaniyasining asosiy maqsadi xulq-atvor modelini o'zgartirish, shu jumladan bolalar va yoshlarning onlayn muhitdagi yanada xavfsiz xulq-atvorini, shuningdek ota-onalar va bolalar bilan muloqotda bo'ladigan boshqa shaxslar (qarindoshlar, o'qituvchilar va h.)ning samarali ishtirokini rag'batlantirish hisobiga o'zgartirish.

Bolalar va yoshlarning internetdagi xavfsizligiga alohida muammo sifatida emas, balki bolalar va yoshlar, ularning xavfsizligi va internet bilan bog'liq turli tashabbuslar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan masala sifatida qarash kerak.

⁵⁹ Smahel, D., Machackova, H., Mascheroni, G., Dedkova, L., Staksrud, E., Ólafsson, K., Livingstone, S., and Hasebrink, U. (2020). *EU Kids Online 2020: Survey results from 19 countries*. EU Kids Online, <http://www.lse.ac.uk/media-and-communications/assets/documents/research/eu-kids-online/reports/EU-Kids-Online-2020-10Feb2020.pdf>.

⁶⁰ Council of Europe (2017), *It is Our World: Children's Views on How to Protect Their Rights in the Digital World*, <https://rm.coe.int/it-s-our-world-children-s-views-on-how-to-protect-their-rights-in-the-1680765dff>.

⁶¹ Lundy et al. (2019), *TWO CLICKS FORWARD AND ONE CLICK BACK: Report on children with disabilities in the digital environment*, <https://rm.coe.int/two-clicks-forward-and-one-click-back-report-on-children-with-disabili/168098bd0f>.

7 Ota-onalar va vasiylarning roli

Ota-onalar bolalar va yoshlar texnologiyalarning afzalliklaridan xavfsiz foydalanishlari uchun ularni qo'llab-quvvatlashlari kerak. Ular muvozanatli yondashishlari va Internet taqdim etayotgan imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olishlari kerak. Ko'pincha ota-onalar ko'plab onlayn ta'lim resurslari va ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlariga e'tibor qaratadilar, lekin ular shuni ham bilishlari kerakki, Internet bolalarga bir qator ijtimoiy rivojlanish imkoniyatlarini beradi - masalan, o'yinlar yoki bolalarning shaxsiy sevimli mashg'ulotlari Internetdan foydalanish uchun asosiy motivatsiya bo'ladi. Agar ota-onalar buni tushunsa, ular o'z bolalari bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishlari va ularni yaxshiroq qo'llab-quvvatlashlari mumkin. Bolalar va yoshlarning veb-saytlardan xavfsizroq va mas'uliyatli foydalanishlari uchun ota-onalar va vasiylar quyidagilar zarurligini hisobga olishlari kerak:

1. Bolalar va yoshlar uchun onlayn muhitdagi mavjud xavf-xatarlar va imkoniyatlar haqida bilib olish. Bolalar duch kelishi mumkin bo'lgan potensial tahdidlarni ajrata bilish juda muhim, ammo xavf-xatarlarning mavjudligi har doim ham zarar keltirishini anglatmasligini esda tutish kerak.
2. Bolalar internetda nima qilayotgani, ular qanday turdagi kontentni tomosha qilishlari, jo'natishlari yoki yaratishlari, qanday xizmatlar va platformalardan foydalanishlari, qanday o'yinlar o'ynashlari va qanday odamlar bilan muloqot qilishlari bilan faol qiziqish kerak. Ota-onalar o'zlari ham bolalari foydalanadigan xizmatlardan foydalanib ko'rishlari foydalidir.
3. Ota-onalar bolalari bilan foydalanishi mumkin bo'lgan qanday yaxshi ta'lim beruvchi va ko'ngilochar veb-saytlar va o'yinlar borligini ko'rib chiqishlari kerak. Yaxshi veb-sayt yoki o'yin bolalar va yoshlar hamda ularning ota-onalari/vasiylari uchun tushunarli bo'lgan havolalar, shikoyat qilish mexanizmlari va qo'llanmali xavfsizlik masalalariga bag'ishlangan alohida sahifasiga ega bo'lishi bilan farqlanadi.
4. Bolalar va yoshlar bilan ularning yoshiga mos keladigan va vaqt o'tishi bilan o'zgarishi kerak bo'lgan mavzularda muntazam, samimiy va ochiq muloqotni davom ettirish.
 - a. Bolalar va yoshlar o'zlari duch kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tushunishlariga ishonch hosil qiling va ular haqiqiy xavf tug'ilganda qanday harakatlar qilishlari haqida kelishib oling, masalan, ular bu haqda sizga aytib berishlari kerakligi to'g'risida.
 - b. Bolalar va yoshlarni insofli raqamli fuqaro sifatida o'zini qanday tutish kerakligi, xususan, o'zlari va boshqalar haqida qanday axborot bilan bo'lishishlari haqida o'ylashga undab, ularda ijobiy onlayn xulq-atvorning ijobiy modelini shakllantirishga yordam bering.
 - c. Bolalarga Internetda ko'rgan narsasi haqida tanqidiy munosabatda bo'lishni o'rgating, hamma ham ular aytganidek emasligi yoki ular ko'rgan narsa noto'g'ri bo'lishi mumkinligi haqida gapiring. Tarmoqda odamlar o'zining ideal obrazini yaratishlari mumkinligi, shuningdek odamlar bilan manipulyatsiya qilishga qaratilgan soxta yangiliklar haqida gapirib bering.
 - d. Bolalar bilan tengdoshlari tomonidan bosim o'tkazilishi va jamoaga qabul qilinmaslikdan qo'rqish muammosini, shuningdek, Internetda do'stona munosabatlarni o'rnatish masalasini muhokama qiling.
 - e. O'ziga tobelikni keltirib chiqaruvchi va immersiv texnologiyalar, ayniqsa bepul platformalarda taqdim etilgan texnologiyalarni bolalar bilan muhokama qiling, ular onlaynda o'tkazadigan vaqtlari va ular bo'lishadigan ma'lumotlar valyuta yoki biznes-model asosidir.
5. Bola qachon va kimdan yordam so'rashini bilishiga ishonch hosil qiling. Bu ularning ota-onasi yoki vasiysi, o'qituvchisi yoki ular ishonadigan boshqa katta odam bo'lishi mumkin. Har qanday noxush onlayn voqea sodir bo'lgan holda, bolalar buni o'zlari ishonadigan katta odam bilan buni muhokama qilishlari kerakligi haqidagi qoida to'g'risida kelishib olish kerak.

6. Butun oila uchun Internetga ulangan qurilmalardan foydalanish qoidalarini belgilash va bolalar o'zlarining onlayn muhitdagi xatti-harakatlarida ota-onalari yoki vasiylaridan o'rnatilgan vositalarini esda tutish.
7. Bolalarni muvozanatlangan "raqamli parhez" tutish choralarini ko'rish, ya'ni ular faoliyatning har xil turlari, jumladan, o'rganish, yaratish va ijobiy tarzda muloqot qilish bilan shug'ullanib, Internetda o'z vaqtlarini mazmunli o'tkazish choralarini ko'rish. Turli ilovalar va xizmatlarga sarflanadigan vaqt miqdori bo'yicha statistikani kuzatish uchun o'rnatilgan vositalardan foydalanish.
8. Qurilmalardan ishonchli foydalanish va o'z bolalarini o'rgatish. Ota-onalarga uyda hamda undan tashqarida tarmoqqa ulangan qurilmalarni boshqarishda yordam beradigan bir qator vositalar mavjud.
 - a. Nafaqat ma'lum smartfonlar, planshetlar va shaxsiy kompyuterlarni, balki Internetga ulangan barcha qurilmalarni hisobga olish kerak. O'yin pristavkalari, shaxsiy yordamchilar, internetga ulangan televizorlar va internetga ulangan boshqa qurilmalarga e'tibor bering.
 - b. Bolalar va yoshlar qaysi kontent, o'yinlar, ilovalar va xizmatlardan foydalanishlari mumkinligini tanlashda yosh chegaralarini hisobga oling. Shuni e'tiborga olingki, ilovalar do'konlari va platformalarning o'zidagi yosh chegaralari farqlanishi mumkin. Sozlamalar yordamida qaysi ilovalar va o'yinlarni yuklab olish va ulardan foydalanishga ruxsat berilganligini nazorat qilishingiz mumkin.
 - c. Bolalar va yoshlar onlayn ko'rishi mumkin bo'lgan kontentni filtrlash uchun ko'pincha ota-ona nazorati deb ataladigan kontent-filtrlari va xavfsiz qidiruv tizimlari yoki kirish cheklovlaridan foydalanish imkoniyatini ko'rib chiqing.
 - d. Ota-onalar sifatida siz bolalaringizni xafa qiladigan, bezovta qiladigan yoki chalkashtirib yuboradigan yoki ularning fikricha foydalanish shartlarini buzayotgan deb hisoblaydigan u yoki bu kontent ustidan qanday va qachon shikoyat qilish kerakligini tushunishingiz kerak. Siz nomaqbul yoki so'ralmagan kontaktlarni qanday bloklashni bilishingiz kerak.
 - e. Bolaning internetdagi xatti-harakatlarini kuzatuvchi monitoring ilovalari va texnologiyalardan foydalanishning ijobiy va salbiy tomonlarini diqqat bilan ko'rib chiqing. Ulardan foydalanishning nojo'ya ta'siri yanada yashirin onlayn xatti-harakatlar bo'lishi mumkin va bu oiladagi nizolarga, shu jumladan zo'ravonliklarga olib kelishi mumkin. Agar siz ulardan shunda ham foydalansangiz, bolangizga aynan nimani va nima uchun kuzatayotganingizni tushuntiring.
 - f. Bolalar va yoshlar ulg'ayib, rivojlanib borar ekan, Internetga kirishni boshqarish vositalari va cheklovlar yoshga mos ravishda o'zgartirilishi kerak; Bolalaringiz onlayn muhitdan to'liq foydalana olishlari uchun ularda chidamlilikni shakllantirish muhimdir.
9. Bolalarga o'z foydalana olish parollarini do'stlari yoki aka-ukalari va opa-singillariga aytish mumkin emasligini tushuntiring. Ular o'zlarining shaxsiy axborotini qachon va qayerda xabar qilayotganlariga e'tibor bering - masalan, umumiy profilda shaxsiylashtirilmagan tasvirlardan profil tasviri sifatida foydalanish to'g'ri va yoshi, maktabi va yashash joyi kabi shaxsiy ma'lumotlarning minimal miqdorini ko'rsatish.
10. Internetdagi hamma sizning farzandingizga zarar yetkazmoqchi deb o'ylamang. Bolalar veb-saytlari odatda xavfsiz bo'ladi va farzandingiz uchun ijodiy ijtimoiylashuv va o'rganish uchun ajoyib imkoniyatlarni taqdim etadi, ammo siz bunda ishtirok etishingiz va hushyor bo'lishingiz kerak.
11. Farzandingizning xulq-atvorida yoki uning onlayn do'stlaridan birining xatti-harakatlari sizni bezovta qiladigan nimanidir eshitgan yoki ko'rgan bo'lsangiz, xotirjam bo'ling va shoshilinch xulosa chiqarmang. Bolani qurilmadan qutulish yoki ularni olib qo'yish choralarini bilan qo'rqitmang chunki ba'zi yoshlar uchun ular ijtimoiylashuvning eng muhim vositalaridir. Agar bolalaringiz o'z qurilmalari olib qo'yilishidan qo'rqasalar,

ehtimol ular sizga o'z muammolari va kechinmalari haqida ehtimol kamroq aytib beradilar.

12. Qiyinchiliklarga dosh berish va xulosa chiqarish qobiliyati raqamli muhit ta'siriga barqarorlikni shakllantirishning muhim elementidir. Bolalar onlayn muhitda xavf-xatarlarga duch kelganda yoki ularga zarar keltirilsa, ota-onalar ularni ajratishdan ko'ra imkoni boricha onlayn muhit afzalliklaridan xavfsiz tarzda foydalanishlari uchun ularga bu vaziyat yengish yo'llarini topishda yordam berishlari mumkin.

Yordam uchun qayerga murojaat qilish kerak?

Ko'pgina mamlakatlarda bolalar va yoshlar muammo haqida xabar berishlari mumkin bo'lgan yordam berish xizmatlari mavjud. Ularning faoliyati keng yoritiladi va turli mamlakatlarda tegishli xabarni yetkazish uchun turlicha yondashuvlardan foydalaniladi. Bolalar va yoshlar muammo haqida xabar berish hech qachon kech emasligini va bu orqali ular boshqalarga yordam berishlarini tushunishlari muhimdir.

Garchi bolalar va yoshlar ba'zan o'zlarini xavfli tutishlarini bilishsa-da, ular bunday xatti-harakatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar haqida ko'p tashvishlanmaydilar va muammolarni mustaqil ravishda yoki tengdoshlari bilan hal qilishni afzal ko'rishadi. Shu tariqa ular faqat potensial "kritik" muammolar yuzaga kelganda yordam uchun ota-onalarga yoki boshqa kattalarga murojaat qilishadi. Bunday yondashuv ayniqsa katta yoshli o'g'il bolalar orasida keng tarqalgan, ular ota-onalarga yoki boshqa kattalarga nima bo'lganini aytib berishdan ko'ra, odatda faqat "Shikoyat qilish" tugmasidan (masalan, Virtual Global Task Force tomonidan ishlab chiqilgan) foydalanishni afzal ko'radilar⁶². Shunga qaramasdan bu barcha bolalar va yoshlarga taalluqli emas. Biz xavf-xatarlardan xabardor bo'lgan bolalar va yoshlar o'z harakatlarini kuzatib borishlarini ko'ramiz, lekin ko'pincha bolalar va yoshlarning xatti-harakatlarini baholash va monitoring qilishda asosiy rol ota-onalarga tegishli bo'lishi kerakligini ko'rsatadigan yangi texnologiyalarga nisbatan bir xil nuqtayi nazarga ega emaslar.⁶³ Real va onlayn dunyo o'rtasidagi oddiy farqlarni qo'yishda ehtiyot bo'lish kerak, chunki bizning kundalik hayotimiz tobora onlayn texnologiyalarga bog'liq bo'lib bormoqda. Bu shuni anglatadiki, ko'plab bolalar va yoshlar texnologiyalar taqdim etayotgan imkoniyatlar (masalan, o'z individualligini ochish, yaqin munosabatlar o'rnatish va yanada faolroq muloqot qilish) va Internetdagi kommunikatsiyalar bilan bog'liq xavf-xatarlar (shaxsiy hayotning daxlsizligi, yaxshi tushunmaslik va yomon amaliyotlar bilan bog'liq) o'rtasidagi nozik muvozanatni qidirishga to'g'ri keladi.⁶⁴

Ota-onalar va o'qituvchilar bilishlari kerakki, agar ular bolaning Internetda shahvoniy suiiste'mollikka uchraganini gumon qilsalar, yomon niyatli shaxsni blokirovka qilish va yozishmalarni esa dalil sifatida saqlab qo'yish kerak. Ota-onalar, har qanday holatda ham o'zlarining yoki boshqa bolalar tomonidan olingan shahvoniy xarakterdagi tasvirlarni ko'rmasliklari kerak. Ushbu materiallarni huquqni muhofaza qilish organlariga topshirish va Internetda bolalarning shahvoniy suiistemolliklar yoki ularning jinsiy ekspluatatsiyasi haqida tegishli idoraga xabar berish kerak. Ota-onalar hech qachon o'z bolalari nomidan suiiste'mollik faktini "isbotlash" uchun aloqa chiqmasliklari kerak.

⁶² Europol (2019), *2019 Virtual Global Taskforce Releases Environmental Scan*, <https://www.europol.europa.eu/newsroom/news/2019-virtual-global-taskforce-releases-environmental-scan>.

⁶³ Manida Naebklang (2019), *Report of the World Congress III against Sexual Exploitation of Children & Adolescents*, https://www.ecpat.org/wp-content/uploads/legacy/ECPATWCIIIReport_FINAL.pdf.

⁶⁴ Livingstone (2008), *Taking Risky Opportunities in Youthful Content Creation: Teenagers' Use of Social Networking Sites for Intimacy, Privacy and Self-Expression*, <http://journals.sagepub.com/doi/10.1177/1461444808089415> (last visited 16 January 2020).

Bolalarning shahvoniy xarakterdagi fotosuratlari haqida qanday xabar berish haqida qo'shimcha axborot quyida keltirilgan:

- Internetni kuzatish fondi – <https://www.iwf.org.uk/>.

- Yo'qolgan va ekspluatatsiya qilinayotgan bolalarga yordam berish milliy markazi – <https://report.cybertip.org/>.

- Yevropol – <https://www.europol.europa.eu/report-a-crime/law-enforcement-reporting-channels-child-sexual-coercion-and-extortion>.

8 Ota-onalar va vasiylar uchun rahbariy ko'rsatmalar

Xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha maslahatlar to'plangan ma'lumotlar tahlili va mavjud tadqiqot natijalariga asosida tayyorlangan. Hisobotning ushbu bo'limida bolalar va yoshlarga qanday qilib o'z xavfsizligini ta'minlash hamda onlayn muhitda ijobiy va qimmatli tajribaga ega bo'lishga o'rgatadigan ota-onalar va vasiylar (o'qituvchilar uchun alohida sanab o'tilgan) uchun tavsiyalar taklif etiladi.

Ota-onalar va vasiylar bolalari uchun qanday sharoitlar eng mos kelishi to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin turli saytlarning xarakteri, o'z bolalarining xavf-xatarlarni tushunishlari darajasini va ota-onalar tegishli xavf-xavflarni kamaytirishga yordam berish ehtimolini aniq baholashlari kerak.

Internet bolalar va yoshlarga ularni qiziqtirgan materiallarni topish imkonini beradigan katta imkoniyatlarga ega. Asosiy maqsad ularni onlayn xatti-harakatlarning ijobiy va mas'uliyatli shakllariga o'rgatish. Quyidagi 1-jadvalda har bir masala bo'yicha ota-onalar va vasiylar e'tiborga olishlari kerak bo'lgan asosiy fikr-mulohazalar keltirilgan.

1-jadval: Ota-onalar va vasiylar e'tiborga olishi kerak bo'lgan asosiy fikr-mulohazalar

Ota-onalar va vasiylar			
	#	Asosiy fikr-mulohazalar	Tavsif
Texnologiyalar ingiz xavfsizligi va ishonchliligi	1	Bolalaringiz bilan suhbatlashing. Ular bilan birgalikda qandaydir onlayn faoliyatni tashkil qilishga harakat qiling.	<p>Ularning Internetda nima qilayotgani bilan qiziqing, bu haqda so'rang. Bolalar va yoshlar ota-onalari ularga ishonmasligini his qilmasliklari muhimdir. Filtrlarni sozlash, foydalana olishni kuzatish va cheklash muhim, lekin bu dialog va muhokama orqali bo'lishi kerak. Bolalar va yoshlar uydan tashqarida boshqa odamlar bilan vaqt o'tkazishganda, ular boshqa (ehtimol internetdan foydalana olish cheklanmagan) qurilmalardan foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi, shuning uchun ishonchli muloqot katta ahamiyatga ega: biror narsa sodir bo'lsa, ular sizga aytishadimi? Bolalar va yoshlar sizga internetda yuz bergan noxush voqea haqida gapirganda, vazminlik bilan javob berish muhimdir. Eng muhimi, ular bu haqda sizga aytib berishdi va sizning xotirjam munosabatingiz ularning siz ularga yordam bera olasiz degan fikrini mustahkamlaydi, ya'ni agar bu yana takrorlansa, ular yana sizga murojaat qilishadi.</p> <p>Bolalar va yoshlar Instagram, Snapchat i YouTube kabi sevimli platformalari joylashgan "Internet maydoni" nima ekanligini yaxshiroq tushunishlari uchun internet nima ekanligini tushunishlari maqsadga muvofiqdir. Internet ko'pincha bolalar va yoshlar uchun qandaydir mavhum joy sifatida ko'rinadi va uning ishi haqida ma'lum bir tushunchaga ega bo'lmasdan, ular uchun xavflarni tushunish va ajratish, ularni tasavvur qilish qiyin bo'lishi mumkin. Ko'p go'zal joylari va yoqimtoy odamlari bo'lgan, ammo shu bilan birga xavfli bo'lgani uchun siz bormaydigan joylarga ega bo'lgan katta shaharga o'xshatish mumkin. Bu bolalar va yoshlarga Internetda uchratish mumkin bo'lgan turli xil "kontingent" to'g'risida, axborot qanday tarqalishi mumkinligi va h. haqida o'ylashga yordam beradi.</p> <p>Ota-onalar bolalarining Internetda nima bilan shug'ullanayotganiga qiziqishlari hamda ishonchli munosabatlar va ochiq dialogni qurish maqsadida uchun o'zlarining onlayn tajribalari to'g'risida gapirib berishga tayyor bo'lishlari kerak.</p>

Ota-onalar, vasiylar			
	#	Asosiy fikr-mulohazalar	Tavsif
	2	Oilangizda/uyingizda qanday texnologiyalar, qurilmalar va xizmatlardan foydalanilishini aniqlang.	Qurilmalardan boshlang: uyingizdagi qaysi qurilmalar, jumladan, mobil telefonlar, noutbuklar, planshetlar, shuningdek, "aqlli" televizorlar, o'yin pristavkalari va fitnes-trekerlar — oila a'zolaringiz foydalanadigan har qanday qurilmalar internetga ulanganligini aniqlang. Oila a'zolaringiz ushbu qurilmalar yordamida qanday onlayn xizmatlar va ilovalardan foydalanishini bilib oling.
	3	Barcha qurilmalarda brandmauer va antivirus dasturini o'rnating. Filtrlash, bloklash yoki kuzatish dasturlari oilangiz uchun foydali va to'g'ri kelish-kelmasligini ko'rib chiqing.	Barcha qurilmalaringizga antivirus va zararli dasturlardan himoya tizimini o'rnating va ularni muntazam yangilab turing. Bolalaringizga internet xavfsizligi asoslarini o'rgating. Masalan, operatsion tizim yangilanganmi? Ilovaning eng oxirgi formatidan foydalanilyaptimi? Xavfsizlik tizimlari uchun oxirgi yangilanishlar o'rnatilganmi? Filtrlash va kuzatish dasturlari juda samarali, ammo ulardan foydalanishda ishonch va shaxsiy hayotning daxlsizligi masalalari hisobga olinishi kerak. Ota-onalar bolalariga oila xavfsizligini ta'minlash uchun ushbu dasturlardan foydalanayotganlarini tushuntirishlari kerak.
Qoidalar	4	Oila davrasida internet va shaxsiy qurilmalardan foydalanish shartlari to'g'risida kelishib oling, bunda konfidensiallik, saytlar, ilovalar va o'yinlar mazmunidagi yoshga mos kontent, ta'qib, ekran oldida o'tkaziladigan vaqt miqdori va notanish odamlar tomonidan bo'ladigan xavf-xatarga e'tibor qaratish kerak. Bundan tashqari bolalar va yoshlar ota-onalari/vasiylariga yordam so'rab murojaat qilishlari mumkinligini bilishlari uchun uyda qulay muhit yarating.	<p>Bolalar va yoshlar texnologiyadan foydalanishni boshlaganlarida, ular bilan umumiy qoidalarni muhokama qiling va ishlab chiqing. Ushbu qoidalar bolalar va yoshlarga qachon va qanday qilib Internetdan foydalanishga ruxsat berilishini, shuningdek, ular ekran oldida qancha vaqt o'tkazishi mumkinligini belgilashi kerak.</p> <p>Raqamli muhitda o'zini tutish namunasi: ota-onalar o'z bolalariga yaxshi o'rnak bo'lishlari muhimdir. Agar ko'z oldida ota-onalari / vasiylarining munosib namunasi bo'lsa, bolalar to'g'ri xatti-harakatlar modelini tezroq shakllantiradilar.</p> <p>Xuddi shu mantiqni fotosuratga olish va rasmlarni Internetga joylashtirishga nisbatan ham qo'llash mumkin: rasmlarni Internetga joylashtirishdan oldin rozilik olish kerak. Ota-onalar o'z bolalari haqida ijtimoiy tarmoqlarda va umuman Internetda qanday ma'lumotlar bilan bo'lishayotganlariga e'tibor berishlari kerak, xususan, bu bolalar haqidagi shaxsiy hikoyalar yoki ularning fotosuratlariga tegishli. Farzandingizning shaxsiy hayotining daxlsizligiga hozir hamda istiqbolda ham e'tibor bering.</p> <p>Bolalar va yoshlarda onlayn muhitda (va real hayotda) duch keladigan har qanday qiyinchilik va muammolarni muhokama qilish imkoniyatlari bo'lishi kerak. Bunday muhokamani boshlash usullaridan biri - Internetdagi u yoki bu xatti-harakatlar haqida gap ketayotgan ommaviy axborot vositalaridagi yangiliklardan misol olish. Bu muammoni shaxsiyatsizlashtiradi hamda bolalar va yoshlarga o'z nuqtayi nazarini bildirish imkonini beradi.</p>

Ota-onalar, vasiylar			
	#	Asosiy fikr-mulohazalar	Tavsif
Ota-onalar va vasiylarni o'qitish	5	Bolalaringiz qanday onlayn va mobil xizmatlar (ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, ilovalar, o'yinlar va h.k.)dan foydalanayotganidan va bolalaringiz internetda qanday vaqt o'tkazishidan xabardor bo'ling.	<p>Ilovalar va platformalardan foydalanishda, jumladan, hisob maxfiylik sozlamalari, yosh cheklovlari va h. orqali bolalar va yoshlar xavfsizligining minimal darajasini ta'minlash masalasini o'rganing.</p> <p>Family Link va boshqa ota-ona nazorati vositalari kabi mobil qurilma vositalaridan foydalaning. Qandaydir mahsulotlar sotuvga chiqarilganligini va ilovalarda xaridlar qilish mumkinligini tekshiring</p> <p>Bolalar va yoshlarning onlayn muhitdagi xatti-harakatlari ortida turgan motivatsiyani tushunishga harakat qiling. Nima uchun ular ma'lum veb-saytlar va xizmatlardan foydalanadilar? Turli veb-saytlar va xizmatlar ularga do'stlar bilan muloqot qilish, o'zini identifikatsiya qilish va tegishlilik hissi nuqtayi nazaridan nima beradi? Bu narsalarni tushunish, shuningdek, bolalar va yoshlar qanday ijtimoiy va emotsional muammolarga (ba'zida xavfli xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin) duch kelishi mumkinligini yaxshiroq tushunishga yordam beradi va siz ularga chidamlilikni ruhini rivojlantirish bo'yicha maslahat berishingiz mumkin.</p>
Internet saytlari imkoniyatlarini arhi	6	"Raqamli rozilik" yoshiga e'tibor bering	<p>Ba'zi mamlakatlarda kompaniyalar yoki veb-saytlar ota-onalarning tasdiqlangan roziligisiz yoshlardan shaxsiga doir ma'lumotlarni taqdim etishlarini so'rashi mumkin bo'lgan minimal yoshni belgilaydigan qonunlar amal qiladi. "Raqamli rozilik" yoshi odatda 13 yoshdan 16 yoshgacha.</p> <p>Ba'zi mamlakatlarda yoshlardan shaxsiga doir ma'lumotlarni so'rashdan oldin ota-onalarning roziligini talab qilish amaliyoti tavsiyaviy xarakterga ega bo'lsa, boshqalarida bu qonun darajasida mustahkamlangan (YEIning ma'lumotlarni muhofaza qilish umumiy reglamentining (GDPR) 8-moddasiga qar.). Kichik yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan ko'plab veb-saytlar yangi foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish uchun ota-onalarning roziligini talab qiladi. Har bir xizmat uchun miinimal yoshga qo'yiladigan talablar borligini tekshiring.</p>

Ota-onalar, vasiylar			
	#	Asosiy fikr-mulohazalar	Tavsif
	7	Kredit kartalari va boshqa to'lov mexanizmlaridan foydalanishni nazorat qiling	Xarid qilish va to'lov mexanizmlari hamda kredit karta ma'lumotlarini o'z ichiga olgan ota-onalarning hisoblariga kirishni qat'iy nazorat qilish imkonini beruvchi ko'plab qurilmalar, ilovalar va xizmatlar mavjud. Kredit va debet kartalaringiz ma'lumotlarini saqlash va ulardan ruxsatsiz foydalanishning oldini olish uchun pin-kodlaringizni hech kimga bermaslik muhimdir.
	8	Shikoyat qilish mexanizmlari	Bolalaringiz foydalanadigan platformalardagi muammolar haqida xabar berish va profilni qanday o'chirish yoki undagi axborotni o'zgartirish va bolalaringiz ulg'aygani sari ular ham buni qila olishlariga ishonch hosil qiling. Bundan tashqari shikoyat qilish mumkin bo'lgan qanday mahalliy "yordam liniyalari"ga murojaat qilishingiz mumkinligini aniqlang.
	9	Reklama, ishonchli bo'lmagan axborot va dezinformatsiya	Shuni yodda tutish kerakki, reklamalar nomaqbul mazmunga ega bo'lishi yoki chalg'itishi mumkin. Bolalaringizga qanday qilib reklamalar ustidan shikoyat qilishlari va ularga qanday kontent ko'rsatilishini nazorat qilishlari mumkinligini ayting. Shuni tushunish kerakki, bolalar va yoshlarning Internetda ko'rgan hamma narsasi ularning qarashlariga ta'sir qilishi mumkin. Ularning media va axborot savodxonligini oshirishga yordam bering.

Ota-onalar va vasiylar			
	#	Asosiy fikr-mulohazalar	Tavsif
Bolalarni o'qitish	10	Qo'llab-quvvatlash muhitini yarating	<p>Bolalar va yoshlar onlayn muhit real hayotning aksi ekanligini tushunishlari kerak ya'ni unda yaxshi narsa hamda yomoni ham bor. Bolalar va yoshlar biror narsa yuz bersa, har doim yordam va ko'mak so'rab sizga murojaat qilishlari va o'zlari internetda kimgadir yordam ko'rsatishlari mumkinligini bilishlari muhim.</p> <p>Bolalarning yoshiga qarab, ular internetda qanday kontentni joylashtirgani va onlayn profillarida qanday ma'lumotlarni taqdim etishi bilan qiziqishi mantiqan to'g'ri bo'lishi mumkin.</p> <p>Bolalar va yoshlar onlayn xavf-xatarlarni ajrata olishlari kerak - ulardan ba'zilarini tushunsa bo'ladi, ammo boshqalar unchalik aniq emas - majburlash, shantaj, ommaviy masxara qilish kabi harakatlar. Ushbu usullardan ko'pincha yomon niyatli shaxslar va jinoyatchilar foydalanadilar.</p> <p>Bolalar va yoshlar ham internetdan foydalana olish muayyan mas'uliyat ekanligini tushunishlari kerak. Ular qonunlar nafaqat real hayotda, balki onlayn muhitda ham amal qilishini va ular o'zlarini to'g'ri tutishlari kerakligini bilishlari kerak.</p>
	11	Bolalar va yoshlar onlayn dunyo haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi bilan ular real hayotda tanimagan, lekin internet orqali aloqada bo'lgan odamlar bilan uchrashishni xohlashlari mumkin. Siz ularga Internet orqali muloqot qiladigan notanish odamlar bilan uchrashish xavfini tushuntirishingiz kerak.	<p>Bolalar va yoshlar, agar ular faqat Internetda muloqot qilgan notanish odamlar bilan yuzma-yuz uchrashishni tanlasa, ular haqiqiy xavf ostida bo'lishi mumkin. Internetdagi odamlar ular aytganidek bo'lmasligi mumkin. Ammo, agar kuchli onlayn do'stlik shakllangan bo'lsa va farzandingiz uchrashuv tashkil etishga tayyor bo'lsa, ularning yolg'iz yoki hamrohsiz ketishiga yo'l qo'ymang, balki ular bilan birga borishni xohlayotganingizni bildiring yoki siz ular bilan borishni xohlaysiz ularda boshqa kattalar borligiga ishonch hosil qiling. Albatta, barchasi bolaning yoshiga bog'liq.</p> <p>Qolaversa, jismoniy aloqasiz jinoyat sodir etish holatlari so'nggi paytlarda ko'payganini, bunda jinoyatchilar va yomon niyatli shaxslarning maqsadi bola bilan uchrashish emas, balki undan shahvoniy mazmundagi materiallarni olish bo'lganligini hisobga olish zarur.</p>
	12	Shaxsiy axborotning muhimligi	<p>Bolalaringizga shaxsga doir axborot nima ekanligini va ularni qanday boshqarish kerakligini ayting. Bolalar va yoshlarga ular faqat siz va ularning fikriga ko'ra begonalar ko'rishi kerak bo'lgan axborot bilan bo'lishish kerakligini tushuntiring. Ular shaxsini aniqlash imkonini beradigan axborot bilan bo'lishmasligi kerak. Bolalar va yoshlarga ularning saqlash kerak bo'lgan onlayn obro'si haqida esating. Kontent e'lon qilindandan so'ng, uni o'zgartirish yoki tuzatish qiyin bo'lishi mumkin.</p>

Ota-onalar, vasiylar			
	#	Asosiy fikr-mulohazalar	Tavsif
Bolalarni o'qitish	13	Bolalar va yoshlar Internetdagi fotosuratlar, jumladan, o'zlarining fotosuratlari va do'stlarining fotosuratlarini joylashtirish nimani anglatishini tushunishlariga ishonch hosil qiling.	Bolalaringizga fotosuratlar ko'plab shaxsga doir axborotni ochib berishi mumkinligini tushuntiring. Bolalar va yoshlar kameralardan foydalanish va kontentni e'lon qilish bilan bog'liq xavflarni tushunishlari kerak. Boshqa odamlarning fotosuratlari ularning roziligisiz joylashtirilmasligi ma'qul. Bu, shuningdek, o'z bolalarini suratga oladigan va joylashtiradigan ota-onalarga ham tegishli. Bundan tashqari, bolalar va yoshlar ba'zida do'stlari yoki oila a'zolari ma'lumotni oshkor qilishlari mumkinligini tushunishlari muhim, shuning uchun ular do'stlari va oila a'zolari bilan bu haqda gaplashishlari va ularni haddan tashqari oshkor qilish xavfi haqida gapirib berishlari kerak. Bolalaringizni ko'cha belgilari, avtomobil raqamlari yoki kiyimlarga tushirilgan maktab nomi kabi osongina aniqlash mumkin bo'lgan elementlari bo'lgan o'zlarining yoki do'stlarining fotosuratlarini joylashtirmasliklarini tavsiya qiling.

9 O'qituvchilarning roli

O'qituvchilar bolalar va yoshlarning Internetda xavfsizlikni ta'minlash masalalari haqida bilishi yoki bilmasligi haqida hech qanday taxmin qilmasliklari juda muhim, masalan, o'qituvchilarning muhim roli bolalar va yoshlarga parollarning ahamiyati va ularni saqlanishini ta'minlash hamda ishonchli parolni qanday yaratish kerakligini tushuntirishdan iborat: ko'p o'smirlar parollarini bir-birlari beradilar - bu ko'pincha haqiqiy do'stlik belgisi sifatida hisoblanadi.

Bolalar va yoshlarning internetda shaxsiy hayotining daxlsizligi qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda va London iqtisodiyot maktabi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, bolalar va yoshlar o'zlarining shaxsiy hayotining daxlsizligiga jiddiy qaraydilar va himoya choralarini ko'radilar, ammo shu bilan birga ular onlayn o'zaro muloqot imkoniyatlarini yuqori baholaydilar. Bundan tashqari, tadqiqotda aniqlanishicha, "ota-onalarning ko'maklashuvchi vositachiligi" bolalar va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega, chunki bu ularga xavfsiz xulq-atvorning mustaqil strategiyalarini o'rganish jarayonida ba'zi xavf-xatarlar bilan ishlash va ayni damda xavfsiz xulq-atvorning mustaqil staretegiyalarini o'rganish imkonini beradi. Shuningdek aytilishicha, "ota-onalar, o'qituvchilar va bolalarni qo'llab-quvvatlovchi xodimlar uchun uchun media-axborot savodxonligini rivojlantirish resurslari va o'qituvchi dasturlarni ishlab chiqish kerak, chunki dalillar kattalarning bolalar va yoshlar duch keladigan xavf-xatarlar hamda ular ma'lumotlarini va shaxsy hayot daxlsizligini himoya qilish haqidagi bilimlarida sezilarli bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatmoqda".

65

Maktablarda o'quvchilarga o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarish va AKT sohasidagi ta'lim standartlarini oshirish uchun o'quv dasturlarini o'zgartirish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, bolalar va yoshlar ushbu yangi texnologiyalardan, xususan, samarali va ijodiy ijtimoiy ta'limning muhim elementi bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar platformalari va xizmatlari kabi keng o'zaro hamkorlik texnologiyalardan xavfsiz foydalanishni o'rganishlari ham muhimdir. Bugungi kunda bolalar va yoshlar bemalol o'z kontentini yaratishi va u bilan ko'pchiligi to'g'ridan-to'g'ri namoyish qiluvchi ijtimoiy tarmoqlarning platformalari orqali keng auditoriya bilan bo'lishishlari mumkin.

O'qituvchilar bolalar va yoshlarga texnologiyalardan quyidagi yo'llar orqali oqilona va xavfsiz foydalanishga yordam berishlari mumkin:

- maktablarda qat'iy qoidalar va protseduralar to'plami qabul qilinishini va ularning samaradorligi muntazam ravishda ko'rib chiqilishi va baholanishi ta'minlash.
- raqamli fuqarolik bo'yicha ta'lim fanlarini o'quv rejalariga kiritish orqali raqamli ko'nikmalar va raqamli savodxonlikni shakllantirishga ko'maklashish. Onlayn xavfsizlik fanlari doirasida o'qitishning ijtimoiy va emotsional jihatlariga e'tibor qaratish kerak, chunki bu o'quvchilarga o'z his-tuyg'ularini yaxshiroq tushunish va nazorat qilishga yordam beradi va natijada – onlayn muhitda hamda real hayotda sog'lom va hurmatli o'zaro munosabatlar o'rnatishga yordam beradi;
- qabul qilinadigan foydalana olish qoidalari (AUP) va ularga rioya qilish haqida hamma xabardor bo'lishini ta'minlash. AUP bo'lishi muhimdir va ular yoshga mos kelishi kerak;
- maktab amaliyotida ta'qibga qarshi, internetdagi ta'qibga va mobil telefonlar hamda boshqa qurilmalar orqali ta'qibga qarshi kurashish uchun qoidalarni belgilash, shuningdek buzilishlar uchun samarali jazolarni belgilash;
- onlayn xavfsizlik masalalari bo'yicha koordinatorni tayinlash;
- maktab tarmog'ining himoyalanganligi va ishonchliligini ta'minlash;


⁶⁵ Sonia Livingstone, Mariya Stoilova, and Rishita Nandagiri (2018), *Children's Data and Privacy Online: Growing up in a Digital Age*, <http://www.lse.ac.uk/media-and-communications/assets/documents/research/projects/childrens-privacy-online/Evidence-review-final.pdf>.

- rasmiy Internet-provayder xizmatlaridan foydalanish;
- filtrlash/monitoring uchun dasturiy mahsulotlardan foydalanish;
- barcha bolalar va yoshlar uchun onlayn xavfsizlik masalalari bo'yicha o'qitishni qayerda, qanday va qachon o'tkazilishini ko'rsatgan holda treninglar tashkil etish;
- barcha xodimlar (shu jumladan texnik xodimlar) tayyorgarligini yetarli darajasini, shuningdek ularning malakasini muntazam ravishda oshirishni ta'minlash;
- maktabda maxsus koordinatorni tayinlash va maktabda e'tiborni talab qiladigan muammolar va tendensiyalarning bir butun tasavvurini shakllantirish maqsadida onlayn xavfsizligi bilan bog'liq noxush hodisalarini hisobga olish va qayd etish imkoniyatini yaratish;
- ma'muriy-boshqaruv xodimlari va rahbarlarning maktabdagi onlayn xavfsizlik masalalaridan yetarli darajada xabardor bo'lishini ta'minlash choralarini ko'rish;
- onlayn xavfsizlik sohasidagi barcha choralarini muntazam tekshiruvini o'tkazish;
- Internet va onlayn texnologiyalarning bolalar va yoshlarning bilim olishi va ruhiy salomatligiga potensial ta'sirini hisobga olish;
- So'nggi yillarda bolalar va yoshlar tomonidan internet-texnologiyalardan foydalanish ko'rsatkichlari keskin ko'paymoqda va buning oqibatida onlayn muhitda xavfsizlik masalalari bilan bog'liq xavotirlar ham ortib bormoqda. Oldindan jamiyatni vaqti-vaqti bilan kommunikatsiya texnologiyalarining xavfliligi tufayli "ma'naviy vahima" to'lqini qamrab oladi – bu ayniqsa yosh ayollarga tegishli. Biroq ba'zilar ta'kidlashicha, bunday xavfni bevosita o'rganish xavfning manbai ko'pincha texnologiyaning o'zi emas, balki bolalar va yoshlar tomonidan ushbu texnologiyadan tobora ko'proq foydalanish, ota-ona boshqaruvdan mahrum bo'lish xavotiri ortishi bilan bog'liq degan xulosaga kelish imkonini beradi. O'qituvchilar internet xavfsizligi madaniyatini shakllantirish va singdirishda muhim rol o'ynaydi deb hisoblanadi. Dunyo bo'ylab ota-onalar maktab bolalar va yoshlarni texnologiyadan xavfsiz foydalanishni o'rgatishda katta rol o'ynashi kerak deb o'ylaydilar, ammo tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar va yoshlar onlayn muhitda duch keladigan muammolar haqida asosiy ma'lumot manbai nafaqat maktab, balki ota-onalar hamdir.⁶⁶ Tegishli o'qitishga kiritiladigan vakolatlar bo'yicha qo'shimcha tavsiyalar Yevropa Kengashining raqamli fuqarolikka bag'ishlangan ta'lim loyihasi doirasida taklif qilingan.⁶⁷

⁶⁶ Ofcom (2020), Children and Parents: Media Use and Attitudes Report 2019, https://www.ofcom.org.uk/__data/assets/pdf_file/0024/190518/children-media-use-attitudes-2019-chart-pack.pdf.

⁶⁷ Council of Europe (2018), *Guidelines to Respect, Protect and Fulfil the Rights of the Child in the Digital Environment, Recommendation CM/Rec(2018)7 of the Committee of Ministers, Building a Europe for and with Children*, <https://rm.coe.int/guidelines-to-respect-protect-and-fulfil-the-rights-of-the-child-in-th/16808d881a>.

8-rasm: Internetdan uyda (2012y.) yoki uydan tashqarida (2017, 2018 va 2019yy.) internetdan xavfsiz foydalana olish bo'yicha qandaydir axborot yoki maslahatlar olganligini xabar qilgan bolalar, yoshi bo'yicha ajratgan holda⁶⁸



8-rasm "Uyda (2012) yoki boshqa joyda (2017, 2018 va 2019) Internetdan foydalanayotganlar orasida internetdan xavfsiz foydalanish bo'yicha har qanday malumot yoki maslahat olganligi haqida xabar bergan bolalar (8-11 yosh va 12-15 yosh)" har qanday malumot olindimi yoki yo'qmi, va agar mavjud bo'lsa, nechta manbadan qaysi biri: o'qituvchilar, ota-onalar, do'stlar, boshqa oila azolari, maktabga kelgan politsiyadan, veb-saytlarda, televideniye yoki radio eshittirishlaridan olinganligini ko'rsatadigan bir qator yoshga qarab ajratilgan chizikli grafiklarni taqdim etadi. Ko'pgina manbalarga ko'ra, 2012, 2017, 2018 va 2019-yillarda ko'rsatkichlarning barqaror o'sishi kuzatilmoqda.

Manba: Ofcom

- Dastlab, onlayn xavfsizlikni ta'minlashga yondashuvlar asosan filtrlash dasturlari kabi texnologiyalardan foydalanishga asoslangan edi, ammo so'nggi yillarda axborot texnologiyalarining mobilligi ortib bormoqda, shuning uchun odatiy ish stoli kompyuterlari endi Internetga kirishning yagona vositasi emas. Mobil telefonlar, planshetlar, shaxsiy raqamli yordamchilar va o'yin pristavkalari sonining ko'payishi keng polosali aloqa imkoniyatlarini taminlaydi hamda bolalar va yoshlar maktabda, uyda, kutubxonada, internet-kafelarda, tez ovqatlanish restoranlarida, yoshlar klublarida va hatto maktabga ketayotganda jamoat transportida Internetdan foydalanishlari mumkin. Maktablar yopiq tarmoq ichida yoki shunchaki boshqa bolalar va yoshlar bilan birga Internetda birgalikda ishlash imkoniyatini beradi. Bunday tarmoqni samarali himoya qilishni taminlash birinchi navbatdagi aniq chora hisoblanadi. Bunda bolalar va yoshlar tarmoq himoyasi bilan qamrab olinmagan shaxsiy qurilmalari bo'lishi mumkin, shuning uchun talim, muhokama va dialog asosiy ahamiyatga ega.
- Onlayn xavfsizlik sohasidagi siyosat manfaatdor guruhlar va tomonlarning keng doirasini qamrab oladigan tarzda ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi kerak. Bularga, xususan quyidagilar kiradi:
 - maktab direktorlari;
 - rahbarlar;
 - bosh mamuriy-boshqaruv xodimlari;

⁶⁸ Ofcom (2020), *Children and Parents: Media Use and Attitudes Report 2019*, https://www.ofcom.org.uk/__data/assets/pdf_file/0024/190518/children-media-use-attitudes-2019-chart-pack.pdf.

- o'qituvchilar;
- texnik xodimlar;
- ota-onalar yoki vasiylar;
- mahalliy hokimiyat organlari xodimlari;
- mumkin bo'lgan joyda - Internet-provayderlar va maktablarda Internetga ulanish va keng polosali xizmatlardan foydalanishni ta'minlovchilar.

Ushbu guruhlarining barchasi maktab siyosatini shakllantirishga muhim hissa qo'shishi mumkinligi sababli, ulardan har birining vakillari bilan maslahatlashish muhimdir. Biroq o'z-o'zidan siyosatga ega bo'lish yetarli emas hamda bolalar va yoshlar bilan muloqotda bo'lgan har bir kishi xodimlarga xavfsiz xatti-harakatlar qanday bo'lishi kerakligini va tegishli ko'nikmalarni qanday rivojlantirish kerakligini aniqlashga yordam berish uchun faol yondashuvga amal qilishi kerak. Bu guruhlarining barchasini dastlabki bosqichda jalb qilish har bir kishiga bunday siyosatning muhimligini, shuningdek, uni amalga oshirish uchun shaxsiy javobgarligini anglab yetish imkonini beradi.

AKTni o'rganish uchun xavfsiz muhitni yaratish bir qator muhim elementlarni o'z ichiga oladi, jumladan:

- umumiy xabardorlikni ta'minlash mexanizmi;
- javobgarlik, qoidalar va protseduralar;
- samarali texnologik vositalar majmuasi;
- elektron xavfsizlik masalalari bo'yicha kompleks ta'lim;
- muassasa doirasida barcha uchun o'qitish dasturlari;
- AKT sohasida o'qitish sharoitlari samaradorligining uzluksiz monitoringini ta'minlovchi sharhlar jarayoni.

Bu elementlarning barchasi maktabda amal qiladigan bolalar xavfsizligini ta'minlash siyosatiga kiritilishi kerak va faqat AKT mutaxassislarining mas'uliyat sohasiga tegishli sifatida qaralmasligi kerak. Internetda yoki mobil qurilmalar orqali ta'qib qilish real hayotdagi ta'qibdan juda farq qiladi deb o'ylashdan ma'no yo'q. Ammo shunga qaramay, texnologiyalar ushbu muammoni hal qilishga katta hissa qo'shishi mumkin, xususan quyidagilarni o'rnatish hisobiga:

- virusga qarshi profilaktika va himoya dasturlari;
- kim nimani yuklayotganini, qachon va qaysi kompyuterda yuklanganligini kuzatish uchun monitoring tizimlari;
- maktab tarmog'i orqali nomaqbul kontentning uzatilishini kamaytirish uchun kontentni filtrlash va nazorat qilish dasturlari.

Hamma bolalar va yoshlar ham yangi texnologiyalardan kelib chiqadigan qiyinchiliklarga duch kelmaydi; bundan tashqari, ushbu muammolarning paydo bo'lishi bunday texnologiyalardan foydalanadigan bolalar va yoshlarning yoshiga bog'liq. 2008-yil oxirida AQSHning Internetda xavfsizlik bo'yicha texnik maqsadli guruhi onlayn texnologiyalar kontekstida bolalarning xavfsizligi darajasini oshirish to'g'risidagi hisobotni e'lon qildi, unda onlayn muhitda shahvoniy xarakterdagi xatti-harakatlarga undash, onlayn shilqimlik qilish va ta'qib qilish, shuningdek zararli kontentning ta'siri muammolari bo'yicha nashr etilgan tadqiqotning asosini tashkil etuvchi adabiy manbalarning sharhi taqdim etilgan⁶⁹. Hisobotda qayd etilishicha, "bu qo'rquvlar ommaviy axborot vositalari tomonidan haddan tashqari oshirib yuborilayotgani xavotir uyg'otadi, shu bilan birga, yoshlar duch keladigan real xavflar unchalik dahshatli emas".

⁶⁹ ISTTF (2008), *Enhancing Child Safety and Online Technologies: Final Report of the Internet Safety Technical Task Force to the Multi-State Working Group on Social Networking of State Attorneys General of the United States*, https://cyber.harvard.edu/sites/cyber.law.harvard.edu/files/ISTTF_Final_Report.pdf.

Oradan o'n yildan ko'proq vaqt o'tgan bo'lsa ham, bu xulosa hali ham o'z kuchini saqlab qolyapti: ota-onalar va o'qituvchilar har tomondan kattalarni bolalarga onlayn xizmatlardan xavfsiz foydalanishga o'rgatish va qo'llab-quvvatlashdan ko'ra onlayn xizmatlardan foydalanishni cheklashga majburlaydigan sarlavhalarga duch kelishmoqda .

Buning oqibatida ma'lum bo'lgan xavf-xatarlar bartaraf etilmay qolishi xavfi mavjud bo'lib, jamiyat ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish choralarini ko'rishi, bu esa, o'z navbatida, ko'zda tutilmagan zararga olib kelishi mumkin. Internetda bolalar va yoshlarga nisbatan sodir etilayotgan jinoyatlarning ommaviy axborot vositalarida yoritilishi ko'p jihatdan ushbu masalalar bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar va olimlar o'rtasida ikki qarama-qarshi guruhga bo'linganligini aks ettiradi, bu yerda, bir tomondan, bolalar va yoshlarga nisbatan tahdidning bo'rttirib ko'rsatilishidan qo'rqasalar, ikkinchi tomondan, bu tahdidni yetarlicha baho berilmagan deb hisoblaganlar.

Har holda ba'zi bolalar va yoshlar Internet-texnologiyalardan foydalanishda zaif bo'lishi mumkinligidan xavotir mavjud, shuning uchun o'qituvchilar, shuningdek, ota-onalar va vasiylar zimmasiga ma'lum mas'uliyat yuklanadi. Bolalar va yoshlarni onlayn muhitda viktimizatsiya qilish quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- bolalarni shahvoniy xarakterdagi xatti-harakatlarga undash yoki gruming;
- zararli yoki noqonuniy materiallarning ta'siri;
- ayrim yoshlar tomonidan xavfli xulq-atvoriga sabab bo'ladigan muhitning ta'siri;
- kiberta'qib.

Bolalar onlayn muhitda duch keladigan xavflarning tasnifi 7-rasmda ko'rsatilgan.

Norasmiy ta'lim muhiti

Maktab va uydan tashqari bolalar ko'pincha Internet va tegishli xizmatlardan yoshlar klublari yoki cherkov guruhlari kabi norasmiy muhitda foydalanadilar. Bolalar va yoshlarda onlayn muhit va real dunyoning o'zaro bog'liqligi sababli, bunday tashkilotlarda ular bilan ishlaydigan kattalar bolalarning raqamli muhit va onlayn xavfsizligi ko'nikmalari to'g'risidagi tasavvurga ta'sir ko'rsatishi ehtimoli katta, garchi ularning faoliyati bu masalalar bilan bevosita bog'liq bo'lmasa ham. Shu tariqa, norasmiy sharoitda bolalar bilan ishlaydigan har bir kishi onlayn xavf va imkoniyatlar haqida bir oz tushunchaga ega bo'lishi va bolalarni qanday qilib to'g'ri qo'llab-quvvatlashni yoki qayerda yordam olishni va kerakli ko'nikmalarga o'rganishni bilishi kerak.

O'qituvchilar uchun rahbariy ko'rsatmada keltirilgan asosiy fikr-mulohazalar va prinsiplar ushbu norasmiy vaziyatlar uchun ham dolzarb, ammo kontekstga bog'liq holda ularni tuzatish yoki qo'shimcha fikr-mulohazalar kerak bo'lishi mumkin.

Qurilmalar, filtrlash va kommunikatsiyalarni boshqarish

Norasmiy muhitda yordamchi xodimlar, ko'ngillilar va bolalar shaxsiy qurilmalar yordamida xizmatlardan tez-tez foydalanishlari mumkin yoki qurilmalarni boshqarish va kontentni filtrlash tizimlari maktablarga qaraganda kamroq foydalanishi yoki ishonchli bo'lishi mumkin. Shu tariqa norasmiy muhit sharoitlarida, birinchi navbatda, amaliyotchi ishchilar va bolalar o'z qurilmalarini qanday himoya qilish va ishlatishni bilishlarini ta'minlashlari kerak. Shuningdek mavjud filtrlash imkoniyatlari juda oddiy bo'lishi mumkinligini hisobga olsak, o'qituvchilar va bolalar bunday himoyaga juda ko'p ishonmasliklari kerak.

Tegishli tashkilotlarda hali ham bolalarni himoya qilish bo'yicha qat'iy va puxta o'ylangan siyosat hamda rahbariy ko'rsatmalar bo'lishi kerak - garchi o'qituvchilar va ko'ngillilar har doim ham mahalliy qurilmalar yoki xizmat elektron pochtasidan foydalan olish imkoniga ega emaslar. Demak tegishli siyosatda va uni amalga oshirishda shaxsiy qurilmalardan foydalanishga, shuningdek, bunday foydalanish xavfsizligini nazorat va monitoring qilishning mavjudligi / usullariga qo'shimcha e'tibor berilishi kerak.

Xuddi shunday vaziyat, ta'lim texnologiyalari, jihozlari va qo'llab-quvvatlashdan foydalanish imkoni bo'lmaganda, norasmiy muhitlar maktablarga qaraganda ko'proq ijtimoiy media va messenjerlardan foydalanadi. Shunday qilib, ulardan qanday foydalanilishini va ularni xavfsiz boshqarishni aniqlash uchun tashkiliy siyosat, amaliyot va trening jihatlarini qo'shimcha ko'rib chiqish talab qilinishi mumkin.

O'qitish va qo'llab-quvvatlash

Norasmiy muhitda ishlaydigan o'qituvchilar va ko'ngillilar o'qitish va ko'nikmalarni takomillashtirish uchun kamroq imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin, shuningdek, rasmiy ta'lim sohasida ishlaydigan o'qituvchilar odatda foydalana oladigan yordamdan foydalanishlari mumkin. Shunga ko'ra, bunday norasmiy tashkilotlar ushbu sohada o'qitish va yordamni qanday izlash, tashkil qilish va to'lash mumkinligi haqidagi masalani ko'rib chiqish kerak.

O'qituvchilar e'tiborga olishlari kerak bo'lgan ba'zi asosiy fikr-mulohazalar 2-jadvalda keltirilgan.

10 O'qituvchilar uchun rahbariy ko'rsatmalar

Shuni tan olish kerakki, o'qituvchilar/pedagoglar quyidagi 2-jadvalda tavsiya etilgan ba'zi tavsiyalarni mustaqil ravishda amalga oshira olmaydi – xususan bu filtrlash va monitoring bo'yicha tavsiyalarga tegishli. Maktab yoki boshqa ta'lim tashkiloti darajasida tegishli choralar ko'riladi deb ko'zda tutiladi.

2-jadval: O'qituvchilar e'tiborga olishi kerak bo'lgan asosiy fikr-mulohazalar

	#	Asosiy fikr-mulohazalar	Tavsifi
Qurilma xavfsizligi va ishonchligi	1	Barcha qurilmalar ishonchli himoyalanganligiga va ularda parol o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.	O'qituvchilar ham boshqalar kabi kiberhujumlar, zararli dasturlar, viruslar va buzib kirishlar oldida himoyasiz. O'qituvchilar tomonidan foydalaniladigan barcha qurilmalar yetarli darajada himoyalangan bo'lishi (kuchli parol bilan) va foydalanilmayotganda blokirovkalangan bo'lishi muhim (masalan, o'qituvchi sinfdan chiqishi kerak bo'lsa, u foydalangan barcha qurilmalarni bloklashi yoki ish seansini tugatishi/hisobga olish yozuvidan chiqishi kerak).
	2	Antivirus dasturiy ta'minoti va brandmauer o'rnatish	Barcha qurilmalarda brandmauer va antivirus dasturini o'rnatish hamda ularning muntazam yangilanib turishini kuzatish.
Siyosat	3	Barcha maktablarda maktab ichidagi ta'lim jarayonining turli ishtirokchilari texnologiyalardan qayerda va qanday foydalanishi mumkinligini, shuningdek, bolalar xavfsizli bilan bog'liq noxush hodisalarga, shu jumladan onlayn muhitda javob berishni tartibga soluvchi siyosat bo'lishi kerak.	O'qituvchilar mobil texnologiyalar va boshqa elektron qurilmalardan foydalanish siyosatiga rioya qilishlari shart. O'qituvchilar qurilmalarda foydalanishda to'g'ri xatti-harakatlar namunasini ko'rsatishi muhimdir. Maktablarda mobil qurilmalardan qayerda va qachon foydalanish mumkinligi haqidagi qoidalar o'rnatilishi kerak.
	4	O'qituvchilarning fotosuratlari.	Maktablarda o'qituvchilarni suratga olish qoidalari o'rnatilishi kerak. Maktab xodimlari ta'lim maqsadida o'qituvchilarni suratga olishlari mumkinmi? Ota-onalar/vasiylar/o'qituvchilarning o'zlaridan bunga ruxsat olinganmi? Qoidalarda o'qituvchilar va xodimlarning xavfsizligi manfaatlarini ko'zlab, bu maqsadlarda shaxsiy qurilmalardan foydalanish taqiqlanganligi ko'rsatilganligi ma'qul.

	#	Asosiy fikr-mulohazalar	Tavsifi
Filtrlash va monitoring	5	Maktabning Internet ulanishi orqali uzatiladigan ma'lumotlarni filtrlashni va monitoringini ta'minlash.	<p>O'quvchilar maktab IT tizimlari orqali zararli yoki nomaqbul kontentdan foydalanmasliklari kerak. Hech qanday filtrlash tizimi 100% himoyani ta'minlamaydi, shuning uchun texnologik yechimlarni sifatli o'qitish va samarali nazorat bilan mustahkamlash muhimdir. Filtrlash tizimlari hech bo'lmaganda noqonuniy kontentga, shuningdek, nomaqbul yoki zararli deb topilgan kontentga kirishni bloklashi kerak. Xususan, gap zararli kontentning quyidagi toifalari haqida ketyapti:</p> <ul style="list-style-type: none"> • diskriminatsiya • tajovuzkor bayonotlar • psixoaktiv va giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish • ekstremizm • pornografiya • qaroqchilik va mualliflik huquqini o'zlashtirish • o'ziga zarar yetkazish yoki o'z joniga qasd qilish bilan bog'liq materiallar • haddan tashqari shafqatsizlik
Onlayn obro'/raqamli iz	6	Raqamli iz va onlayn obro' ahamiyatini tushunish kerak	<p>O'qituvchilar ularining internetdagi so'zlari va xatti-harakatlari o'zlarining obro'siga hamda maktab/o'quv muassasa obro'siga ta'sir qilishi mumkinligini tushunishlari zarur.</p> <p>O'qituvchilar o'zlarining kasbiy maqomlarini yodda tutishlari va shunga mos ravishda onlayn muhitda o'zini tutishlari kerak. Shuningdek, bolalarga onlayn obro'-e'tiborning ahamiyati va uni qanday qilib to'g'ri shakllantirish haqida o'rgatish kerak.</p>

	#	Asosiy fikr-mulohazalar	Tavsifi
Professional kommunikatsiya xavfsizligini qanday ta'minlash kerak	7	O'quvchilar, ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan professional onlayn kommunikatsiyaning muhimligini tan olish kerak.	<p>O'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy hayoti o'rtasida har doim aniq chegara bo'lishi kerak va bu ularning onlayn faoliyatiga ham tegishli.</p> <p>Maktab xodimlari va o'quvchilar yoki ota-onalar o'rtasidagi har qanday bog'lanish uchun har doim maktab elektron pochtasidan foydalanish kerak.</p> <p>Maktabning aloqa siyosati yoki ish etikasi kodeksi ta'lim faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan yakkama-yakka muloqotni va har qanday aloqalarni yoki maktabdan tashqari platformalardagi aloqalar taqiqlashni nazarda tutishi mumkin.</p> <p>O'quvchilar yoki ota-onalar/vasiylar bilan muloqot qilish uchun shaxsiy qurilmalardan foydalanmaslik maqbul.</p> <p>Imkoni boricha yakkama-yakka raqamli muloqot qilmaslik kerak.</p> <p>Videokonferensaloqa yoki masofaviy ish rejimida mashg'ulotlar o'tkazilgan holda, maktablar xodimlar hamda o'quvchilar uchun aniq ko'rsatmalarni berishi kerak (masalan, masofadan mashg'ulot/aloqa seansi uchun joy tayyorlash kerakligi, ya'ni mashg'ulotni yotoqxonada o'tkazish kerakmasligi va atrofingizda - uydami/sinfdami bo'lgan odamlar haqida o'ylash kerak).</p>
O'quvchilarning xulq-atvori, ularning onlayn muhitdagi ojizligi va ularning xavfsizligi farovonligi uchun oqibatlar	8	Internetning o'quvchilar uchun nimasi bilan xavfli bo'lishi va nimasi bilan foydali bo'lishi mumkinligini tushunish kerak	O'qituvchilar bolalar va yoshlarning internetda vaqtlarini qanday o'tkazishlari, ular qanday xavf-xatarlarga duch kelishlari va qanday foyda olishlari mumkinligini bilishlari kerak.

11 Xulosa

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) zamonaviy insonning turmush tarzini o'zgartirdi. Ular bizga real vaqt rejimida muloqot qilish imkonini beradi hamda axborot va innovatsion xizmatlarning keng spektridan transchegaraviy va deyarli cheksiz foydalanish imkoniyatini ochib beradi. Shu bilan birga ushbu texnologiyalar ekspluatatsiya va yomon maqsadda foydalanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Tegishli himoya vositalarisiz Internetning eng faol foydalanuvchilari qatorida bo'lgan bolalar va yoshlar majburiy shahvoniy xarakterdagi xatti-harakatlar va ta'qib qilish xavfiga, shuningdek, zo'ravonlik, shahvoniy xarakterdagi kontent va boshqa ruhiy shikast yetkazuvchi materiallar nojo'ya ta'siriga uchraydilar.

Xavfsiz kibermuhitni yaratuvchi tegishli mexanizmlarsiz bolalar va yoshlar ojiz bo'lib qoladi. AKTdan xavfsiz foydalanish bilan bog'liq xavf-xatarlardan xabardorlik darajasi oshib borayotganiga qaramay, bu sohada hali ko'p ishlar qilinishi kerak. Shu sababli, ota-onalar va o'qituvchilar bolalar va yoshlar bilan bunday texnologiyalardan foydalanish uchun nima maqbul va xavfsiz ekanligini, shuningdek, bunday AKTdan foydalanishda mas'uliyatli xatti-harakatlar nimadan iborat ekanligini muhokama qilishlari va qaror qabul qilishlari juda muhimdir.

Ota-onalar, o'qituvchilar, bolalar va yoshlar birgalikda harakat qilishlari orqali bolalar va yoshlar uchun ehtimoliy xavf-xatarlarni kamaytirish bilan birga AKT afzalliklaridan bahramand bo'lishlari mumkin.

Atamalar

Quyida berilgan ta'riflar, birinchi navbatda, 1989-yildagi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq ishlab chiqilgan mavjud terminologiyaga, shuningdek, Bolalarni shahvoniy ekspluatatsiya va shahvoniy suiiste'molliklardan himoya qilish sohasidagi terminologiya bo'yicha rahbariy ko'rsatmalar doirasida Bolalarni shahvoniy ekspluatatsiya qilish bo'yicha xalqaro idoralararo ishchi guruh tomonidan tuzilgan mavjud terminologiyaga (Lyuksemburg rahbariy ko'rsatmalari, 2016-yil),⁷⁰ Yevropa Kengashining 2012-yilgi⁷¹ Bolalarni shahvoniy xarakterdagi ekspluatatsiya va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risidagi konvensiyasi va 2019-yildagi⁷² Global Kids Online hisobotiga asoslanadi..

O'smir

O'smirlar – bu 10 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan odamlar. Shuni ta'kidlash muhimki, xalqaro huquqda “o'smirlar” majburiy atamasi mavjud emas va 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarga bolalar sifatida qaraladi, ayni damda 19 yoshdagilar voyaga yetgan deb hisoblanadi, agar milliy qonunchilikka muvofiq balog'at yoshi vaqtliroq kelgan holatlardan tashqari.⁷³

Sun'iy intellekt (SI)

Keng ma'noda ushbu atama sof ilmiy fantastika sohasiga tegishli bo'lgan tizimlarni (o'zini anglash shakliga ega “kuchli” SI) hamda mavjud va juda murakkab vazifalarni bajara oladigan tizimlar (ovoz yoki shaxslarni aniqlash, transport vositasini boshqarish: “zaif” yoki “o'rtacha” SI)ni noaniq belgilaydi.⁷⁴

Sun'iy intellekt tizimlari

SI tizimi - bu inson tomonidan belgilangan maqsadlar to'plami doirasida real yoki virtual muhitga ta'sir ko'rsatadigan bashoratlar tuzish, tavsiyalar berish yoki qarorlar qabul qilishi mumkin bo'lgan mashinalar asosidagi tizim. SI tizimi avtonomlikning turli darajalari bilan ishlashga mo'ljallangan.⁷⁵

Alexa

Amazon Alexa, oddiygina **Alexa** nomi bilan tanilgan, Amazon tomonidan ishlab chiqilgan SI tizimi - virtual yordamchidan iborat. U ovozli aloqa, musiqa eshittirish, vazifalar ro'yxatini tuzish, signallarni o'rnatish, podkastlar va audiokitoblarni eshittirish, ob-havo, yo'llardagi vaziyat, sport hodisalari to'g'risidagi ma'lumotlar va real vaqtdagi boshqa axborot, masalan, yangiliklarni xabar qilish funksiyalarini bajaradi. Alexa shuningdek, maishiy avtomatlashtirish tizimi sifatida ishlab, bir nechta “aqli” qurilmalarni nazorat qilishi mumkin. Foydalanuvchilar “aqli” ilovalarni (boshqa yetkazib beruvchilar tomonidan ishlab chiqiladigan, boshqa holatlarda ob-havoni

⁷⁰ Terminology and Semantics (2016), *Luxembourg Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse*, <http://luxembourguidelines.org/wp-content/uploads/2017/06/Terminology-guidelines-396922-EN.pdf>.

⁷¹ Council of Europe (2012), *Protection of Children against Sexual Exploitation and Sexual Abuse: Council of Europe Convention*, https://www.coe.int/t/dg3/children/1in5/Source/Lanzarote%20Convention_EN.pdf.

⁷² Globalkidsonline.net (2019), *Done Right, Internet Use Can Increase Learning and Skills*, <http://globalkidsonline.net/synthesis-report-2019/>.

⁷³ UNICEF and ITU (2015), *Guidelines for Industry on Child Online Protection*, https://www.itu.int/en/cop/Documents/bD_Broch_INDUSTRY_0909.pdf.

⁷⁴ Council of Europe (2020), *What's AI?*, <https://www.coe.int/en/web/artificial-intelligence/what-is-ai>.

⁷⁵ OECD (2019), *Recommendation of the Council on Artificial Intelligence*, <https://webcache.googleusercontent.com/search?q=cache:hTtMv9k1ak8J:https://legalinstruments.oecd.org/api/print%3Fids%3D648%26lang%3Den+&cd=3&hl=en&ct=clnk&gl=ch&client=safari>.

kuzatish dasturlari va audiofunktsiyalar kabi ilovalar deb ataladigan qo'shimcha funksional imkoniyatlar) o'rnatish orqali Alexa imkoniyatlarini kengaytirishlari mumkin.⁷⁶

Bolaning eng yaxshi manfaatlari

Muayyan bola yoki bolalar guruhi uchun muayyan vaziyatda qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan barcha elementlarni tavsiflaydi.⁷⁷

Bola

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 1-moddasiga muvofiq, 18 yoshga to'lmagan har qanday shaxs bola deb hisoblanadi, agar milliy qonunchilikda balog'at yoshidan ancha oldin yosh belgilanmagan bo'lsa.⁷⁸

Bolalarga nisbatan shahvoniy ekspluatatsiya va shahvoniy suiiste'molliklar (CSEA)

Ushbu tushuncha shahvoniy ekspluatatsiya va shahvoniy suiiste'molliklarning barcha shakllarini tavsiflaydi (1989-yildagi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, 34-modda), masalan, (a) bolani har qanday noqonuniy shahvoniy faoliyatga undash yoki majburlash; (b) bolalarni fohishalikda yoki boshqa noqonuniy shahvoniy amaliyotda ekspluatatsiya qilish maqsadlarida foydalanish; (c) bolalardan pornografiya va pornografik materiallarda ekspluatatsiya qilish maqsadida foydalanish⁷⁹, shuningdek, "shaxsning roziligisiz unga nisbatan kuch ishlatgan holda jinsiy aloqa qilish". Bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasi va zo'rovonligi (CSEA) tobora ko'proq Internet orqali yoki onlayn muhit bilan bog'liq holda sodir bo'lmoqda.⁸⁰

Bolalarga nisbatan shahvoniy ekspluatatsiya va shahvoniy suiiste'molliklar bilan bog'liq materiallar (CSAM)

AKTning jadal rivojlanishi virtual shaklda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan va bola bilan shaxsiy uchrashuvni ko'zda tutmaydigan onlayn muhitda bolalarga nisbatan shahvoniy ekspluatatsiya va shahvoniy suiiste'molliklarning yangi shakllari paydo bo'lishiga olib keldi⁸¹. Garchi ko'pgina yuridik tizimlarda bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'molliklar bilan bog'liq tasvirlar va videomateriallarga "bolalar pornografiyasi" yoki "bolalarning uyatsiz tasvirlari" sifatida qaralsada, ushbu Rahbariy ko'rsatmalarda umumlashtirilib bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'molliklar (bu yerda va bundan keyin - CSAM) bilan bog'liq materiallar deb nomlanadi. Bu atama Keng polosali aloqa komissiyasining Rahbariy ko'rsatmalariga va WePROTECT Global alyansi tomonidan ishlab chiqilgan milliy darajadagi javob berish modeliga mos keladi⁸². Ushbu atama mazkur kontentni yanada aniq tavsiflaydi. Pornografiya

⁷⁶ Amazon (2019), *Alexa Skills Kit Official Site: Build Skills for Voice*, <https://developer.amazon.com/en-US/alexa/alexa-skills-kit>.

⁷⁷ OHCHR (1990), *Convention on the Rights of the Child*, <https://www.ohchr.org/en/professionalinterest/pages/crc.aspx>.

⁷⁸ UNICEF and ITU (2015), *Guidelines for Industry on Child Online Protection*, https://www.itu.int/en/cop/Documents/bd_Broch_INDUSTRY_0909.pdf

⁷⁹ Terminology and Semantics (2016), *Luxembourg Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse*, <http://luxembourgguidelines.org/wp-content/uploads/2017/06/Terminology-guidelines-396922-EN.pdf>.

⁸⁰ Terminology and Semantics (2016), *Luxembourg Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse*, <http://luxembourgguidelines.org/wp-content/uploads/2017/06/Terminology-guidelines-396922-EN.pdf>.

⁸¹ Terminology and Semantics (2016), *Luxembourg Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse*, <http://luxembourgguidelines.org/wp-content/uploads/2017/06/Terminology-guidelines-396922-EN.pdf> .;" UNICEF and Global Kids Online (2019), *Global Kids Online Comparative Report*, <https://www.unicef-irc.org/publications/pdf/GKO%20LAYOUT%20MAIN%20REPORT.pdf>.

⁸² WePROTECT Global Alliance (2016), *Preventing and Tackling Child Sexual Exploitation and Abuse (CSEA): A Model National Response.*

qonuniy tijorat ishlab chiqarishni ko'zda tutadi; Lyuksemburg Rahbariy ko'rsatmalarida "bolalar pornografiyasi" atamasi qo'llanishining quyidagi ta'rifi beriladi: u mohiyatan bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'molliiy va/yoki shahvoniy ekspluatatsiyasining og'irlik darajasini yengillashtirishga, kamaytirishga yoki hatto qonuniylashtirishga (ixtiyoriy yoki beixtiyor) yordam berishi mumkin". "Bolalar pornografiyasi" atamasi bu tushunchani go'yyoki harakatlar bolaning roziligi bilan amalga oshirilganligi va qonuniy shahvoniy xarakterdagi material sifatida talqin qilinishi xavfini tug'diradi ⁸³.

CSAM atamasi bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik va/yoki ularni shahvoniy ekspluatatsiya qiluvchi harakatlarni ifodalovchi materialga tegishli. Bularga kattalar tomonidan bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik bilan bog'liq materiallar, behayo shahvoniy xatti-harakatlarga jalb qilingan bolalar tasvirlari, bolalarning jinsiy a'zolari ifodalangan tasvirlar, tasvirlardan asosan shahvoniy xarakterdagi maqsadlar uchun ishlab chiqarilsa yoki foydalanilsa.

Bolalar va yoshlar

18 yoshgacha bo'lgan barcha shaxslar tushuniladi, bunda ushbu rahbariy ko'rsatmalarda "yosh bolalar" deb ham ataladigan "bolalar"ga 15 yoshgacha bo'lgan barcha shaxslar kiradi, yoshlar esa 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar guruhini tashkil etadi.

Internetga ulangan o'yinchoqlar

Internetga ulangan o'yinchoqlar Wi-Fi va Bluetooth kabi texnologiyalar yordamida internetga ulanadi va odatda bolalar uchun interaktiv o'yinni yoqish uchun qo'shimcha ilovalar bilan birgalikda ishlaydi. Juniper Research kompaniyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, 2015-yilda internetga ulangan o'yinchoqlar bozori 2,8 mlrd. AQSH dollariga yetdi va 2020-yilga kelib 11 mlrd. AQSH dollariga o'sishi prognoz qilinmoqda. Bu o'yinchoqlar bolalarning ismlari, geolokatsiyasi ma'lumotlari, manzillari, fotosuratlari, audio- va videoyozuvlari kabi shaxsiy axborotni yig'adi va saqlaydi⁸⁴.

Kiberta'qib, shuningdek onlayn muhitda ta'qib deb nomlanadi

Kiberta'qib raqamli texnologiyalardan foydalangan holda shaxslar guruhi yoki shaxs tomonidan qayta-qayta amalga oshiriladigan va o'zini himoya qila olmaydigan jabrlanuvchiga qaratilgan qasddan tajovuzkor harakatni tasvirlaydi.⁸⁵ Bu odatda "raqamli texnologiya va internetdan kimdir haqida haqoratli axborotni joylashtirish, shaxsiy xarakterdagi ma'lumotlar, nomaqbul fotosuratlar yoki videolarni qasddan tarqatish, tahdidli yoki haqoratli xabarlar (elektron pochta, xabarlar bilan darhol almashish formatida, chatlarda va matn xabarlarida) yuborish, jabrlanuvchi to'g'risida mish-mishlar va yolg'on axborotni tarqatish yoki uni onlayn muloqotdan ataylab chiqarib tashlashni ko'zda tutadi".⁸⁶ Bu to'g'ridan-to'g'ri (chatlarda yoki matnli

<https://static1.squarespace.com/static/5630f48de4b00a75476ecf0a/t/582ba50bc534a51764e8a4ec/1479255310190/WePROTECT+Global+Alliance+Model+National+Response+Guidance.pdf> ; Broadband Commission (2019), *Child Online Safety: Minimizing the Risk of Violence, Abuse and Exploitation Online*, https://broadbandcommission.org/Documents/working-groups/ChildOnlineSafety_Report.pdf .

⁸³ Terminology and Semantics (2016), Luxembourg Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse, <http://luxembourgguidelines.org/wp-content/uploads/2017/06/Terminology-guidelines-396922-EN.pdf>.

⁸⁴ Jeremy Greenberg (2017), *Dangerous Games: Connected Toys, COPPA, and Bad Security*, <https://georgetownlawtechreview.org/dangerous-games-connected-toys-coppa-and-bad-security/GLTR-12-2017/>.

⁸⁵ Anna Costanza Baldry, Anna Sorrentino, and David P. Farrington (2019), *Cyberbullying and Cybervictimization versus Parental Supervision, Monitoring and Control of Adolescents' Online Activities*, <https://doi.org/10.1016/j.childyouth.2018.11.0058>.

⁸⁶ Terminology and Semantics (2016), *Luxembourg Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse*, <http://luxembourgguidelines.org/wp>

xabarlarda), cheklangan jamoada (elektron pochta manzillari ro'yxatiga xabarlar va bezovta qiluvchi xabarlarni yuborish) yoki jamoat joylarida (masalan, bezoriliklar uchun veb-saytlarni yaratish) amalga oshirilishi mumkin.

Kibernaftrat, diskriminatsiya va zo'ravonlik ekstremizmi

"Kibernaftrat, diskriminatsiya va zo'ravonlik ekstremizmi kabi kiberzo'ravonlikning o'ziga xos shaklidir, chunki ular jismoniy shaxslarga emas, balki jamoaviy identifikatsiyaga qaratilgan ko'pincha irqiy, jinsiy oriyentatsiya, din, millat yoki immigratsiya holati, jins/gender va siyosatga tegishli tushunchadir"⁸⁷.

Raqamli fuqarolik

Raqamli fuqarolik-raqamli muhitda foydali, mas'uliyatli va vakolatli ishtirok etish, samarali muloqot qilish va yaratish ko'nikmalariga tayanish, texnologiyadan mas'uliyatli foydalanish orqali inson huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qiladigan ijtimoiy ishtirok etish shakllarini amalda qo'llash qobiliyatini anglatadi.⁸⁸

Raqamli savodxonlik

Raqamli savodxonlik deganda, internet-platformalar, ijtimoiy media va mobil qurilmalar kabi raqamli texnologiyalar orqali ma'lumot olish tobora kuchayib borayotgan jamiyatda yashash, o'rganish va ishlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lish tushuniladi.⁸⁹ U bevosita muloqot, texnik ko'nikmalar va tanqidiy fikrlashni o'z ichiga oladi.

Raqamli muhit ta'siriga chidamlilik

Bu atama bolaning onlayn muhitda duch keladigan zararli omillarni emotsional jihatdan yengish qobiliyatini tavsiflaydi. Raqamli chidamlilik bolaning onlayn xavf ostida bo'lganini tushunish, yordam so'rash, tajriba orttirish va omadsiz tarjibalardan so'ng tiklanish uchun zarur bo'lgan hissiy resurslarga ega bo'lishni ham anglatadi.⁹⁰

O'qituvchilar

O'qituvchi - boshqa shaxsning ma'lum bir fan bo'yicha bilimlarini oshirish uchun tizimli ravishda ish olib boradigan shaxs. O'qituvchining roli maktabda ishlashni ham, ko'proq norasmiy o'qitish faoliyatini, masalan, onlayn muhitda xavfsizlik haqida ma'lumot berishni yoki bolalar va yoshlarning onlayn muhitda xavfsizligini ta'minlash uchun jamoat yoki maktabda ijtimoiy tarmoq platformalaridan foydalangan holda o'quv kurslarini o'tkazishni o'z ichiga oladi.

O'qituvchining ishi uning faoliyat yuritishi sharoitlariga va ta'lim olishi maqsad qilingan bolalar va yoshlarning (yoki kattalarning) yosh guruhiga qarab farq qilishi mumkin.

Rahbarlar

Maktab boshqaruvi yoki boshqaruv tuzilmalarida lavozimlarni egallab turgan barcha shaxslarga tegishli.

Gruming/onlayn muhitda gruming

content/uploads/2017/06/Terminology-guidelines-396922-EN.pdf;"UNICEF and Global Kids Online (2019), *Global Kids Online Comparative Report*, <https://www.unicef-irc.org/publications/pdf/GKO%20LAYOUT%20MAIN%20REPORT.pdf>.

⁸⁷ UNICEF and Global Kids Online (2019), *Global Kids Online Comparative Report*, <https://www.unicef-irc.org/publications/pdf/GKO%20LAYOUT%20MAIN%20REPORT.pdf>.

⁸⁸ Council of Europe (date?), *Digital Citizenship and Digital Citizenship Education*, <https://www.coe.int/en/web/digital-citizenship-education/home>.

⁸⁹ Western Sydney University-Claire Urbach (date?), *What Is Digital Literacy?*, https://www.westernsydney.edu.au/studysmart/home/digital_literacy/what_is_digital_literacy.

⁹⁰ Dr. Andrew K. Przybylski, et al. (2014), *A Shared Responsibility. Building Children's Online Resilience Report*, <https://parentzone.org.uk/sites/default/files/Building%20Online%20Resilience%20Report.pdf>.

Lyuksemburg rahbariy ko'rsatmalarida tariflanganidek gruming/onlayn muhitdagi gruming "bola bilan onlayn yoki oflayn jinsiy aloqada bo'lishni osonlashtirish uchun shaxsan yo Internet yoki boshqa raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali munosabatlarni o'rnatish jarayonini anglatadi".⁹¹ Bolalarni jinsiy aloqaga moyil qilish uchun ularni bilmasdan yoki bildirmasdan jinsiy faoliyat yoki suhbatlarga jalb qilish uchun mo'ljallangan jarayon yoki jinoyatchi va bola o'rtasida aloqa va munosabatlarni o'rnatishni o'z ichiga olgan jarayon. "Gruming" atamasi xalqaro huquqlarda mustahkamlanmagan; bazi huquqiy tizimlar, jumladan, Kanada, "lyuring" atamasidan foydalanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) deganda, asosiy e'tibor aloqaga qaratilgan barcha axborot texnologiyalari tushuniladi. Bu kompyuterlar, noutbuklar, planshetlar, smartfonlar, o'yin konsollari, televizorlar va smart soatlar kabi Internetga ulanadigan barcha xizmatlar va qurilmalar kiradi.⁹² Shuningdek, u radio, keng polosali aloqa tarmog'i, tarmoq qurilmalari va yo'ldosh tizimlari kabi xizmatlarni ham o'z ichiga oladi.

Onlayn o'yinlar

Onlayn o'yinlar deganda, Internetga ulangan har qanday qurilma, jumladan, maxsus konsollar, kompyuterlar, noutbuklar, planshetlar va mobil telefonlar orqali har qanday turdagi bir yoki ko'p o'yinchilar ishtirokida har qanday turdagi pullik raqamli o'yinlarni o'ynash tushuniladi.

"Onlayn o'yin ekotizimi" bu e-sport, striming yoki video platformalari orqali boshqalarning video o'yinlar o'ynashini tomosha qilish, bu odatda tomoshabinlarga o'yinchilar va tomoshabinlarning boshqa a'zolari haqida fikr bildirish yoki ular bilan muloqot qilish imkoniyatlarini taqdim etishdir.⁹³

Ota-ona nazorati vositalari

Foydalanuvchilarga (asosan, ota-onalarga) Internetga ulanishi mumkin bo'lgan kompyuter yoki boshqa qurilmaning ba'zi yoki barcha funksiyalarini nazorat qilish imkonini beruvchi dasturiy ta'minot. Odatda, bunday dasturlar veb-saytlar yoki onlayn xizmatlarning ayrim turlari yoki toifalaridan foydalanishni cheklashi mumkin. Ba'zilar shuningdek, vaqtni sozlash imkoniyatini ham beradi, ya'ni qurilmani shunday sozlash mumkinki u faqat ma'lum soatlar oralig'ida Internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lishsin. Yanada mukammallashtirilgan versiyalar qurilmadan yuboriladigan yoki qabul qilinadigan barcha matnli xabarlarini yozib olish imkonini beradi. Odatda, bunday dasturlar parol bilan himoyalangan bo'ladi.⁹⁴

Ota-onalar va vasiylar

Internetdagi bir qator saytlarda ota-onalar haqida umumiy eslatma mavjud (masalan, "ota-ona sahifasida" yoki "ota-ona nazorati" haqida eslatma). Shu sababli, bolalar va yoshlarning Internet saytlaridan xavfsiz va mas'uliyatli foydalanishini ta'minlagan holda, bolalarga Internetdan maksimal darajada foydalanish imkoniyatini beradigan shaxslarni aniqlash va ularga muayyan Internet saytlarga kirishga rozilik berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu hujjatda "ota-ona" atamasi bola uchun huquqiy javobgar bo'lgan har qanday shaxsni (o'qituvchilardan tashqari) anglatadi. Ota-onalarning masuliyat darajasi, shuningdek, yuridik ota-onalik huquqlari turli mamlakatlarga turlicha bo'ladi.

⁹¹ Terminology and Semantics (2016), *Luxembourg Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse*, <http://luxembourgguidelines.org/wp-content/uploads/2017/06/Terminology-guidelines-396922-EN.pdf>

⁹² UNICEF and ITU (2015), *Guidelines for Industry on Child Online Protection*, https://www.itu.int/en/cop/Documents/bD_Broch_INDUSTRY_0909.pdf.

⁹³ UNICEF (2019), *Child Rights and Online Gaming: Opportunities & Challenges for Children and the Industry*, https://www.unicef-irc.org/files/upload/documents/UNICEF_CRBDigitalWorldSeriesOnline_Gaming.pdf.

⁹⁴ UNICEF and ITU (2015), *Guidelines for Industry on Child Online Protection*, https://www.itu.int/en/cop/Documents/bD_Broch_INDUSTRY_0909.pdf.

Shaxsiy axborot

Bu atama onlayn rejimda to'planadigan shaxs to'g'risidagi individual aniqlanadigan axborotni ifodalaydi. Bunga to'liq ism, bog'lanish ma'lumotlari, masalan, uy va elektron pochta manzili, telefon raqamlari, barmoq izlari yoki yuzni tanish uchun ma'lumotlar, sug'urta raqamlari yoki shaxs bilan jismoniy yoki virtual aloqa qilish yoki shaxsning joylashgan manzilini aniqlash imkonini beruvchi boshqa ma'lumotlar kiradi. Shu nuqtayi nazardan, shaxsiy axborot sifatida onlayn rejimda internet xizmatlarini yetkazib beruvchilar tomonidan to'plangan bola va uning atrofida qanday har qanday axborot, shu jumladan, internet va buyumlar Internetga ulangan o'yinchoqlar hamda Internetga ulangan har qanday boshqa texnologiyalarni bildiradi.

Konfidensiallik

Konfidensiallik ko'pincha onlayn muhitda shaxsiy axborotni tarqatish, ijtimoiy tarmoqlarda ochiq profiliga ega bo'lish, internetda notanish odamlar bilan axborot almashish, konfidensiallik sozlamalaridan foydalanish, parollarni do'stlar bilan bo'lishish va konfidensiallikni saqlash muhimligini anglash bilan baholanadi.⁹⁵

Seksting

Seksting, odatda, mobil telefonlar va/yoki Internet orqali o'zlari tomonidan ishlab chiqilgan shahvoniy kontentni, shu jumladan tasvirlar, xabarlar yoki videolarni yuborish, qabul qilish yoki almashish sifatida ta'riflanadi.⁹⁶ Ko'plab mamlakatlarda bolalarning shahvoniy xarakterdagi tasvirlarini yaratish, tarqatish va saqlash noqonuniy hisoblanadi. Bolalarning shahvoniy xarakterdagi tasvirlari tarqatilgan holda, kattalar ularni ko'rmasligi kerak. Kattalar tomonidan shahvoniy xarakterdagi tasvirlarning bolaga namoyish etilishi har doim jinoiy qilmish hisoblanadi; bunday tasvirlarni bolalar o'rtasida tarqatish zarar keltirishi mumkin; bunday noxush hodisalar haqida xabar berish kerak; tarqatilgan tasvirlarni yo'qotish bo'yicha yordam kerak bo'lishi mumkin.

Shahvoniy tovlamachilik yoki bolalarga nisbatan shahvoniy tovlamachilik

Shahvoniy tovlamachilik bu "shaxsni o'zi olgan tasvirlari yordamida undan shahvoniy xizmatlar, pul yoki boshqa manfaatlarni talab qilish maqsadida tasvirdagi shaxsning roziligisiz materialni tarqatish tahdidi bilan shaxsni shantaj qilish (masalan, tasvirlarni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish yordamida)".⁹⁷

⁹⁵ US Federal Trade Commission (1998), *Children's Online Privacy Protection Act*, <https://www.ecfr.gov/cgi-bin/text-idx?SID=4939e77c77a1a1a08c1cbf905fc4b409&node=16%3A1.0.1.3.36&rgn=div5>.

⁹⁶ Terminology and Semantics (2016), *Luxembourg Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse*, <http://luxembourgguidelines.org/wp-content/uploads/2017/06/Terminology-guidelines-396922-EN.pdf>

⁹⁷ Terminology and Semantics (2016), *Luxembourg Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse*, <http://luxembourgguidelines.org/wp-content/uploads/2017/06/Terminology-guidelines-396922-EN.pdf>

Buyumlar interneti

Buyumlar interneti jamiyat va iqtisodiyotni raqamlashtirish yo'lidagi navbatdagi qadam bo'lib, bu yerda odamlar va obyektlarning kommunikatsiya tarmoqlari orqali o'zaro bog'lanishi amalga oshiriladi hamda ularning holati va/yoki atrofdagi muhit haqidagi ma'lumotlar beriladi.⁹⁸

URL

Ushbu qisqartma inglizcha "uniform resource locator", ya'ni "resursning universal ko'rsatkichi" - sahifaning Internetdagi manzilini anglatadi.⁹⁹

Virtual reallik

Virtual reallik - bu kompyuter texnologiyalari yordamida uch o'lchamli dunyo effektini yaratish, bunda obyektlar fazoda real mavjud bo'lgan sifatida qabul qilinadi.¹⁰⁰

WI-FI

Wi-Fi (inglizcha "Wireless Fidelity" – "simsiz uzatishning yuqori aniqligi") — simsiz tarmoqlar orqali ma'lumotlarni uzatish imkonini beruvchi texnik standartlar to'plami.¹⁰¹

⁹⁸ Ntantko (2013), *The Internet of Things, Digital Single Market*, <https://ec.europa.eu/digital-single-market/en/internet-of-things>.

⁹⁹ UNICEF and ITU (2015), *Guidelines for Industry on Child Online Protection*, https://www.itu.int/en/cop/Documents/bD_Broch_INDUSTRY_0909.pdf.

¹⁰⁰ NASA (date?), *Virtual Reality*, online under: <https://www.nasa.gov/Software/VWT/vr.html>.

¹⁰¹ US Federal Trade Commission (1998), *Children's Online Privacy Protection Act*, <https://www.ecfr.gov/cgi-bin/text-idx?SID=4939e77c77a1a1a08c1cbf905fc4b409&node=16%3A1.0.1.3.36&rgn=div5>.